ISSN 3030-3907

2024/6
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Dekabr

Development of science

Ilmiy jurnal

2024/6 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Dekabr 2024

ISSN 3030-3907

Bosh muharrir:
Temirov Alisher Hoshim o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Bosh muharrir o'rinbosari:
Izzatov Diyor Hikmatillo o'g'li
Tahririyat hay'ati *a'zolari:*
Bozorov G'ayrat Rashidovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Do'stov Hamro
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Yuldashev Narbek Xudoynazarovich,
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Adizov Bobur Zamirovich
O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
G'aybullayev Saidjon Abdusalimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Komilov Murodillo Zoirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xo'jaqulov Aziz Fayzullayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Narziyev Umid Zaripovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texn ologiya instituti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texn ologiya instituti, dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
To'raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Sapashov Ikramjan Yaumitbayevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti , dotsent.
Sharipov Baxtiyor Zaripovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Naubeev Temirbek Xasetullayevich
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti , dotsent.
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
To'rayev Tolib Bozorovich
Toshkent kimyo texnologiya instituti, professor
Axmedova Ozoda Bahronovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Toshev Sherzod Orziyevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, DSc, professor
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Hikmatov Doniyor Nematovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Navro'zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
To'xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, professor.
Xujaqulov Kamoliddin Ramazonovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo'raqulovich
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent
Boboqulov Farhod Baxtiyor o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Asadova Dilnavoz Fayzullayevna
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.
Fozilov Hasan Sadriddin o'g'li
Buxoro muhandislik - texnologiya instituti, dotsent.

ISSN 3030-3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Ilmiy jurnal tahririyat hay'ati a'zolarining qolgan qismi jurnalning veb saytida to'liq ko'rsatilgan.

Tahririyat hay'ati a'zolarining tarkibi bosh muharrir tomonidan nazorat qilinadi.

Development of science ilmiy elektron jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro'yxatidan o'tgan.

To'plam elektron ko'rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To'plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma'lumotlar va me'yoriy hujjatlarning to'g'riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o'zlari mas'ul hisoblanadilar.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar to'plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo'mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

MUNDARIJA

1	“Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi natijalari	7
2	Исследование процесса каталитического крекинга вакуумных газойлей арыскумских и майбулакских нефтей *А.У. Сарсенбаева* *Г. Пусурманова* *М. М. Худавердиев*	28
3	Использование йодсодержащих растительных добавок для производства пищевых продуктов питания повседневного спроса *М.З. Ашурова* *Г.Х. Сулайманова* *Н.Х. Ганиева*	35
4	Raqamli texnologiyalar vositasida talabalarning turizm madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomilashtirish 2lister22 muammo sifatida *Amanbaev Timur.*	45
5	Определение осаждения механических частиц в нефти и газоконденсате *Раджибаев Д. П* *Эргашева Д. К* *Худайберганова С.З* *Хабибуллаев Н.Р.*	55
6	Specific features of basalts, its melting and tempering in different environments *L.Kh.Sattorov* *A.A.Kurbanov* *J.T.Nurmatov*	62
7	Vinilatsetilen asosida olingan efirlarning aminli hosilalarini sintez qilish jarayoni tadqiqi *Rayimov Zuhriddin.*	70
8	Web faoliyatga tayyorlash elektron resurslari yaratish va joriy etishni metodikasini takomillashtirish modeli *Reymbaeva Nilufar*	77
9	Fakel gazlari tarkibidagi uglevodorodlarni tahlil qilish va matematik hisoblash	87

	Boboqulov F.B.	
10	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini matematika fanini modellashtirish asosida o‘qitishning shakl, metod va vositalari *Rahimova Umida*	98
11	Fan olimpiadalarini tashkil etishda falsafiy va 3lister33 yondashuvlar *Abbaz Kunnazarov.*	103
12	Parafin uglevodorodlari oksidlanish kinetikasiga turli omillar ta’siri *Fozilov.H.S.*	108
13	Dialektik yondashuv asosida bo‘lajak fizika o‘qituvchilarining analitik fikrlashini oshirishning metodologik asoslari *Janabergenova Gulnaz*	114
14	Bo‘lajak muhandislarni kognitiv yondashuv asosida shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishning ilmiy asoslari *Hasanova Zebo Davlatovna*	124
15	Benzin sifatining tashlama gazlar tarkibiga ta’siri *M.Z.Komilov* *S.A. G’aybullayev*	130
16	Determining the optimal type of thermal insulation for exterior walls in residential buildings with passive solar heating systems *T.S. Hojiev* *K.A. Samiev*	139
17	Tabaqalashtirilgan yondoshuv asosida gomogen guruhlarda mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazish metodikasi *Akobirova Madina*	149
18	Роль рекуперативных теплообменников в нефтегазовой отрасли *А.Н. Исломов,* *О.Р. Абдурахманов*	156
19	Issiqlik almashinish qurilmalarida isitilayotgan uglevodorodlarning fizik-kimyoviy tahlili *A.N. Islomov,* *O.R. Abduraxmanov*	163
20	Chiqindi surkov moylarni qayta ishlash va uning xususiyatlarini yaxshilash tahlili	169

	Salomatov Behruz *Panoyev Nodir* *Safarov Jasur*	
21	Xom paxta moyini ishqoriy neytrallashtirish texnologiyasini o‘rganish *Dehqonova Nargiza Abdug`ani qizi* *Majidov Qahramon Xalimovich*	177
22	Adeninning biologik faolligini pass online dasturida o’rganish *Matmuratov Baxtishod Yangibayevich* *Madraximova Saxiba Davlatbayevna* *Abduxaliqov Fayozbek Jumamurodovich* *Shukurullayeva Farangiz Fayzulloyevna*	182
23	Талабаларда саноген фикрлаш кўникмасини шакллантиришнинг дидактик асослари *Карахонова Ойсара Юлдошевна*	186
24	Саноген фикрлашни шакллантиришнинг муҳим жиҳатлари *Карахонова Ойсара Юлдошевна*	193
25	Bazalt tolasi chiqindisining tarkibini fizik-kimyoviy xususiyatlarini organish *Rahimjon Jalilov Ravshanbek o’g’li* *Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna* *Sadiqova Adalat Maratovna*	204
26	Polifosfat ammoniy kompozitlari asosidagi qoplamaning fizik-kimyoviy tahlili *Nurqulov Eldor Nurmuminovich*	210
27	Наблюдение физических свойств гидрогеля *Сакиева Кундуз Уткир кизи* *Ширинов Шавкат Давлатович* *Махаммадиев Ойбек Рамазон угли*	214
28	Gidroxinon asosida sintez qilingan kremniyorganik oligomerning kvant-kimyoviy tahlili *Raximov Firuz Fazlidinovich,* *Xoliqova Gulhayo Qo’ldoshevna*	220
29	5-xlorizobenzofuran-1,3-dion sintezi va uning xromato-mass tahlili *Qurbonov Farxod Po’latovich* *Axmedov Voxid Nizomovich* *Rayimov Zuhriddin Xayriddin o’g’li*	227
30	Tabiiy sorbentlar yordamida 4list ionlar sorbsiyasi *Mashhura Sodiqova Idulloevna*	232

31	Sut mahsulotlari xavfsizligini tadqiq qilish *Maxmudova Z.K.* *Bafoyeva G.N.*	237
32	Teri va poyabzal sanoatining kollagenli chiqindilarini qayta ishlash *Uzoqova Laylo Polvonovna*	243
33	The lion, the witch, and the wardrobe asarida aslan zoosemizmi. *Toirova Umida Sobirovna*	247
34	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga matnli masalalarni o‘rgatishda 5lister metodidan foydalanishning ahamiyati *Xolmamatova Madina Chori qizi*	251
35	Poli-2-metil-5-vinilpiridin bilan selluloza diatsetat aralashmasida atsetonni diffuziyasi *Atoyev Extiyor Xudoyorovich*	257
36	O’zbekiston respublikasida mahalliy xomashyolar va sanoat chiqindilari asosida yengil g‘ovak to‘ldiruvchi olish texnologiyasi *Rajabova Munisa Shukur qizi*	265
37	Unli qandolat mahsulotlari ishlab chiqarishda yangi ishlanmalarning o‘rni *Tursunova D.X.* *Maxmudov R.A.*	275
38	Non mahsulotlari yangi turlarini ishlab chiqarishni takomillashtirish *Tursunova D.X.* *Maxmudov R.A*	281
39	Non mahsulotlarini yog’sizlantirilgan kunjut uni bilan boyitish darajasini baholash *Tursunova D.X.* *Maxmudov R.A*	291
40	Модификация ячеистых неавтоклавного газоблоков с улучшенными характеристиками и экономическое эффективность Пулатова Дилрабо Гайратовна	299
41	Ахборот технологияларидан таълим тизимида фойдаланиш асослари *Базар Султанов,* *Заир Зуфаров*	303
42	Mahalliy hom ashyo asosida ishlab chiqilgan natriy silikat pentagidrat ($Na_2SiO_3 \cdot 5H_2O$) infraqizil spektri tahlili *Raxmatov Marat Salimovich*	309

43	Саноатнинг кимёвий толалари ва уларнинг сорбцион хусусиятларини ўрганиш *Сафаров Б.Ж.*	315
44	Sulfoionitlarning olinishi va xossalari *Xollieva Muattar Hamroqulovna* *Ostonov Firuz Istam o'g'li*	324
45	Quyi molekulyar polietilenning metilakrilat bilan choklangan polimerlanish kinetikasini o'rganish *Fozilov S.F.*	331
46	B-fenoksibutadien -1,3 olish uchun fenolni vinillash reaksiyasiga harorat ta'siri *Nazarov Sh.K.*	337
47	Raqamlashtirish sharoitida o'quvchilarning kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasiga doir bajarilgan tadqiqot ishlarining tahlili *Kamolova Dilshoda Odilovna* *Sayfullayeva Nafisa Izzatullo qizi*	342
48	Texnologik usullarda olingan polivinilxlorid polimerlari xossalarini o'rganish *Temirova Matlab Ibodovna* *Hamidova Nozima Sirojiddin qizi*	347
49	Yangi davrning boshlanishi. to`rtinchi sanoat inqilobi. *Umida Ergasheva.*	354
50	Экологическое дизельное топливо отвечающее требованиям евростандартам *Г.Р.Базаров*	363
51	O'lchov vositalarini kalibrlash sertifikatiga qo'yilgan talablar va metodlari *Xo'jjiyev Ma'murjon Yangiboyevich* *Qarshiyev Zohidjon Abdirahim o'g'li*	367
52	Mahalliy hom ashyo asosida ishlab chiqilgan natriy silikat pentagidrat ($Na_2SiO_3 \cdot 5H_2O$) foydalanish sohalarini o'rganish *Raxmatov Marat Salimovich*	374
53	Kambag'allikni qisqartirishda sanoat tarmog'ini ahamiyati *Sh.M.Tolipov*	379
54	Polifosfat ammoniy kompozitlari asosidagi qoplamaning fizik-kimyoviy tahlili *Nurqulov Eldor Nurmuminovich*	384

Buxoro muhandislik-texnologiya institutida “Konstitutsiya – erkin va farovon hayot garovi” mavzusida ilmiy maqolalar tanlovi g’oliblarining Maqolalari e’lon qilinadi.

1 o’rin

Ismatova Nafisa Nusratulla qizi

BuxMTI tayanch doktaranti

2 o’rin

Kabilova Nigina Shuxratovna

BuxMTI tayanch doktaranti

3 o’rin

O’roqova Zuhra

308-22YST(tt) guruh talabasi

“KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI”

Ismatova Nafisa Nusratulla qizi
BuxMTI tayanch doktaranti
(+99891899-91-91)

Bugungi kunda dunyoda sodir bo‘layotgan chuqur va keskin siyosiy va iqtisodiy ziddiyatlar davrida Yangi O‘zbekistonda tinch va farovon hayotni ta’minlash, inson sha’ni va qadr-qimmatini hurmat qilish davlat siyosatining ustuvor vazifalaridan biri sifatida belgilangan. Har bir davlatning shakllanishida Konstitutsiyaning o‘rni beqiyosdir.Bizning Konstitutsiyamiz 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan kun bo‘lib, har yilimazkur sana bayram sifatida keng nishonlanadi. Bosh Qomusimiz millatimiz ruhiga,hayot tarzi va urf-odatlariga mos keladigan imon-e’tiqod, insof, diyonat, mehroqibat, or-nomus, iffat va hayo kabi eng ezgu fazilatlarni o‘z ichiga olgan desak also mubolag‘a bo‘lmaydi. Konstitutsiyada O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligiga oid tarixiy ahamiyatga ega norma belgilab qo‘yildi. Ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari joriy qilindi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun butunlay yangi mexanizmlar mustahkamlandi.

Konstitutsiyada O‘zbekistonning suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanligiga oid tarixiy ahamiyatga ega norma belgilab qo‘yildi. Ijtimoiy adolat va hamjihatlik tamoyillari joriy qilindi, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish uchun butunlay yangi mexanizmlar mustahkamlandi.

Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Hech kim hech qachon unutmasligi kerak: qanchalik qiyin bo‘lmasin, qancha mablag‘ va imkoniyat talab etilmasin, O‘zbekistonning bironta fuqarosi o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi», degan shior hayotimiz qoidasiga, prinsipiga aylandi. Avvalo, inson qadri tiklandi. Inson huquqlari ta’minlandi. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi borasidagi barcha to‘siqlar olib tashlandi. Muqaddas dinimizga nisbatan salbiy qarashlarga barham berildi. Diniy e’tiqod uchun ta’qiblar tugatildi. Tarixda ilk bor nohaqdan ayblanganlar oqlandi. Sud-huquq islohotlari o‘tkazildi. Qiynoqqa solish, jazo muddatini sun’iy uzaytirishga butunlay chek qo‘yildi. Mamlakat qamoqxonalarida yigirma, yigirma besh, o‘ttiz yil davomida yotgan mahbuslar ozodlikka chiqarildi. Xalqimizga mehr-oqibat, insoniylik, ahillik, asosiysi, qadr tuyg‘usi qaytdi.

Qadimda Sharq va Osiyo hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarida Amir Temur “Tuzuklar”i Konstitutsiyaviy hujjat xususiyatiga ega bo‘lgan shariat qonunlarini o‘z ichiga olgan.Mustaqilligimiznig ilk yillarida qabul qilingan asosiy Qonunimiz (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi) Sharq va G‘arb, Janub va Shimolning 97 ta

mamlakati to‘plagan ilg‘or konstitutsiyaviy tajribaga muvofiq hamda jahon davlatlarining konstitutsiyaviy tajribasini bir qator ilg‘or jihatlari hisobga olgan holda, “Birlashgan Millatlar Tashkiloti”, “Yevropada Xavfsizlik va hamkorlik kengashi” kabi nufuzli xalqaro tashkilotlar va AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya kabi davlatlar mutaxassislarining ekspertizasidan o‘tgandan so‘ng 1992-yil 8-dekabr kuni Bosh Qonunimiz qabul qilingan. Shu kundan e’tiboran, 8-dekabr – umumxalq bayrami deb e’lon qilindi.

Bundan tashqari, Qomusimizda 1948-yil 10-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 217 A (III) ko‘rsatmasi orqali qabul qilingan “Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi”da e’lon qilingan ko‘rsatmalari inobatga olingan. O‘zbekiston jahon minbarlaridan ilgari surgan xalqaro, mintaqaviy va milliy tashabbuslar inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini har tomonlama ta’minlashga, bir so‘z bilan aytganda, «Inson qadri uchun» degan ustuvor tamoyilni to‘la ro‘yobga chiqarishga qaratilgani uchun xalqaro hamjamiyatning e’tirofiga sazovor bo‘lmoqda. Bu fikrimizni 2017-yil sentabrda BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida O‘zbekiston Prezidenti ilgari surgan tashabbuslar asosida so‘nggi yillarda BMT Bosh Assambleyasining 5 ta rezolyutsiyasi qabul qilingani yaqqol isbotlab turibdi. BMTning 75 yillik butun tarixi davomida muayyan bir shaxsning tashabbusi bilan shuncha rezolyutsiya qabul qilinishi tajribasi kuzatilmagan.

O‘zbekiston davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo‘nalishlaridan biri bu bag‘rikenglik va insonparvarlik madaniyatini rivojlantirish hamda jamiyatda millatlararo, dinlararo totuvlikni mustahkamlashdir. Xususan, Konstitutsiyaning 19-moddasi asosida O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolarning bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lishi, jinsi, irqi, millati, tili, dini, e’tiqodi, ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengligi kafolatlanadi. Prezidentimiz “Biz inson qadr-qimmati va manfaatlarini ta’minlash bo‘yicha boshlagan islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat’iy davom ettiramiz. Xalqimizning xohish-irodasiga binoan Asosiy qonunimizda o‘z aksini topgan tamoyillarni to‘liq ro‘yobga chiqarishimiz va hayotimizning ajralmas qismiga aylantirishimiz lozim,” — dedi u.

Mamlakatda millatlararo munosabatlar sohasida davlat siyosati konsepsiyasi amalga oshirilmoqda. Dunyoda Xalqaro do‘stlik kuni deb qabul qilingan 30 iyul sanasi mamlakatimizda Xalqlar do‘stligi kuni deb e’lon qilingan va o‘ziga xos bayram sifatida keng nishonlanadi. Bugungi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat hamda 16 ta diniy konfessiya vakillari tinch-totuv, ahil-inoq, hamjihat bo‘lib yashamoqda. Shuningdek, 157 ta milliy madaniy markaz va 38 ta do‘stlik jamiyati faoliyat ko‘rsatmoqda.

Konstitutsiyada O‘zbekiston «huquqiy davlat» degan tamoyil ham qat’iy qilib belgilanib, inson huquq va erkinliklari borasidagi normalar ko‘paytirildi. Xususan,

unda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilandi. Inson va davlat organlari o‘rtasidagi yuzaga keladigan noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, huquqiy ta’sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo‘lishi kerakligi belgilandi. Shuningdek, Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg‘or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirildi. Jumladan, shaxsni sudning qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turish mumkin emasligi, odamlarning huquq va erkinliklarini cheklash bilan bog‘liq barcha harakatlarga faqat sud qarori asosida yo‘l qo‘yilishi, ayblanuvchi va sudlanuvchilarning «sukut saqlash» huquqi mustahkamlandi. «Inson qadri uchun» tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo‘lishi shartligi belgilab qo‘yildi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan «Hech kim hech qachon unutmasligi kerak: qanchalik qiyin bo‘lmasin, qancha mablag‘ va imkoniyat talab etilmasin, O‘zbekistonning bironta fuqarosi o‘z holiga tashlab qo‘yilmaydi», degan shior hayotimiz qoidasiga, prinsipiga aylandi. Avvalo, inson qadri tiklandi. Inson huquqlari ta’minlandi. So‘z erkinligi, matbuot erkinligi borasidagi barcha to‘siqlar olib tashlandi. Muqaddas dinimizga nisbatan salbiy qarashlarga barham berildi. Diniy e’tiqod uchun ta’qiblar tugatildi. Tarixda ilk bor nohaqdan ayblanganlar oqlandi. Sud-huquq islohotlari o‘tkazildi. Qiynoqqa solish, jazo muddatini sun’iy uzaytirishga butunlay chek qo‘yildi. Mamlakat qamoqxonalarida yigirma, yigirma besh, o‘ttiz yil davomida yotgan mahbuslar ozodlikka chiqarildi. Xalqimizga mehr-oqibat, insoniylik, ahillik, asosiysi, qadr tuyg‘usi qaytdi.

2024 yil 27 oktyabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga deputatlar saylovining o‘ziga xos jihatlaridan biri – saylovchilarning fuqarolik mas’uliyati va daxldorlik tuyg‘usining yanada oshganligi bilan bog‘liq. Yana bir muhim mezon: fuqarolarimizning Qonunchilik palatasi va mahalliy kengashlar saylovlari jarayoniga qiziqishining sezilarli darajada oshgani barcha bosqichlari ochiqlik, oshkoralik va shaffoflik asosida o‘tkazilgan saylovlarga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazishda yaqqol sezildi. Shuningdek, parlament saylovlarida aralash saylov tizimining joriy etilishi siyosiy partiyalar o‘rtasidagi raqobatni kuchaytirib, jamiyatimizdagi demokratik muhitga yangi quvvat bag‘ishlagani saylovoldi tashviqoti davomida yaqqol namoyon bo‘ldi. Bularning barchasi yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining amaliy ahamiyatidan dalolatdir. Shavkat Mirziyoyev “Islohotlarimizni yangi konstitutsiyaviy makonda yanada qat’iy davom ettiramiz” – dedilar. Shavkat Mirziyoyev ustuvor vazifalar haqida gapirar ekan, fuqarolarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish borasidagi islohotlar izchil davom ettirilishini ta’kidlaydi.

Konstitutsiya – davlatning asosiy qonuni hisoblanadi.Konstitutsiya davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda

shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, jamiyat va shaxsning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, sud tizimini hamda davlat va jamiyatning o‘zaro munosabatlarini belgilab beradi. Shavkat Mirziyoyev davlat va siyosat arbobi Uinston Cherchillning quyidagi gapini iqtibos keltiradilar: “Yaxshi bo‘lish uchun — o‘zgarish kerak, yaxshilarning yaxshisi bo‘lish uchun esa yanada ko‘proq o‘zgarish kerak”. O‘zbekiston Konstitutsiyasi 1992 yil 8 dekabrda qabul qilinganidan buyon unga 16 marta o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilgan.

1993-yil 28-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 77-moddasiga o‘zgartish kiritish to‘g‘risida”gi qonun, 77-modda: Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari soni 150 nafardan iboratligi to‘g‘risidagi normaga miqdorning aniq chegarasini kengaytiruvchi o‘zgartirish kiritildi. Ya’ni “bir yuz yigirma deputatdan iborat” jumlasi “deputatlardan iborat” tarzda o‘zgartirildi.

2003-yil 24-aprelda “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun: O‘n yillik jimlikdan so‘ng konstitutsiyaning biryo‘la 30 ta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi. O‘zgartirishlar ikki palatali parlamentga o‘tilishi munosabati bilan amalga oshirilgan edi. Xususan, konstitutsiyaning beshinchi bo‘limi, XVIII–XX, XXIII boblariga taalluqli, kelgusida ikki palatali parlamentni saylash va prezidentning konstitutsiyaviy vakolat muddatini besh yildan yetti yillik qilib o‘zgartirish masalasiga bog‘liq.
2002-yil 27-yanvarda ikki palatali parlament tuzish va prezidentning konstitutsiyaviy vakolat muddatini o‘zgartirish to‘g‘risidagi ikki muhim masala bo‘yicha referendum o‘tkazildi.

Referendum qaroriga muvofiq, “Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy prinsiplari to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati to‘g‘risida”, “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasi to‘g‘risida”gi konstitutsiyaviy qonunlar o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish uchun asos bo‘ldi. Oliy Majlis ikki palata – Qonunchilik palatasi va Senatdan iboratligi, Qonunchilik palatasi bir yuz yigirma deputatdan iborat bo‘lishi, Qonunchilik palatasi va Senatning mutlaq hamda birgalikdagi vakolatlari, prezident vakolat muddati yetti yilga uzaytirilishi bilan bog‘liq o‘zgartirishlar kiritildi.

2007-yil 11-aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining moddalariga tuzatishlar kiritish to‘g‘risida (89-moddasiga, 93-moddasining 15-bandiga, 102-moddasining ikkinchi qismiga)”gi qonun: Konstitutsiyaning uchta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Prezidenti davlat boshlig‘i va davlat hokimiyati organlarining kelishilgan holda faoliyat yuritishini hamda hamkorligini ta’minlashi, shuningdek, qonunlarni buzgan yoki sha’ni va qadr-qimmatiga dog‘ tushiradigan xatti-harakat sodir etgan tuman va shahar hokimlarini prezident o‘z qarori bilan lavozimidan ozod etishga haqli ekaniga oid o‘zgartirish kiritildi.

2008-yil 25-dekabrda “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonunlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun, yana o‘sha 77-modda: Bitta normaga o‘zgartirish kiritildi. Konstitutsiyaning 77-moddasida Qonunchilik palatasi qonunga muvofiq saylanadigan bir yuz ellik deputatdan iborat bo‘lishi belgilandi.

2011 yil 18 aprelda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida(78, 80, 93, 96 va 98-moddalariga)”gi qonun: Konstitutsiyaning beshta normasiga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Bu o‘zgartish va qo‘shimchalar prezident, qonun chiqaruvchi va ijro etuvchi hokimiyatlar o‘rtasidagi vakolatlarning yanada mutanosib taqsimlanishini ta’minlash, siyosiy partiyalarning roli va ta’sirini kuchaytirish maqsadini ko‘zlagan edi.

Qonun bilan prezident viloyatlar hokimlarini hamda Toshkent shahar hokimini tayinlashi hamda lavozimidan ozod etishi bosh vazir taqdimiga binoan amalga oshirilish tartibi o‘rnatildi. Bundan tashqari, bosh vazir nomzodi Qonunchilik palatasiga saylovda eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini olgan siyosiy partiya yoki eng ko‘p deputatlik o‘rinlarini qo‘lga kiritgan bir necha siyosiy partiya tomonidan taklif etilishi belgilandi. Bosh vazirga nisbatan ishonchsizlik votumi bildirish haqidagi norma mustahkamlandi.Nihoyat, 96-moddaga muhim o‘zgartish kiritildi: Prezident vazifasini bajarolmay qolgan holatda uning vazifa va vakolati vaqtincha Senat raisi zimmasiga yuklanadi. Uch oy ichida prezident saylovi tashkil etiladi va o‘tkaziladi.

2011-yil 12-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 90-moddasiga tuzatish kiritish to‘g‘risida”gi qonun, yetti yildan besh yilga qaytish.

2014-yil 16-aprel, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida (32, 78, 93, 98, 103 va 117-moddalariga)”gi qonun

Oltita norma o‘zgardi. Davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish tartibi qonun bilan belgilanishi to‘g‘risidagi norma kiritildi. Shunigdek, parlament nazoratini amalga oshirish Qonunchilik palatasi va Senatning birgalikdagi vakolati sifatida belgilandi.

2017-yil 6-aprel, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga o‘zgartishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonun.Yettita normaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Ular sud hokimiyatining chinakam mustaqilligini ta’minlash maqsadida Sudyalar oliy kengashi hamda iqtisodiy va ma’muriy sudlar faoliyatining huquqiy asosi mustahkamlanishi bilan bog‘liq edi.

2017-yil 31-may, “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ayrim moddalariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida (80, 93, 108 va 109-moddalariga)”gi

qonun. Konstitutsiyaviy sud mustaqilligini mustahkamlashga oid ayrim o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi.

2017-yil 29-avgust, “Toshkent shahar xalq deputatlari tuman kengashlariga saylov to‘g‘risida”gi qonun.Ikkita normaga o‘zgartirish va qo‘shimcha kiritildi. Jumladan, Toshkent shahri tarkibiga kiruvchi tumanlarga hokim tayinlanishi va lavozimidan ozod etilishi Toshkent shahar hokimi vakolatiga kirishi to‘g‘risidagi norma belgilandi.

2018-yil 15-oktyabr, “Fuqarolar yig‘ini raisi (oqsoqoli) saylovi takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartishlar kiritish to‘g‘risida”gi qonun.

2019-yil 18-fevral, “Xavfsizlik va mudofaa sohasidagi ba’zi davlat organlari faoliyati takomillashtirilishi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun, MXX DXXga aylandi.

2019-yil 5-mart, “Hukumatni shakllantirish tartibi demokratlashtirilishi va uning mas’uliyati kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi qonun

2019-yil 4-sentyabr, “Saylov to‘g‘risidagi qonun hujjatlari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonun

O‘zbekiston konstitutsiyasiga eng oxirgi o‘zgartirishlar yuqorida aytib o‘tilganidek 2021 yil 8 fevraldagi qonun bilan kiritilgan bo‘lib, saylovlarning oktabr oyida o‘tkazilishi belgilangan.

Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev Konstitutsiyaga asosiy o‘zgartirishlarni yo‘nalishlarini belgilab berganlar:

- Muqaddam amal qilib kelgan “Davlat— Jamiyat — Inson” tamoyilini “Inson — Jamiyat — Davlat” deb o‘zgartirish, uni milliy qonunchilikda va huquqiy amaliyotda mustahkamlash;
- Iqtisodiy islohotlar jarayonida inson manfaatlarini ta’minlash;

-“JAMIYAT – ISLOHOTLAR TASHABBUSKORI” - degan ezgu g‘oya doirasida asosiy qonunda fuqarolik jamiyati institutlarining o‘rni va maqomini konstitutsiyaviy jihatdan mustahkamlash;

- Bosh qomusda oila institutini rivojlantirish, ezgu insoniy qadriyatlarni kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, millatlararo totuvlikni yanada mustahkamlash bo‘yicha konstitutsiyaviy asoslarni belgilash;

-Yoshlarning huquq va manfaatlarini to‘la ta’minlash maqsadida yoshlar sohasidagi davlat siyosati, yoshlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash masalasi, ularning huquq va burchlarini konstitutsiyaviy darajada aks ettirish;

-“YANGI O‘ZBEKISTON — IJTIMOIY DAVLAT” tamoyilini konstitutsiyaviy qoida sifatida muhrlash;

-Inson huquqlarini himoya qilish bo‘yicha amaldagi tizimning samarasini oshirish maqsadida Konstitutsiyada bolalar mehnatiga yo‘l qo‘ymaslik, nogironlar, keksa avlod vakillarining huquqlarini ishonchli himoya qilish masalalarini aks ettirish;

- Konstitutsiyaga ekologiyaga oid maxsus boblar kiritish. “O‘zbekiston Konstitutsiyasida ham ushbu dolzarb masalaga doir huquqiy normalar ustuvor o‘rin egallashi kerak”, — dedi Shavkat Mirziyoyev;

Xulosa qilib aytganda, Yangilangan Konstitutsiya mamlakat, millat va xalq sifatida keyingi qadamlarimizni aniqlab olishimiz uchun g‘oyat ahamiyatli masala, adolatli jamiyat qurish yo‘lidagi ulkan qadam bo’ldi deb hisoblayman. Dunyoning turli mintaqalarida qarama-qarshiliklar, mojarolar, qurolli to‘qnashuvlar kuchayib borayotganiga e’tibor qaratdi. Uning fikricha, hozirgi o‘ta og‘ir va xavotirli vaziyatda O‘zbekiston xalqi yanada ko‘proq birlashishi zarur. “Ishonchim komilki, bu yo‘lda yangilangan O‘zbekiston Konstitutsiyasi biz uchun qudratli kuch, kuch va ilhom manbai bo‘ladi,”- dedi Shavkat Mirziyoyev. Yangilangan Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar hamda so‘nggi yillarda iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy-ma’naviy hayotning turli sohalarida amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar va bu borada erishilayotgan natijalarni mustahkamlashda - yangilangan Konstitutsiya poydever bo’lib hisolanadi. Inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga, demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari , inson, uning hayoti, erkinligi, sha’ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblanadigan insonparvar demokratik davlatni, xalqaro huquqning umume’tirof etilgan prinsip va normalariga asoslangan holda, O‘zbekistonning jahon hamjamiyati, eng avvalo, qo‘shni davlatlar bilan do‘stona munosabatlarini hamkorlik, o‘zaro qo‘llab-quvvatlash, tinchlik va totuvlik asosida mustahkamlash hamda rivojlantirishga intilib,fuqarolarning munosib hayot kechirishini, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikni, ko‘p millatli jonajon O‘zbekistonimizning farovonligini va gullab-yashnashini ta’minlash maqsadida Yangilangan Konstitutsiya aniq ko’rsatib berildi. Konstitutsiyada O‘zbekiston – suveren, demokratik, huquqiy va ijtimoiy davlat ekani qat’iy belgilab qo‘yildi. Konstitutsiya asosida inson huquq va erkinliklari , mulkiy huquqlarning ishonchli himoyasini ta’minlash, sog‘liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat, san’at va sport sohalarini rivojlantirish, nuroniylar, xotin-qizlar va

yoshlarga doimiy e’tibor va g‘amxo‘rlik ko‘rsatish, oila, onalik, bolalik va otalikni himoya qilish bo‘yicha islohotlar qonuniy ta’minlanishi kafolatlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni. PF-4947-son.2017 yil 7 fevral. Manba: lex.uz.

2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. T.: O‘zbekiston, 2016. -53 b.[Mirziyoyev Sh.M. Together we will build a free and prosperous, democratic state of Uzbekistan]. T .: O’zbekiston, 2016. -53 p.

3. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iy davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz.Tom 1.- T.: O‘zbekiston, 2017.-233-295 b. [Mirziyoyev Sh. Critical analysis, strict discipline and personal responsibility should be the daily rule of every leader.// We will continue our path of national development and take it to a new level]. Volume 1.- T .: Uzbekistan, 2017.-233-295 p.

4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. T.: O‘zbekiston, 2017 -484 b. [4.Mirziyoyev Sh.M. We will build our great future with our brave and noble people]. T .: Uzbekistan, 2017 -484 p.5.

5. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. T.: 2017. [Mirziyoyev Sh.M. The rule of law and the protection of human interests are the key to the development of the country and the well-being of the people]. T .: 2017.

6. “Yangi O’zbekiston Konstitutsiyasi” Yagona milliy portal.

7. Davlat tili haqida (yangi tahriri). O‘zbekiston Respublikasining Qonuni.– T.:O‘zbekiston, 1997.

8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. – T.: Sharq, 1997.

9. Ta’lim to‘g‘risida. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni. – T.: O‘zbekiston,

10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O‘zbekiston, 2016.

11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi.–T.:O‘zbekiston, 2017.

12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. – T.:O‘zbekiston, 2017.

KONSTITUTSIYA- ERKIN VA FAROVON XAET GAROVI.

Kabilova Nigina Shuxratovna

Buxoro muxandislik texnologiya instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqola O‘zbekiston Respublikasining 1992 yilda qabul qilingan va 2023 yilda yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyasiga bag‘ishlangan. Maqolada Konstitutsiyaning 32 yillik tajribasi tahlil qilinib, uning inson huquq va erkinliklarini ta’minlashdagi, huquqiy davlatni mustahkamlashdagi va demokratik islohotlarni amalga oshirishdagi roli ko‘rsatib beriladi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning asosiy o‘zgarishlari va ularning mamlakatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotiga ta’siri baholanadi. Shuningdek, maqolada Konstitutsiyaning “O‘zbekiston-2030” strategiyasi doirasidagi maqsadlariga mosligi va kelajakka oid prognozlar muhokama qilinadi.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiya, O‘zbekiston, inson huquqlari, huquqiy davlat, demokratik islohotlar, iqtisodiy rivojlanish, “O‘zbekiston-2030” strategiyasi, fuqarolik jamiyati, sud hokimiyati, huquqiy madaniyat.

Annotation: This scientific article is dedicated to the Constitution of the Republic of Uzbekistan, adopted in 1992 and its new edition adopted in 2023. The article analyzes the 32-year experience of the Constitution, highlighting its role in ensuring human rights and freedoms, strengthening the rule of law, and implementing democratic reforms. The main changes in the new edition of the Constitution and their impact on the political, economic, and social life of the country are evaluated. The article also examines the Constitution’s alignment with the goals of the “Uzbekistan-2030” Strategy and discusses future forecasts.

Keywords: Constitution, Uzbekistan, human rights, rule of law, democratic reforms, economic development, “Uzbekistan-2030” strategy, civil society, judiciary, legal culture.

Yangi Konstitutsiya bo‘yicha bo‘lib o‘tgan umumilmiy referendum natijalari haqida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev shunday dedilar: «Bu tarixiy tanlov xalqimizning olti yil avval boshlangan islohotlarimizga bo‘lgan ishonchi va ularga to‘liq qo‘llab-quvvatlashini yana bir bor ko‘rsatdi»[1]. Xalqning irodasi bilan qabul qilingan yangilangan Bosh qomusi faqat muhim hujjat emas, balki islohotlarga xalqning birdamligini ko‘rsatuvchi kuchli signal ham bo‘ldi. Maqolamizda yangi Konstitutsiyadagi eng muhim o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning O‘zbekistonning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ta’sirini ko‘rib chiqamiz.

2023 yilda O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining qabul qilinishi mamlakatning siyosiy va huquqiy hayotida muhim voqea bo‘ldi. Bu

tarixiy voqea 1992 yilda qabul qilingan va 32 yil davomida amal qilgan Konstitutsiyamizning boy tajribasiga asoslangan. Shu munosabat bilan, mazkur maqolada 1992 yilda qabul qilingan Konstitutsiyaning asosiy kamchiliklari va ularni bartaraf etish yo‘llari, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish mexanizmlarining kuchaytirilishi, shuningdek, uning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishga ta’siri tahlil qilinadi.[5] Yangi Konstitutsiyaning “O‘zbekiston – 2030” milliy rivojlanish strategiyasi doirasidagi o‘rni va uning asosiy yangiliklari ham muhokama qilinadi.

Konstitutsiyamiz mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining asosiy ustuvor yo‘nalishlari doirasida belgilangan tub islohotlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni chuqurroq tahlil qilish muhimdir. 2023 yilda qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiya o‘zbek jamiyatining demokratik rivojlanishi, inson huquqlarini mustahkamlashi va bozor iqtisodiyotini yanada rivojlantirishga qaratilgan “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi maqsadlariga mos keladi.

Quyidagilar Konstitutsiyaning mazmun-mohiyati va “O‘zbekiston – 2030” strategiyasining o‘zaro bog‘liqligini aks ettiradi:

Inson huquqlari va erkinliklari: Konstitutsiyaning yangi tahririda inson huquqlari va erkinliklariga kafolat berish masalasi yanada kuchaytirilgan. Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan adolatli va shaffof jamiyat qurish maqsadiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri xizmat qiladi.[2] Konstitutsiyadagi kafolatlar fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlarini himoya qilishga yo‘naltirilgan bo‘lib, bu strategiyaning inson kapitalini rivojlantirish va yaxshi yashash sharoitini yaratish bo‘yicha maqsadlariga mos keladi.

Huquqiy davlat va sud-huquq tizimini isloh qilish: Konstitutsiyada huquqiy davlat prinsiplari mustahkamlanib, sud-huquq tizimining mustaqilligi va samaradorligi ta’minlanadi.[1] Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasida belgilangan korrupsiyaga qarshi kurash va huquq ustuvorligini ta’minlash maqsadlariga muvofiqdir. Adliya tizimining samaradorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash va ishbilarmonlik faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Demokratik islohotlar: Konstitutsiyada siyosiy plyuralizm, saylovlarning erkinligi va adolatliligi, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga oid normalar mustahkamlangan. Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi demokratik institutlarni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va ochiq jamiyat qurish maqsadlariga xizmat qiladi.

Iqtisodiy rivojlanish: Konstitutsiyada xususiy mulkning daxlsizligi, iqtisodiy faoliyat erkinligi, tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlashga oid normalar tartibga solinadi. Bu “O‘zbekiston – 2030” strategiyasidagi iqtisodiyotni diversifikatsiyalash,

innovatsiyalarni rivojlantirish va yanada yuqori o‘sish sur’atlariga erishish maqsadlariga muvofiq keladi.

Salohiyatli xatarlar va salbiy prognozlar:

Islohotlarning sust templari: Islohotlarning sust templarini emas, balki ularni tezlashtirish uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligini tahlil qilish muhimroq. Bu esa, masalan, davlat organlarining samaradorligini oshirish, byurokratik to‘siqlarni bartaraf etish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu muammoni yechish uchun mavjud imkoniyatlarni ko‘rsatadi.

Korrupsiyaning davom etishi: Korrupsiyaning davom etishini emas, balki uning oldini olish va unga qarshi kurashishdagi muvaffaqiyatlar va yanada samarali chora-tadbirlarni amalga oshirish yo‘llarini tahlil qilish muhimroq. Transperentlikni oshirish, elektron hukumatni rivojlantirish, jamoatchilik nazoratini kuchaytirish va korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish bu yo‘nalishdagi ijobiy imkoniyatlardir.

Ijtimoiy noroziliklar: Ijtimoiy noroziliklarning potensial xavfini emas, balki ularning oldini olish va ijtimoiy adolatni ta’minlash uchun qanday choralar ko‘rish mumkinligini ko‘rib chiqish maqsadga muvofiqdir. Ijtimoiy dialogni rivojlantirish, aholining ehtiyojlarini hisobga oluvchi siyosatni yuritish, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish va ochiq muloqotni ta’minlash ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlash yo‘lidagi ijobiy yo‘nalishlardir.

Tashqi siyosiy omillar: Jahon miqyosidagi siyosiy va iqtisodiy beqarorlikning ta’sirini emas, balki unga moslashish va uning salbiy oqibatlarini yumshatish strategiyalarini ishlab chiqish va global muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish muhimroqdir. Diversifikatsiyalangan iqtisodiy siyosat, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va global tahdidlarga chidamlilikni oshirish ijobiy strategiyalar sifatida ko‘rinishi mumkin.

Umumiy qilib aytganda, barcha muammolar va xatarlarni ijobiy nuqtai nazardan tahlil qilib, ularni yechish yo‘llarini, mavjud imkoniyatlarni va kutilayotgan ijobiy natijalarni ko‘rsatish mumkin.[3] Bu yondashuv ishonch va optimizmni kuchaytiradi va kelajakka bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

Ko‘rsatilgan prognozlar asosida o‘zgarishlar jadvalini yaratish uchun, biz prognozlarni uchta asosiy guruhga bo‘lamiz: iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy. Har bir guruh bo‘yicha kutilayotgan o‘zgarishlarni va ularning ijobiy va salbiy tomonlarini aks ettiruvchi jadval tuzamiz. Eslatib o‘tamiz, salbiy omillar ham ijobiy nuqtai nazardan, ya’ni ularni yengib o‘tish uchun qanday choralar ko‘rilishi mumkinligiga e’tibor qaratib tahlil qilinadi.[5]

Kategoriya	Kutilayotgan o‘zgarishlar	Ijobiy tomonlari	Salbiy tomonlari (va ularni yengib o‘tish yo‘llari)
Iqtisodiy	Iqtisodiyotning diversifikatsiyalanishi, eksport salohiyatining oshishi, investitsiyalarning ko‘payishi	Yuqori iqtisodiy o‘sish, yangi ish o‘rinlarining yaratilishi, aholi daromadlarining oshishi	Islohotlarning sust templari (islohotlarni tezlashtirish uchun chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali); tashqi bozorlardagi beqarorlik (diversifikatsiya va xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali)
Siyosiy	Demokratik institutlarning rivojlanishi, siyosiy plyuralizmning kuchayishi, ochiqlik va shaffoflikning oshishi	Fuqarolarning siyosiy faolligining oshishi, hukumatning javobgarligining kuchayishi, korrupsiyaning kamayishi	Islohotlarga qarshilik (islohotlarni amalga oshirishda jamoatchilikni keng jalb etish orqali); siyosiy beqarorlik (siyosiy dialogni kuchaytirish va konsensusga erishish orqali)
Ijtimoiy	Inson kapitalining rivoji, aholining turmush darajasining oshishi, ijtimoiy adolatning ta’minlanishi	Salomatlik va ta’lim darajasining oshishi, kambag‘allikning kamayishi, ijtimoiy barqarorlik	Ijtimoiy norozilikiar (ijtimoiy dialogni rivojlantirish va ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish orqali); ijtimoiy tengsizlik (ijtimoiy adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali)

Bu jadval prognozlarni tushunish va ularni amalga oshirish uchun zarur chora-tadbirlarni belgilashga yordam beradi. Eslatib o‘tamiz, bu prognozlar taxminiy xususiyatga ega va real vaziyatga qarab o‘zgarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, 2023 yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi “O‘zbekiston-2030” strategiyasining maqsad va vazifalari bilan uyg‘un ravishda integratsiyalashadi. Huquq ustuvorligini mustahkamlash, inson huquqlarini himoya qilish va demokratik institutlarni rivojlantirishga qaratilgan Konstitutsiya normalarini amalga oshirish gullab-yashnagan va demokratik jamiyat barpo etish bo‘yicha strategik vazifalarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishining asosiy omili hisoblanadi.[4] Keyingi tadqiqotlar konstitutsiya normalarining amalga oshirilishini monitoring qilish va ularning mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini baholashga qaratilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. https://www.gazeta.uz/ru/2023/05/08/statement/

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (yangi tahrir). – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi nashriyoti, 2023. – 128 b.

3. “O‘zbekiston-2030” strategiyasi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yildagi farmoni. – Toshkent, 2023.

4. Mustaqillik yillarida demokratik islohotlar: nazariya va amaliyot. – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2022. – 320 b.

5. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlashning konstitutsiyaviy mexanizmlari. Ilmiy maqola. – Toshkent, 2021. – B. 45–56.

KONSTITUTSIYA-ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI

O’roqova Zuhra

308-22YST(tt) guruh talabasi

Ilmiy rahbar: dots. S.S.Asadova

Annotatsiya. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi mamlakatning eng oliy huquqiy hujjati bo‘lib, davlatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimini tartibga soluvchi asosiy normativ hujjat hisoblanadi. Konstitutsiya, fuqarolarni himoya qilish, davlat organlari faoliyatini belgilash va xalqaro huquq normalari bilan muvofiqlikni ta’minlash maqsadida qabul qilingan. Ushbu maqola O‘zbekiston Konstitutsiyasining asosiy prinsiplarini, ularning jamiyatdagi ahamiyatini va fuqarolar uchun yaratilgan huquqiy imkoniyatlarni tahlil qiladi. Shuningdek, maqolada Konstitutsiyaning davr talablariga muvofiq rivojlanishi, uning zamonaviy siyosiy va iqtisodiy jarayonlarga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqida mulohazalar yuritiladi.

Kalit so’zlar: ixtiro, ehtiyoj, fuqaro, organlar, g‘oya, sadoqat, muhofaza, tinchlik.

Аннотация. Конституция Республики Узбекистан является высшим правовым документом страны и является основным нормативным документом, регулирующим политико-правовую и социальную систему страны. Конституция принята в целях защиты граждан, определения деятельности государственных органов и обеспечения соблюдения норм международного права. В данной статье анализируются основные принципы Конституции Узбекистана, их значение в обществе и правовые возможности, созданные для граждан. В статье также рассматривается развитие Конституции в соответствии с требованиями времени, как она влияет на современные политические и экономические процессы.

Ключевые слова: изобретение, потребность, гражданин, органы, идея, лояльность, защита, мир.

Albatta, insoniyat tarixi turli ixtirolar bilan bezangan. Bu ixtirolar hayotimizni yaxshilash va kengaytirish imkoniyatlarini taqdim etadi. Har bir ixtiro o‘z navbatida tabiiy yoki ijtimoiy ehtiyojlardan kelib chiqadi, yoki kundalik hayotimizni osonlashtirish maqsadida amalga oshiriladi. Ba’zan ixtirolar tasodifiy hodisalar natijasida, ba’zan esa zarurat tufayli yuzaga keladi.

Vinil efirlar tarkibida qo‘shbog‘ bo‘lganligi uchun elektrofil birikish reaksiyasi amalga oshib, galogenli hosila olindi. Reksiya ekzotermik bo‘lganligi sababli, muzli hammomda olib borilib, reaksion aralashma harorati termometr yordamida nazorat qilib turildi. Gaz holatdagi HCl hajmining 80% qismigacha aromatik dikislota vinil efiri solingan sklyankaning pastki qismidan barbatyor yordamida kiritilib nasadkali qatlamdan o‘tkazildi. Nasadkalar suyuqlik va gazning kontakt vaqti va yuzasini oshirish uchun xizmat qiladi. Reaksiyaga kirishmagan HCl gazi sklyankaning yuqori qismidan chiqarildi.

Gidroxlorlash reaksiyasi 25°C haroratda 4 soat davomida olib borildi.

Sintez qilingan galogenli hosilaga amin guruhini kiritish uchun yetarli miqdorda NH_3 ta’sir ettirildi va 1,1,3-triaminobutil 2-formilbenzoat olindi. Galogenli hosilani aminlash maqsadida unga gaz holatdagi ammiak ta’sir ettirildi(2-rasm).




2-rasm.Aminlash laboratoriya qurilmasi

1-sklyanka, 2-barbatyor

Hajmi 500 ml bo‘lgan galogenli hosila solingan idishning pastki qismidan ammiak gazi kiritilib suyuqlik qatlamidan o‘tkazildi. Bunda och sarg‘ish rangli aminli birikma olindi. Bundan tashqari hosil bo‘lgan oq rangli NH_4Cl kristallari idishning tubiga cho‘kadi va toza mahsulot ekstraksion usulda ajratib olindi.


Reaksiyaga kirishmagan ammiak gazi idishning yuqori qismidan chiqarildi. Reaksiya jarayoni xona haroratida 3 soat davomida amalga oshirildi.




MUHOKAMA VA NATIJALAR

Sintez qilingan 1,1,3-triaminobutil 2-formilbenzoat tarkibida azot va kislorod kabi taqsimlanmagan elektron juft tutgan atomlarning bo‘lishi, uni sanoat miqyosida korroziyaga qarshi ingibitor sifatida qo‘llash imkonini beradi.


Ftal angidriddan tashqari tereftal kislotaga ham yuqori asosli sistemada vinilatsetilen ta’sir ettirildi. Reaksiya mahsuloti sifatida to‘yinmagan zanjir tutgan suyuq holatdagi murakkab efir olindi.




Olingan murakkab efirning divinilli zanjir qismini gidrogalogenlash maqsadida, unga yetarli miqdorda HCl ta’sir ettirildi.



Olingan galogenli hosiladagi xlor atomlari o‘rniga amin guruhini kiritish uchun amiak ta’sir ettirildi. 4-((2,3-diaminobutan-2-iloksi)karbonil)benzoy kislotasini tozalab olinib, keyingi maqsadlar uchun foydalanildi.



Sintez qilingan aminli hosilalar absorbsiya jarayonida qo‘llanilishi sababli ularning MDEA ko‘piklanishiga salbiy ta’sir etmasligi aniqlangan.



Aminli hosila absorberdagi oltingugurtli birikmalar bilan birikish hisobiga absorbsiyani kuchaytiradi, oltingugurt va kisloroddagi elektron juftlar Fe^{2+}, Fe^{3+} bilan kompleks hosil qilib ingibirlanadi. Hosil bo‘lgan birikmalar desorbsiyada ham barqarorligini namoyish etadi.

Shunday qilib, ftal hosilalari asosida olingan korroziya ingibitorlarining olinishi, xossalari va texnologiyasi bo‘yicha qulay yo‘nalish tanlandi va sintez qilindi. Sinov ishlari va sintez uchun moddalarning tozaligi va tozalik darajasi, texnologik parametrlari jarayonning borishini belgilovchi asosiy ko‘rsatgich ekanligi aniqlandi.

Yuqorida keltirilgan kimyoviy reagentlardan foydalangan holda keltirilgan uslubiyot asosida moddalarni sintez qilish, tozalash, sinov ishlarini olib borish maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Vohid, A., Zukhriddin, R., & Farkhod, K. (2024). CHLORINATION OF PHTHALIC ANHYDRIDE. Universum: технические науки, 8(10 (127)), 19-23.

2. Zukhriddin, R., & Sadullo, K. (2023). CHROMATOMATIC MASS ANALYSIS OF DIVINYLACETYLENE DERIVATIVE OF PHTHALIC ANHYDRIDE. Universum: технические науки, (5-8 (110)), 30-33.

3.Ахмедов, Вохид Низомович, Бобир Баходир Угли Олимов, and Шомурод Комилович Назаров. "Электронная структура и квантово-химические расчёты виниловых эфиров фенолов." Universum: химия и биология 4 (70) (2020)

4. Vohid, A., & Zukhriddin, R. (2023). DETERMINATION OF THE EFFICIENCY OF THE IKFA CORROSION INHIBITOR IN THE AGGRESSIVE ENVIRONMENT OF MDEA ABSORBENT ON A SAMPLE OF STEEL 09G2S. Universum: технические науки, (5-7 (110)), 59-63.

5. Amonovich, H. A. (2024). FIRE RETARDANT PROPERTIES OF POLYESTERSULFONE KETONES. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 21, 45-48.

6. Rayimov, Z. X. O. G. L., Temirova, M. I., & Ravshanov, S. A. O. G. L. (2024). Tereftal kislota diglikol efiri va oligomerlarning polikondensatsiyalanish reaksiyasi katalizi. Science and Education, 5(2), 161-165.

7. Negmurodovich, M. M. (2023). PECULIARITIES OF CORROSION OF THE EQUIPMENT OF THE SYSTEM OF PURIFICATION OF HYDROCARBON GASES FROM ACIDIC COMPONENTS. American Journal of Pedagogical and Educational Research, 18, 85-89.

8. Temirov, A., & Akhmedov, V. (2022). Preparation and properties of a corrosion inhibitor based on thiourea. Scientific Collection «InterConf», (120), 211-213.

9. Alisher, T., Vokhid, A., & Bobir, O. (2022). Synthesis and properties of thiourea based inhibitors. Universum: технические науки, (8-3 (101)), 63-65.

WEB FAOLIYATGA TAYYORLASH ELEKTRON RESURSLARI YARATISH VA JORIY ETISHNI METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH MODELI

Reymbaeva Nilufar Kadirbaevna
Ózbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi
Nukus "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseyi
informatika va axborot texnologiyalar fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Elektron ta’lim resurslari (ETR) bazasining integrativ modeli, uning tamoyillari yig‘indisini ko‘rib chiqa turib, uning asosiy qoidalarini umumlashtirgan holda aks ettirish lozim bo‘lib, bundan o‘quv jarayonining axborot-metodik ta’minoti tizimini qurishda foydalanish zarurdir. Maqolada web faoliyatga tayyorlash negizida elektron resusrslar yaratish hamda uni joriy etish metodikasini shakllantirish modeli muhokama etiladi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim resurslari, kasb-hunar, integrativ model, komponent, maxsus fanlar, masofaviy ta’lim, web faoliyat, masofali o‘qitish.

Аннотация:Интегративная модель базы электронных образовательных ресурсов (ЭОР), рассматривая сумму ее принципов, необходимо обобщить ее основные правила и использовать при построении системы информационно-методического обеспечения образовательного процесса. В статье рассматривается модель создания электронных ресурсов на основе подготовки к веб-деятельности и формирование методики ее реализации.

Ключевые слова: электронные образовательные ресурсы, профессия, интегративная модель, компонент, специальные предметы, дистанционное образование, веб-деятельность, дистанционное образование.

AbstractThe integrative model of the base of electronic educational resources (EER), considering the sum of its principles, it is necessary to summarize its main rules and use it in the construction of the information-methodological support system of the educational process. The article discusses the model of creation of electronic resources on the basis of preparation for web activity and the formation of its implementation methodology.

Key words: e-learning resources, profession, integrative model, component, special subjects, distance education, web activity, distance education.

KIRISH: Yaratilgan ETR o‘quvchilar tomonidan o‘zlarining mustaqil ravishda bilimlarni egallash imkoniyatini ko‘zda tutuvchi mustaqil ta’lim olishga qaratilib loyihalashtirildi. ETR bilan ishlash davomida o‘quvchi javob bera olishi mumkin bo‘lgan va javob berishi lozim bo‘lgan savollar tizimi hamda o‘quvchilar faoliyatini optimallashtirishga olib keladigan individual metodik tavsiyalar (ko‘rsatmalar) tizimi orqali o‘quvchilar faoliyatini yaqqol ko‘zga tashlanmaydigan tarzda boshqarish

imkoniyatini beradi. Hozirgi davrda bilimlarning juda katta tezlikda yangilanishi, yangi kasblarning uzluksiz ravishda paydo bo‘lishi kasbiy malakani doimiy ravishda oshirib borish zarurati bilan tavsiflanadi. Mana shunday sharoitlarda ta’lim xizmatlari miqdori va sifatining o‘sishi o‘ta dolzarb bo‘lib qoladi.

Mazkur muammoni samarali hal qilish yo‘llaridan biri mustaqil ta’limni sezilarli ravishda oshirish sanaladi. Bunga kompyuter texnologiyalari vositasida ta’minlanadigan faol o‘qitish shakllaridan foydalanish evaziga real holda erishish mumkin. Ta’lim jarayoniga kompyuter orqali kiritiladigan prinsipial yangilik interfaollik hisoblanadi. U o‘quvchining ta’lim kontenti bilan faol o‘zaro harakatlari shaklini qo‘llashning keng imkoniyatlarini ochib beradi.

Jahon ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida interfaol ta’lim resurslarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish, ta’lim tizimini, interaktiv ta’lim strategiyalari va mexanizmlarini yangicha rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish, informatikaning yangi yo‘nalishlari bo‘lgan kompyuter texnologiyasi, nanotexnologiya sohalari ta’lim tizimini barqaror taraqqiyot tendensiyalariga moslashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Informatika sohasida o‘z faoliyatini loyihalashtira oladigan, ijodkor mutaxassislarni tayyorlash, elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanish, interaktiv ta’lim xizmatlarini sifatli amalga oshirish, pedagogik jarayonlar va ta’lim muhitini faol axborot almashish jarayonlari bilan integratsiyalash masalalarining pedagogik-psixologik yechimiga bag‘ishlangan tadqiqotlarga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so‘nggi yillarda ta’lim muassasalarida xalqaro ta’lim standartlariga uyg‘un holda ta’lim samaradorligini oshirish, malakali kadrlar tayyorlash sifati hamda ularning raqobatbardoshligini ta’minlash, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish, sohaga oid ilmiy-nazariy yutuqlarni amaliyotga joriy etishning me’yoriy asoslari yaratilmoqda. Bu borada, “Uzluksiz ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta’lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish” ustuvor vazifalar etib belgilangan. Mamlakatimizda xorijiy ta’lim tajribalari asosida erishilgan ijobiy natijalarni umumlashtirish va rivojlantirish, innovatsion axborot- ta’lim muhitini shakllantirish, fanlarning axborot-metodik ta’minotini yaratish, elektron ta’lim resurslaridan ta’lim jarayonida foydalanish metodikalarini ishlab chiqish muhim vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

S.Aliboevning ishlarida interaktiv elektron ta’lim trenajyorlarini yaratish va ulardan foydalanish metodikasini takomillashtirish hamda axborot ta’lim muhiti sharoitida zamonaviy ta’lim jarayonining innovatsion tavsifi, axborot-

kommunikatsiya texnologiyalari negizida yaratiladigan interaktiv elektron ta’lim trenajyorining o‘quv jarayonidagi o‘rni va roliga oid fikrlar bayon etilgan bo‘lsa-da, interaktiv ta’lim resurslarini yaratish ko‘nikmalarini shaklantirish va ta’lim amaliyotida foydalanish mazmuniga yetarlicha e’tibor qaratilmagan.

V.Jo‘raev tomonidan «Elektron ta’lim muhitida pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish metodikasini takomillashtirish» mavzusidagi ilmiy ish doirasida MIT App Inventor muhitida “Pedagogik dasturiy vositalar” fanidan elektron darslik ishlab chiqilgan. Biroq ushbu tadqiqotda bo‘lajak informatika o‘qituvchilari uchun elektron ta’lim resurslari yaratish talablari va funksiyalari yetarlicha tadqiq qilinmagan.

O.Raximovning «Elektron ta’lim resurslarini yaratish talablari va texnologiyasi» nomli ilmiy ishida axborotlashgan jamiyatda ta’limni axborotlashtirish masalalari, zamonaviy ta’lim tizimida AKT va ta’lim resurslarining o‘rni, elektron ta’lim resurslarining mohiyati, tasnifi, elektron o‘quv resurslarining namunaviy tarkibi, ularni yaratishga qo‘yiladigan talablar, yaratish tamoyillari va bosqichlari yoritilgan.

I.Umirov o‘z ilmiy ishida “Ta’lim jarayoniga elektron axborot ta’lim vositalarini joriy etishning pedagogik-psixologik omillari” haqida fikr yuritgan, ta’limda innovatsion texnologiyalarning o‘rni va ahamiyatini bayon etgan. Shuningdek, dars jarayonida elektron ta’lim vositalaridan foydalanishning muhim jihatlari, bilimlarning o`quvchilar tomonidan samarali o‘zlashtirilishiga xizmat qilishini asoslab bergan [1-5].

ETR bazasining integrativ modeli aniq tuzilmaga ega va tegishli komponentlardan iborat.

Modelning harakatchanligi, to‘g‘riligi tajribaviy tekshiruvlarda maxsus vositalar yordamida ko‘rib chiqilishi lozim.

Tajribaviy-eksperimental tekshiruvda sub’ektlarning hamkorligi tizimning axborot va ta’limni boshqarish orasidagi munosabatlarning haqiqiy holati, shuningdek, unda amalga oshirilayotgan innovatsiyalarning realligiga mos kelish o‘lchamini belgilaydi.

Korrektirovkalash (to‘g‘rilash) yo‘li bilan model mazmunini aniqlashga erishiladi.

Tadqiqotimizning maqsadi Temurbeklar maktabida maxsus fanidan ETRlarni yaratish hamda ulardan foydalanib o‘qitish metodikasini ishlab chiqib, o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish sifatini oshirish va mustaqil ta’limni rivojlantirishdan iborat.

Tadqiqotning maqsadi va ilmiy farazidan kelib chiqib, Temurbeklar maktabi maxsus fanini o‘qitishda elektron ta’lim resurslari bazasidan masofaviy

foydalanishning integrativ modelini yaratish jarayoni ikkita konturga ega: tashqi va ichki. Tashqi konturlar zamonaviy ta’lim tizimi va o‘quvchilarning ehtiyoji, ta’lim maqsadlari, vazifalari, tamoyillari, shartlari, funksiyalari, sharoitlari, texnologiyalar, natijalarini shakllantiradi. Tashqi kontur elementlari modelni yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati informatika ta’limida interaktiv ta’lim resurslaridan samarali foydalanish shakllari va texnologiyalari asosida o`quvchilarning interaktiv resurslardan foydalanish ko‘nikmalarini tarkib toptirish hamda axborot kompetensiyasini rivojlantirish va interaktiv resurslar asosida o‘qitish metodikasining mazmuni va texnologik asoslari takomillashtirilgani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati bo‘lajak informatika mutaxassislarini kasbiy faoliyatga tayyorlash faoliyatini raqamlashtirish, o‘quv kurslari mazmuni, o‘quv reja va dasturlarini takomillashtirish, yangicha o‘quv-metodik resurs, interaktiv ta’lim vositalarni yaratish, ilg‘or ta’lim texnologiyalarini joriy etishda samarali foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Modelning ichki konturida o‘quvchi va o‘qituvchi tarkibiy qismlari, pedagogik tizim va ta’limni ta’minlovchi resurslar, aloqa vositalari mavjud.

Taqdim etilgan model o‘quvchilarni ta’lim ehtiyojlariga muvofiq ravishda samarali va sifatli ta’lim olishlari uchun sharoit yaratishga qaratilgan.

Mustaqil ta’limni tashkil etishda masofaviy ta’limning o‘rni beqiyosdir. Masofaviy ta’limda o‘quv jarayonining muddati qat’iy belgilanmaydi. Nazorat ishlarini bajarish va javob yo‘llashni o‘quvchi mustaqil, o‘ziga qulay vaqtda amalga oshiradi. Ushbu holat ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Masofali o‘qitishga olimlar quyidagicha ta’riflar berishgan [2]:

Masofali o‘qitish (MO‘) – o‘quv jarayoniga tegishli bo‘lgan barcha komponentlar (maqsad, mazmun, usul, shakl, o‘qitish vositalari va hokazo), internet-texnologiyasining maxsus vositalari va boshqalar bilan amalga oshiriladigan va interfaollikni ko‘zda tutgan o‘qituvchi va o`quvchilarning masofadan turib o‘zaro aloqa qilishidir.

Masofali o‘qitish zamonaviy ta’lim shakli bo‘lib, o‘qituvchi bilan olib boriladigan pedagogik munosabat jarayoni videokommunikatsiya, elektron pochta va internet vositalari asosida olib boriladi.

Masofali o‘qitish - o‘quv jarayonidagi barcha qatnashuvchilarga (o`quvchi, tyutor, uslubchi va administrator) mashg‘ulotlarni olib borishda o‘ziga ma’qul kelgan joy, vaqtni tanlash imkoniyatiga ega bo‘lgan egiluvchan tizim.

N.A.Muslimov xam o‘z doktorlik dissertasiyasida «Masofali ta’lim - masofadan turib, o‘quv axborotlarni almashish vositalariga asoslanuvchi maxsus

axborot muhiti yordamida ta’lim xizmatlarini ko‘rsatish tizimi», deb ta’rif beradi.

Masofali o‘qitish – o‘quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo‘llagan holda o‘qituvchi va o`quvchi o‘rtasidagi interaktiv aloqa hamda o‘quvchining berilgan o‘quv materialni mustaqil o‘zlashtirish imkoniyatidir.

Biz tomonimizdan maxsus fanlarni o‘qitishda elektron ta’lim resurslari bazasining integrativ modelini ishlab chiqishda bunday turdagi tizimlar uchun quyidagi talablarga javob berishi kerak edi [3]:

- barcha yo‘nalishlarda rivojlanish;

foydalanish qulayligi, ya’ni o‘qitishning bunday jarayonida o‘quvchilardan o‘ziga xos kompyuter-texnologik, texnik bilim va ko‘nikmalarni talab qilmaslik;

- o‘quv jarayonining interaktivligi, ya’ni o‘qituvchining boshqa hamkasblari bilan muloqot qilish imkoniyati;
- didaktik samaradorligi.

Elektron ta’lim resurslari bazasining integrativ modelini yaratishda uning asosiy komponentlari – **maqsadli komponent, vazifali komponent, elektron-didaktik komponent, natijaviy komponentlarni** aniqlab, birinchi navbatda **maqsadli komponentini** belgilab oldik (1-rasm). Uning asosiy maqsadi ETRlardan foydalanib maxsus fanlardan o‘quvchilarning bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish sifatini oshirish va mustaqil ta’limni rivojlantirish bo‘lib, ETRlardan foydalanishga bo‘lgan ehtiyojdan kelib chiqib shakllandi.

NATIJALAR

Maqsadli komponentda o‘quvchilarning mustaqil ta’lim olishi bilan elektron ta’lim resurslar bazasining bir-biriga bog‘liqligi ko‘rsatib o‘tildi hamda didaktik tamoyillari ochib berildi.

Hozirgi kunning tahlillaridan quyidagilar aniqlandi:

- malakaning hozirgi zamon talablariga to‘la javob bera olmasligi;
- o‘zaro raqobatning yo‘qligi;
- mustaqil ta’lim muammolariga oid tadqiqotlarni rivojlantirish, ularning natijalarini o‘quv jarayoniga qo‘llash sustligi;
- bitiruvchilar mutaxassislik muammolarini mustaqil yechish tajribasiga asoslangan kasbiy malaka va ko‘nikmalarga yetarli darajada ega emasligi;
- bu faoliyatlarni shakllantirishga oid mashg‘ulotlar asosan tanishtiruv xarakteriga egaligi; ko‘pincha kichik mutaxassislar ishlab chiqarishni yaxshi bilmasligi hamda o‘z kasbiy faoliyatini takomillashtirish, zamonaviylashtirishga astoydil qiziqishni namoyon qilmasligi.

Vazifali komponent. Integrativ modelimizning bu blokida vazifalarni ko‘rsatib o‘tdik. Bular quyidagilar:

- maxsus fanlarni o‘qitishda ETRdan o‘quvchilarning jamoaviy

foydalanishlarini ta’minlash;

•o‘quvchilarning maxsus fanlardan bilim, ko‘nikma va malakalarini shakllantirish;

•o‘quvchilarda mustaqil bilim olish ko‘nikmalarini rivojlantirish;

•o‘quv jarayonlarini individuallashtirish hisobidan o‘quvchilarning kasbiy komponentligini shakllantirish.



1-rasm. Maxsus fanlarni o‘qitishda ETR bazasidan masofaviy foydalanishning integrativ modeli [4].

Yakuniy natijada o‘quvchi mos holdagi maxsus fanlardan o‘quv materiallarini o‘zlashtirishning o‘z individual yo‘nalishi va buning natijasida o‘z individual ta’lim yo‘nalishini loyihalashtirishning faol qatnashchisiga aylanadi.

Elektron-didaktik komponent. Mazkur komponentning shakllanishida ta’lim jarayoning an’anaviy o‘qitish hamda ETRdan foydalanib o‘qitish (masofaviy o‘qitish)ning o‘zaro integrativ tuzilmasini ishlab chiqib, unda o‘quvchilar va o‘qituvchining faoliyatini pedagogik tizim orqali bog‘lab, ularning faoliyat vazifalarini belgilab oldik: o‘quvchining faoliyati, o‘qituvchining faoliyati, o‘quvchilar bilan o‘zaro hamkorlik, nazorat.

O`quvchilar bilimini kompyuterlar yordamida baholash asosan testlar orqali amalga oshirilmoqda.

Olingan bilimlarning nazorat qilinishi test dasturlar yordamida olib boriladi, o‘qituvchining asosiy vazifasi esa maslahat berishdan iborat bo‘ladi.

Natijaviy komponent. Ta’limda maxsus fanlarni elektron ta’lim resurslardan foydalanib o‘qitishda ta’lim sifati oshadi. Shuningdek, o‘quvchilar quyidagi natijalarga erishishi mumkin:

– umumiy va kasbiy bilimlar, ko‘nik- malarni shakllantirish;

– umumiy va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish;

–bazaviy va kasbiy bilimlar, ko‘nikmalar, kompetensiyalarni qo‘llashga tayyorgarligi oshishi.

A.Abduqodirov ta’kidlaganidek, kompetentlikni rivojlantirish – insonning butun umri davomida to‘xtamaydigan jarayondir.


Ta’kidlab o‘tish kerakki, Temurbeklar maktabi o‘quvchisining ta’lim olishiga ko‘maklashuvchi shart-sharoitlarni yaratish uchun o‘qituvchi o‘quvchining mustaqil ta’lim olishiga asos bo‘lib xizmat qiluvchi kasbiy pedagogik refleksiya negizidagi o‘zgarishlarni tushunishga tayyor bo‘lishi lozim. Shunday qilib, o‘qituvchining o‘ziga yo‘naltirilgan funksiyalari – refleksiyani amalga oshirish va mustaqil ta’lim olish – o‘quvchining ta’lim olishiga ko‘maklashish borasidagi kasbiy-pedagogik faoliyatning yetakchi funksiyasini yuzaga chiqarishni belgilaydi va shuning uchun ham unga yo‘ldosh sifatida talqin qilinishi mumkin.

N.Muslimovning fikricha, kompetentlik o`quvchi tomonidan alohida bilim va malakalarning egallanishi emas, balki har bir mustaqil yo‘nalish bo‘yicha integrativ bilimlar va amaliy harakatlarning o‘zlashtirilishini nazarda tutadi.

O‘quv jarayonida ETRdan foydalanish pedagogning kasbiy kompetentliligini, birinchi navbatda, axborot va AKT kompetentliligi darajasining oshishi, shuningdek, o‘qitishning odatiy pishitib olingan metodlari, shakllari va vositalarini o‘zgartirish yoki yangilarini kiritish imkoniyatlarini tadqiq qilish hisobiga oshirishga olib keladi.

Model o‘qituvchi va o‘quvchi munosabatlarini aks ettirish maqsadi bo‘yicha ilmiy bilish, axborotlar boshqarishni ta’minlash amaliyotini takomillashtirishga mos keladi va maxsus muassasalaridagi ta’lim jarayonini takomillashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Biz tomondan yaratilgan elektron ta’lim resurslar bazasi maxsus fanlarni o‘qitishda joriy etilganda ta’lim sifatining yanada oshirilishiga erishiladi [5].



2-rasm. ***Interaktiv ta’lim resurslarini yaratish modeli***

«Kompyuter grafikasi” fanidan interaktiv ta’lim resurslari orqali ta’lim olish

ko‘nikmasini rivojlantirishni takomillashtirish va o`quvchilarning faolligini ta’minlash yo‘nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar, turli yondashuv va texnologiyalarni muvofiqlashtirish o`quvchilarda o‘qish, o‘rganish, fanga bo‘lgan qiziqishni shakllantirish, dars va kasbiy bilimlarni o‘rganish jarayoniga ijobiy munosabatlarni shakllantirish va rivojlantirish vositalarini tanlash; o`quvchilarda yangiliklarga moyillik va qiziqishlarni shakllantiruvchi motivlarni aniqlash; “Kompyuter grafikasi” fanidan interaktiv ta’lim resurslari orqali ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirish mazmunini takomillashtirish omillarini aniqlash; “Kompyuter grafikasi” fanidan interaktiv ta’lim resurslari orqali ta’lim olish ko‘nikmasini rivojlantirishni takomillashtirish yo‘nalishida amalga oshirish zarur bo‘lgan vazifalarni aniqlash imkonini beradi [7].

XULOSA VA MUNOZARA

Maxsus fanlardan yaratilgan elektron ta’lim resurslari rasmiy o‘quv dasturida talab etilgan materiallarni o‘z ichiga olgan va o‘quvchiga o‘z malakasi, bilimi, tushunchalari va dunyoqarashini takomillashtirishga imkoniyat yaratadi.

Elektron ta’lim resurslari quyidagi afzalliklarga ega:

– tushunish va o‘qishga qulayligi;

– o‘quvchilarning yoshi va imkoniyatiga mosligi;

– turli saviyadagi o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yordam berishi;

– o‘quvchiga o‘tayotgan mavzuni tushunishiga yordam beradigan misollar, masalalar, hayotiy holatlar va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta’minlanishi;

– nazariy g‘oyalarni tushunishga yordam beradigan rasm, diagramma va animatsiyalarning mavjud bo‘lishi.

Elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqishda quyidagi talablarni bajarish zarur:

- respublikamizning milliy va madaniy an’analari hamda milliy qadriyatlarining inobatga olinishi;
- maxsus maktablarda o‘qitiladigan fanlar bilan uzviylikning ta’minlanishi.

«Elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarini yaratish metodikasini takomillashtirish» mavzusidagi doktorlik dissertasiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etildi:

1. Tadqiqot davomida elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarini yaratishning pedagogik muammolarini aniqlashtirishga oid ilmiy-nazariy adabiyotlar tahlil etilgan.

2. Interaktiv ta’lim resurslarini yaratishning o‘ziga xos xususiyatlari aniqlanib, o‘quv va ilmiy-nazariy adabiyotlarning elektron shaklda mavjudligi o‘rganildi, interaktiv ta’lim resurslarini yaratishga qo‘yiladigan talablar va tayaniladigan didaktik tamoyillarining o‘ziga xos xususiyatlari hamda ularning har biriga individual yondashuv bosqichlari keltirilgan.

3. Elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarni yaratishga oid mahalliy va xorijiy tajribalar o‘rganildi, interaktiv ta’lim resurslarni tashkil etish tuzilmasi takomillashtirildi, «Learn Graph» interaktiv ta’lim resursining tashkiliy tuzilmasi yaratilgan.

4. Elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarni yaratish va ulardan foydalanish metodikasiga oid ma’nbalar tahlil etilib, interaktiv ta’lim resurslarini yaratish modellari va dasturiy vositalari takomillashtirilgan.

5. Tadqiqot davomida elektron ta’lim resurslarini yaratish darajalari, o‘quv materiallarini uzatish elektron resurslari, interaktiv ta’lim resurslardan foydalanish mazmuni va funksiyalari aniqlangan.

6. Elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarni yaratish texnologiyasi, interaktiv ta’lim resurslarndan foydalanish metodikasi hamda Temurbeklar maktabi o`quvchilarini kompyuter grafikasi bo‘yicha o‘qitish metodikasi modeli takomillashtirilgan.

7. Informatika o‘qitish metodikasida elektron ta’lim muhitida interaktiv ta’lim resurslarini yaratish metodikasini takomillashtirishda innovasion ta’lim texnologiyalardan foydalanish usullari tajriba-sinovdan o‘tkazildi, samaradorlik 1,14 barobar, ya’ni 14 % ga oshishiga erishilgan.

ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. Abduqodirov A.A., Eshnazarova M.Yu. Masofaviy ta'lim tizimida elektron darsliklar. // “Gen psixologiyasi pedagogikasi” jurnali, Olmaota, 2010 yil, No 4. -P. 184-187.

2. Abduqodirov A.A., To‘raev B.Z. Informatika va axborot texnologiyalari» sohasidagi bo‘lajak mutaxassis kadrlarning kasbiy kompetentligini shakllantirish nazariyasi va metodikasi. Monografiya. – T.: «Navro‘z», 2015.

3. Aripov M., Jo‘raeva I. Buyuk Britaniyaning Ochiq universitetida masofaviy o‘qitish jarayoni. – T.: O‘zMU, 2016. –19-b.

4. Zakirova F.M. Maktabda informatika va kompyuter texnologiyalari asoslari bo'yicha sinfdan tashqari ishlar tizimi. dis. Ph.D. ped. Sci. – T.: TDPU, 2017. –S. 189.

5. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchilarini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. – T., 2017. –275-b.

6. Muslimov N.A. Mutaxassisning kasbiy shakllanishida masofaviy ta’limdan foydalanish yo‘llari. // Info Com.Uz, 2014, № 5. -60-62-b.

7. Smirnova V.L. Sinovlarni boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish tajribasidan. // “Maktabda kimyo” jurnali, 2018 yil, 4-son. -b. 43-47.

8. Isoqov I., Toshtemirov D.E. Informatika o‘qitish metodikasi fanidan o‘quv-uslubiy majmua. – Guliston: GulDU, 2008. – 130 b.

9. Toshtemirov D.E. Ta’lim portalining tarkibiy tuzilishi va uslubiy ta’minoti //

Kasb-hunar ta’limi, 2010. – № 2. –B. 10 – 11.

10. Toshtemirov D.E. Kasb-hunar kollejlarida “Informatika”ni o‘qitish uchun ta’lim portali yaratish va undan foydalanish metodikasi. Ped.fan.nomz.diss...avtoref. – Toshkent, 2012. – 24 b.

FAKEL GAZLARI TARKIBIDAGI UGLEVODORODLARNI TAHLIL QILISH VA MATEMATIK HISOBLASH

Boboqulov F.B.

Buxoro muhandislik - texnologiya instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘lchov tizimining aniqligini baholash, o‘lchov tamoyillari va usullarini ko‘rib chiqish, har bir o‘lchov asbobi, o‘zgartirgich, yordamchi qurilmalar va aloqa kanallaridan foydalanish shartlarini o‘lchov natijalarining ehtimolli buzilishi nuqtai nazaridan tahlil qilish lozim. Amalda, o‘lchov tizimining xatoligi xatolik komponentlarining ruxsat etilgan qiymatlari chegaralarining kvadratlari yig‘indisining kvadrat ildizi deb baholanadi.

Kalit so‘zlar: Reaktor, termopara, ballon, ventil, reduktor, oksidat, metanol, gomolog.

Аннотация. В этой статье следует оценить точность измерительной системы, рассмотреть принципы и методы измерения, а также проанализировать условия использования каждого измерительного прибора, преобразователя, вспомогательных устройств и каналов связи с точки зрения возможного искажения результатов измерений. На практике погрешность измерительной системы оценивается как квадратный корень из суммы квадратов пределов допустимых значений составляющих погрешности.

Ключевые слова: реактор, термопара, цилиндр, вентиль, редуктор, оксид, метанол, гомолог.

Annotation. This article should evaluate the accuracy of the measuring system, consider the principles and methods of measurement, and analyze the conditions of use of each measuring device, transducer, auxiliary devices and communication channels in terms of possible distortion of the measurement results. In practice, the error of the measuring system is estimated as the square root of the sum of the squares of the limits of the permissible values of the components of the error.

Key words: reactor, thermocouple, cylinder, valve, reducer, oxide, methanol, homologue.

Kirish Yurtimizda mustaqillikning dastlabki yillaridanoq iqtisodiyot tarmoqlarida investitsiya jalb qilish, zamonaviy korxonalar bunyod etishda ustuvor vazifa sifatida alohida e’tibor qaratildi. Natijada xorijning ilg‘or va tejamkor texnologik liniyalari bilan jihozlangan korxonalar soni ko‘paydi. Neft va gaz sanoatini rivojlantirish qazibolingan xom-ashyolarni qayta ishlab mahsulot olish jarayonlariga katta e’tibor qaratilmoqda. Tabiiy gaz tarkibidagi metandan $CO+H_2$ sintez gazi olib undan sintetik yoqilg‘ilar ishlab chiqarish katta iqtisodiy samara beradi. Tabiiy gazni narxiga nisbatan sintetik yoqilg‘i 20 marta ko‘pligini ko‘rishimiz mumkin. Bunda korxonalar Janubiy Afrika va Koreya Respublikalarida mavjud. Sintez gazni ko‘mirdan, tabiiy gazdan olib undan sintetik yoqilg‘i ishlab chiqarish hozirgi kunda

tabiiy resurslardan oqilona foydalanish katta iqtisodiy samara beradi. Sintez gazini yaxlit reaktorda bosim, temperatura va kerakli energiya sarfi hisobiga og‘ir to‘yingan uglevodorodlar ishlab chiqarishdi. Bunda o‘ta og‘irlari mator yog‘lari olishda qo‘llaniladi.

Reaktor 11 silindrsimon isitiladigan quvurdan iborat bo‘lib, u ikki qismga ajratilgan: isitish zonasi I va sovutish zonasi II. Isitish va sovutish zonalaridagi harorat farqiga gaz gorelkasi 14 yonish mahsulotlarini havo bilan suyultirish koeffitsientini o‘zgartirish orqali erishiladi. Isitish zonasida mazkur koeffitsient pastroq, sovutish zonasida esa yuqoriroq bo‘lgan, shuning uchun isitish zonasi I devorining o‘rtacha harorati yuqori va sovutish zonasiIIdevorida pastroq bo‘lgan. Isitish va sovutish zonalarida reaktor devorlarining harorati reaktor yo‘naltiruvchisi bo‘ylab harakatlana oladigan termoparalar (T1 va T2) 15 va 16 tomonidan qayd etilgan. Reaktor 12X18 N10T zanglamaydigan po‘latdan yasalgan bo‘lib, uning isitiladigan qismi uzunligi 820 mm bo‘lganda ichki diametri 67 mm va isitiladigan qismi uzunligi 500 mm bo‘lganda ichki diametri 25 mm ni tashkil qiladi [1].

Reaktor 11termoshkafga 12 joylashtirilgan va gorelka 14 bilan isitilgan. To‘siq 13 va termoshkafga havo yetkazib beriladigan kirish teshiklari tizimining ma’lum tuzilishi vositasida unda ikkita zona tashkil etilgan: yonish mahsulotlarining yuqoriroq o‘rtacha haroratiga egaisitish zonasi I va yonish mahsulotlarining o‘rtacha harorati pastroq bo‘lgan sovutish zonasi II. Isitish zonasida I yonish mahsulotlarining oqimi dastlabki gaz aralashmasining reaktor orqali oqimiga nisbatan asosan qarama-qarshi oqimda, sovutish zonasida II esa asosan ko‘ndalang oqimda boradi. Gaz ballonlari 1 va 2 metan va havoni yuqori bosim ostida saqlash va ularni reaksiya tizimiga yetkazib berish uchun qo‘llaniladi [2].

Reaktorda ishchi bosimni ushlab turish kirish reduktorlari (RD1) 5, (RD2) 6 va chiqish reduktori (RD3) 18, shuningdek, ventillar 7, 8 va 19 yordamida amalga oshirildi. Reaktorda va magistrallardagaz harakati tezliklari past bo‘lganligi sababli, gaz yo‘li uzunligi bo‘ylab bosim tushishi kuzatilmadi. Reaksiya gazlarining sovishi va oksidatning cho‘kishi sovutgich-kondensatorda (FK) 17 bosimni tushirmasdan amalga oshirildi. Reaksiya gazlarini sovutish oqova suvi yordamida amalga oshirildi. Tajribani o‘tkazish jarayonida oksidat sovutgich-kondensator yig‘ishsig‘imida to‘planib, tajribadan so‘ng to‘kilgan [3].

Gaz sarflarini o‘lchash bosim ostida ishlaydigan rotametrlar (RT1) 9 va (RT2) 10 yordamida kirishqismida o‘lchandi. Chiqish qismida sarf nazorati rotametr (RT3) 20 yordamida amalga oshirildi. Tajribalar davomida RM tipidagi rotametrlar qo‘llanilgan. Tajriba tadqiqotlari quyidagi tartibda amalga oshirildi [4].

Gorelka 14 ishga tushirilgan va isitish shkafi 12 bir soat atrofida isitilgan. Reaktor 11 devorining belgilangan harorati o‘rnatilgan.Reaktor devorining isishi

termoparalar (T1 va T2) 15 va 16 yordamida nazorat qilindi. Isitishning oxiri bo‘lib reaktor 11 devorining haroratini barqarorlashtirish hisoblanadi. Gaz ballonlaridan 1 va 2 orqali reduktorlar (RD1 va RD2) 5 va 6, ventillar 3,4,7 va 8, rotametrlar (RT1 va RT2) 9 va 10 orqali, reaktor 11 ga belgilangan konsentratsiyali kislorod bilan gaz aralashmasi uzatildi. Reduktor (RD3) 18 va ventil 19 yordamida gaz aralashmasining reaktor 11 orqali belgilangan oqim tezligining qiymati o‘rnatildi.Reaktor 11 kirish qismiga keladigan gazlarning sarfini o‘lchash rotametrlar (RT1 va RT2) 9 va 10yordamida amalga oshirildi. Komponentlarning belgilangan nisbati ventillar 7 va 8 yordamida o‘rnatildi. Chiqindi gazlarning sarfi rotametr (RT3) 20 yordamida o‘lchandi.

Dastlabki gaz aralashmasi reaktor 11 orqali o‘tib, belgilangan haroratgacha isitiladi, shundan so‘ng gaz fazasida metanol va reaksiyaning ikkilamchi mahsulotlarini hosil bo‘lishi reaksiyasi sodir bo‘ldi. Keyin gaz aralashmasi sovutgich-kondensator 17 orqali o‘tib, u yerda uning sovutilishi va oksidat ajratilishi sodir bo‘ladi. Keyin gaz reduktor (RD3) 18, ventil 19, rotametr (RT3) 20 orqali o‘tib, atmosferaga chiqarildi. Barcha kirish parametrlari (bosim, harorat, sarf, komponentlar nisbati) barqarorlashtirilgandan so‘ng, oksidat sovutgich-kondensatordan chiqarildi, va tajriba boshlanish vaqti sekundomer yordamida qayd etildi. Tajriba tugagandan so‘ng, reduktor (RD3) 18 yordamida reaktor 11 orqali gaz sarfi nollashtirildi. Oksidat sovutgich-kondensatordan (FK) 17 to‘kib chiqarildi va uning miqdori o‘lchov idishi yordamida o‘lchandi. Oksidatning tarkibini aniqlash xromatografiya usuli yordamida amalga oshirildi. Tajriba davomida qurilmaning chiqish qismida va ventil 22 orqali boshlang‘ich va reaksiya gazlari olingan. Boshlang‘ich va reaksiya gazlarining tarkibi gaz xromatografiya usuli bilan aniqlandi [5]. Tajribalar natijalariga ko‘ra quyidagi chiqish parametrlari aniqlandi:

Qurilmadan chiqishdagi reaksiya gazi tarkibi, % hajm. (gaz xromatografiyasi usulida aniqlangan);

Oksidat tarkibi, g/l (xromatografiya usulida aniqlangan);

O‘tkazilgan metan hisobiga metanol chiqishi qo‘yidagi bog‘liqlikdan aniqlangan

$$B_M = \frac{C_M V_{ок}}{G_M \tau}, г / м^3$$

bu yerda S_m–oksidatdagi metanol miqdori;

K_{ok}–vaqt ichida ishlangan oksidat hajmi t, ml;

$G_{сu}$–reaktor orqali metan sarfi, l/m;

t –tajriba vaqti, m.

4. Reaktor maydoni birligiga hisoblangan metanol solishtirma chiqishi qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlangan

$$П_{уд F} = \frac{C_M V_к}{τF} * 60 * 10^{-6}, \frac{кг}{м^3 ч}$$

bu yerda F –reaktor ko‘ndalang kesim yuzasi, m^2.

5. Reaktor hajmi birligiga hisoblangan metanol solishtirma chiqishi qo‘yidagi bog‘liqlik bo‘yicha aniqlangan

$$П_{уд V} = \frac{C_M V_к}{τFl_p} * 60 * 10^{-6}, \frac{кг}{м^3 ч}$$

bu yerda *lr*–reaktorning isitiladigan qismi uzunligi, m.

Tajribalar ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda reaktorning asosiy chiqish xarakteristikalarining ish jarayonining parametrlariga bog‘liqligi xarakteri aniqlandi, bu esa tajribani rejalashtirish to‘g‘risida qaror qabul qilishga imkon berdi. Ikkinchi (asosiy) bosqichda reaktorning asosiy chiqish xaorakteristikalarini hisoblash uchun regressiya tenglamasi olingan.

Issiqlik-texnik o‘lchovlarning aniqligi [6] o‘lchov asboblarining aniqligi, o‘lchov tizimiga kiritilgan alohida o‘zgartirgichlar va aloqa liniyalarining xatoliklari,o‘lchov amalga oshiriladigan o‘lchov tizimi elementlarining o‘zaro ta’sirining xususiyatlari bilan belgilanadi. O‘lchov tizimining aniqligini baholashda o‘lchov tamoyillari va usullarini ko‘rib chiqish, har bir o‘lchov asbobi, o‘zgartirgich, yordamchi qurilmalar va aloqa kanallaridan foydalanish shartlarini o‘lchov natijalarining ehtimolli buzilishi nuqtai nazaridan tahlil qilish lozim. Amalda, o‘lchov tizimining xatoligi xatolik komponentlarining ruxsat etilgan qiymatlari chegaralarining kvadratlari yig‘indisining kvadrat ildizi deb baholanadi. Bunda xatolikning komponentlari mustaqil, bir xil taqsimot qonuniga ega va ularning ruxsat etilgan qiymatlari chegaralari bir xil ishonch ehtimollariga mos keladi, deb taxmin qilinadi. Bilvosita o‘lchovlarda, aniqlanadigan parametr bir necha tasodifiy argumentlar *Y=J{x\, Xg, xt,,..., x_p)* funksiyasi bo‘lganida, o‘lchov xatosi *δ(Y)* qo‘yidagi bog‘liqlikdan aniqlanadi

$$\delta(Y) = \sqrt{\sum_{i=1}^{n} (\delta(x_i))^2}. \quad (1)$$

Tajriba tadqiqotlarini o‘tkazishda to‘g‘ridan-to‘g‘ri va bilvosita o‘lchovlar amalga oshirildi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchovlar orqali quyidagilar aniqlandi:

dastlabki va reaksiya gazlarining tarkibi;

oksidat tarkibi;

metan, havo va reaksiya gazlari sarfi;

reaktordagi bosim;

reaktor devorining harorati;

oksidat hajmi;

tajriba vaqti;

reaktor uzunligi va uning ko‘ndalang kesimi yuzasi.

Bilvosita (hisoblash) yo‘li bilan qo‘yidagilar aniqlandi:

o‘tkazilgan metan hisobiga metanol chiqishi, V_m;

reaktor ko‘ndalang yuzasi birligi hisobiga metanol solishtirma chiqishi, $P_{ud}u$,

reaktor hajmi birligi hisobiga metanol solishtirma chiqishi, $P_{ud}u$.

O‘tkazilgan metangga hisoblaganda metanol chiqishi kattaligiV_t

$$B_M = f\left(C_{M,}V_{ok}, G_M, \tau\right) \quad (2)$$

ko‘rinishdagi funksional bog‘liqlik bilan aniqlanishi sababli, (2.1) ni inobatga olgan holda, $V_m$kattaligini aniqlashdagi nisbiy xatolik qo‘yidagiga teng

$$\delta\left(B_M\right)=\sqrt{\delta\left(C_M\right)^2+\delta\left(V_{ok}\right)^2+\delta\left(G_M\right)^2+\delta\left(\tau\right)^2}=\sqrt{0.05^2+0.007^2+0.015^2+0.0003^2}=0.053. \quad (3)$$

Reaktorning ko‘ndalang kesimining birligi hisobiga metanolning solishtirma chiqishi uchun funksional bog‘liqlik qo‘yidagi ko‘rinishga ega

$$П_{y\partial F} = f\left(C_M;V_{ok};\tau;F_p\right) \quad (4)$$

Bundan, $П_{уд.F}$ kattalikni aniqlashda nisbiy xatolik qo‘yidagibog‘liqlikdan aniqlanadi

$$\delta\left(П_{y\partial F}\right)=\sqrt{\delta\left(C_M\right)^2+\delta\left(V_{ok}\right)^2+\delta\left(\tau\right)^2+\delta\left(F_p\right)^2}=\sqrt{0.05^2+0.007^2+0.0003^2+0.006^2}=0.051. \quad (5)$$

Reaktor hajmining birligi hisobigametanolning solishtirma chiqishi funksional bog‘liqligi qo‘yidagi bog‘liqlik bilan aniqlanadi

$$П_{y\partial V} = f\left(C_M;V_{ok};\tau;F_p l_p\right) \quad (6)$$

U holda $П_{yдF}$ qiymatini aniqlashdagi nisbiy xatolik qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$\delta(П_{yдV}) = \sqrt{\delta(C_M)^2 + \delta(V_{ok})^2 + \delta(\tau)^2 + \delta(F_p)^2 + \delta(l_p)^2} = \sqrt{0.05^2 + 0.007^2 + 0.0003^2 + 0.006^2 + 0.002^2} = 0.051. \quad (7)$$

Bundan, reaktor chiqish xarakteristikalari va ishchi jarayon parametrlarini aniqlashning nisbiy xatoliki 10% dan oshmaydi.

Tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash

Tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash [7, 8] da keltirilgan uslubga muvofiq amalga oshirilgan. Reaktorning chiqish xarakteristikalari baholarini aniqlash beshta mustaqil tajriba bo‘yicha o‘tkazildi. Qo‘pol xatolar ko‘rib chiqishdan chiqarildi. Reaktorning chiqish xarakteristikalari baholarini aniqlash tartibi misol bilan ko‘rsatilgan. 1-jadvalda beshta mustaqil tajribada reaktorning chiqish xarakteristikalarini aniqlash natijalari reaktorning geometrik xarakteristikalari va ish jarayoni parametrlarining quyidagi qiymatlari uchun berilgan:

reaktorning ichki diametri, d_p- 67 mm;

reaktorning isitiladigan qismining uzunligi, /r - 820 mm;

reaktordagi bosim -3,0 MPa;

aralashmadagi kislorod konsentratsiyasi -18,1%;

aralashma sarfi, G_{CM} - 14,7 l/m;

reaktor devori harorati, /„ - 425°C.

1-jadval

Reaktorning chiqish xarakteristikalari

T\r.	S_m, g/l	V_m, g/m^3	P_{UD}.A kg/m^{3}soat	Pud.k, kg/m^{3}soat
1	278	313	10,7	13,0
2	280	308	10,5	12,8
3	277	319	10,8	13,2
4	279	307	10,5	12,7
5	285	299	10,2	12,4

$S_m$kattaligini matematik kutilgani uchun baholash qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlandi:

$$\tilde{m}_{C_M} = \frac{\sum_{i=1}^{n} C_{mi}}{n} = \frac{278+280+277+279+285}{5} = 279.8 г/л. \quad (8)$$

$S_m$kattaligining o‘rtacha kvadrat og‘ishi qo‘yidagi bog‘liqlikdan aniqlandi

$$\tilde{o}_{C_M} = \sqrt{\left(\frac{\sum_{i=1}^{n} C^2{}_{mi}}{n} - \tilde{m}^2_{C_M}\right) * \frac{n}{n-1}} = \sqrt{\left(\frac{278^2+280^2+277^2+279^2+285^2}{5} - 280^2\right) * \frac{5}{5-1}} = 3.1 г/л. \quad (9)$$

Ishonchli ehtimollik r = 0,95 da ishonchli interval kattaligi

Keyingi hisob-kitoblar shu tarzda amalga oshirildi. Hisob-kitoblar natijalari 2-jadvalda umumlashtirilgan

2-jadval

Tajriba ma’lumotlarini qayta ishlash natijalari

Parametr	S_m, g/l	V_{sh} g/m^3	$Pu_D./7$, kg/m^{3}soat	P_Ud. k, kg/m^{3}soat
t	279,8	309,2	10,5	12,8
a	3,1	7,4	0,2	0,3
J_P	273,7; 285,9	294,7; 323,7	10,1; 10,9	12,2; 13,4

Hisoblash modelining umumiy xarakteristikasi va qabul qilingan ruxsatlar

Reaktorning chiqish xarakteristikalarini aniqlash tajriba tadqiqotlari natijalari bilan to‘ldirilgan moddiy balans tenglamalariga asoslanadi. Tajribalar natijalari tajriba koeffitsientlarini aniqlashda qo‘llanilib, ular keyinchalik reaktorning chiqish xarakteristikalarini hisoblashni amalga oshirishga va ularning qiymatiga turli xil omillarning ta’sirini o‘rganishga imkon berdi. Moddiy muvozanat tenglamalarini tajriba yo‘li bilan tuzatish uchun qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan reaktorning mustaqil chiqish xarakteristikalariga quyidagilar kiradi: oksidat tarkibidagi metanol miqdori S_m; metanol chiqishi V_m.

$S_m$qiymati to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘lchovlar natijasida aniqlanadi; u asosan metanning metanolga aylanish darajasini belgilaydi. Oksidatdagi metanol miqdori qancha ko‘p bo‘lsa, boshqa teng sharoitlarda, metan miqdori bevosita metanol ishlab chiqarishga shuncha ko‘p sarflanadi, va reaksiya jarayonida shuncha kamroq ikkilamchi mahsulotlar hosil bo‘ladi. Tajribada aniqlandiki,$S_m$qiymati asosan boshlang‘ich gaz aralashmasidagi kislorod konsentratsiyasiga va reaktordagi bosimga bog‘liq. Reaktorda bosimni oshirish ma’lum bir cheklangan qiymatgacha $S_m$oshishiga olib keladi. $S_m$qiymati bevosita tajriba natijalaridan aniqlanadi, shuning uchun mazkur parametrdan boshqa parametrlarni hisoblash uchun

foydalanish mantiqan to‘g‘ri keladi. Ushbu yondashuv ancha ehtimollidir, biroq uning quyidagi kamchiliklari mavjud:

- $S_m$qiymati boshqa parametrlarga qaraganda barqarorligi pastroq. Uning nisbiy beqarorligi asosan jarayonning zanjir xarakteri bilan belgilanadi;

- $S_m$qiymati ko‘p jihatdan boshlang‘ich gaz aralashmasidagi kislorod konsentratsiyasiga va reaktordagi bosimga bog‘liq bo‘lib, uni aniqlash uchun tajriba nomogrammalari mavjudligini talab qiladi. $V_m$qiymati 1 m^3 metanni reaktordan o‘tkazishda ishlab chiqarilgan metanol miqdorini belgilaydi. Mazkur xarakteristika qanchalik yuqori bo‘lsa, metanning reaktor orqali bir marta (bitta o‘tishda) o‘tkazilganda undan shuncha samarali foydalaniladi. Xarakteristika hisob-kitob uchun bo‘lib hisoblanadi, va qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$B_M = \frac{C_M V_{ок}}{G_M \tau}, г / м^3 \quad (1)$$

bu yerda V_{OK}– τ vaqt ichida ishlangan oksidat miqdori;

G_u- metanning reaktor orqali sarfi.

$V_m$xarakteristikasi $S_m$ga nisbatan ancha barqaror, chunki $S_m$tasodifiy o‘sishi $V_K$pasayishi bilan birga boradi, va aksincha. $V_m$qiymati ko‘proq darajada ($S_m$ga nisbatan) kimyoviy jarayonning imkoniyatlarini aks ettiradi, va reaktorning samarali ishlashi uchun shartlar bajarilganda doimiy bo‘lib qoladi. Shuning uchun $V_m$qiymatidan reaktorning boshqa xarakteristikalarini hisoblash uchun foydalanish mumkin [9]. Reaktorning bog‘liq chiqish xarakteristikalariga metanol solishtirma chiqishlari qiymatlari P_{ud}g, P_{ud}k kiradi.

P_{ud}gqiymati reaktorning o‘tish kesimi maydonining birligiga hisoblaganda metanol ishlab chiqarish bo‘yicha reaktorning imkoniyatlarini aniqlaydi. P_{ud}gqiymati qanchalik yuqori bo‘lsa, boshqa teng sharoitlarda, reaktorning o‘tish kesimi maydoni shunchalik kichik bo‘ladi.

Xarakteristika hisob-kitob uchun bo‘lib hisoblanadi, va qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlanadi

$$П_{yдF} = \frac{C_M V_к}{F_p \tau}, \quad (2)$$

bu yerda F_p - reaktor o‘tish kesimi maydoni.

P_{ud}gqiymati shuningdek qo‘yidagi bog‘liqlik bo‘yicha ham hisoblanishi mumkin

$$П_{yдF} = \frac{B_M G_M}{F_p}, \quad (3)$$

$P_{ud}u$ qiymati reaktor hajmi birligiga hisoblaganda metanol ishlab chiqarish bo‘yicha reaktor imkoniyatlarini aniqlaydi. P_{udK} qancha yuqori bo‘lsa, boshqa teng sharoitlarda, reaktor hajmi qiymati shuncha kichik bo‘ladi [10]. Xarakteristika hisob-kitob uchun bo‘lib hisoblanadi, va qo‘yidagi formula bo‘yicha aniqlanishi mumkin:

$$П_{yòV} = \frac{C_M V_к}{V_p \tau}, (4)$$

bu yerda V_p–reaktor hajmi, m^3.

$P_{ud}u$ qiymati shuningdek qo‘yidagi bog‘liqlik bo‘yicha ham hisoblanishi mumkin

$$П_{yòV} = \frac{B_M G_M}{V_p}, (3)$$

Shunday qilib, reaktorning samaradorligini aniqlaydigan xarakteristikalarni hisoblashda qo‘yidagi ikkita yondashuvdan foydalanish mumkin:

$V_m$qiymati beriladigan yondashuv

$S_m$qiymati beriladigan yondashuv

Biroq, birinchi yondashuv maqbulroq bo‘lib hisoblanadi.

Chiqindi uglevodorod gazlari tarkibida metandan tashqari boshqa uglevodorod gazlari va boshqa yonuvchan aralashmalar ham bo‘lishi mumkin. Tajriba yo‘li bilan aniqlandiki,400..450°S haroratda metanni atmosfera kislorodi bilan oksidlanishi natijasida asosan metanol, suv, uglerod oksidi va karbonat angidrid, formaldegid va chumoli kislotasi hosil bo‘ladi. Bunda formaldegid miqdori 10% dan oshmaydi, chumoli kislotasi esa hosil bo‘lgan oksidatda foizning o‘ndan bir qismini tashkil qiladi. Yonuvchan moddalarning oksidlanishiboshlang‘ich harorati ularning molekulalarining tuzilishiga va molekulyar og‘irligiga bog‘liq. Shunday, har bir gomologik qatorda gomologlarning oksidlanishiboshlang‘ich harorati ularning molekulyar og‘irligi oshishi bilan kamayadi. To‘yingan uglevodorodlar orasida oksidlanishga eng barqarori bo‘lib metan hisoblanadi. To‘yinmagan uglevodorodlarning oksidlanishi yuqori haroratlarda sodir bo‘ladi, ammo yuqori bosimlarda uglevodorod gazlarining oksidlanishining boshlanishi pastroq haroratga to‘g‘ri keladi [11, 12].

Metanga boshqa uglevodorod gazlari (xususan, propan-butan fraksiyalari) qo‘shilishi jarayonga hech bo‘lmaganda zahar yetkazmasligi, boshqa aralashmalarning oz miqdorda mavjudligi esa reaktorning chiqish xarakteristikalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi tajriba yo‘li bilan aniqlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, aralashmaning oksidlanish jarayoni shartli metanning oksidlanish jarayoni deb qaralishi mumkin bo‘lib, uning umumiy massa miqdoriboshlang‘ich gaz

aralashmasidagi uglevodorod gazlari va vodorodning umumiy massasi bilan belgilanadi. U holda keltirilgan metanning massa sarfi $G_{M.np}$ qo‘yidagibog‘liqlikdan aniqlanadi

$$G_{M/np} = \sum_{i=1}^{n} \left(G_{H_2} + G_{yr,i} \right) \quad (6)$$

bu yerda G_H–vodorod massa sarfi;

$G_{yr}i$ - *i-chi*uglevodorod gazi massa sarfi;

p - aralashmadagi uglevodorod gazlari soni.

Qabul qilingan ruxsatlar

Metanning havo kislorodi bilan bevosita oksidlanishi jarayoni kvazimuvozanatli deb qaraladi.

Boshlang‘ich gaz aralashmasi tarkibiga qo‘yidagilar kiradi:

metan;

atmosfera havosi.

3. Atmosfera havosi qo‘yidagi tarkibga ega:

kislorod -21%;

azot - 79 %.

Metanning havo kislorodi bilan oksidlanishi natijasida qo‘yidagi yakuniy mahsulotlar hosil bo‘ladi: SN_3ON, SO, SO_2, N_2O.

Metanning bevosita oksidlanishi jarayonida kislorodning to‘liq ishga tushishi sodir bo‘ladi.

Metanning oksidlanishi jarayonini tashkil etish metanol bo‘yicha maksimalchiqish xarakteristikalarini ta’minlaydi, ya’ni reaktorninggeometrik xarakteristikalari optimalga muvofiq keladi.

Reaktorning belgilovchi xarakteristikasi sifatida $\boldsymbol{V_{ы}}$qiymati qabul qilingan.

Xulosa

Maqolaga xulosa qiladigan bo‘lsak metanga boshqa uglevodorod gazlari qo‘shilishi jarayonga hech bo‘lmaganda zahar yetkazmasligi, boshqa aralashmalarning oz miqdorda mavjudligi esa reaktorning chiqish xarakteristikalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmasligi tajriba yo‘li bilan aniqlandi. Yuqoridagilardan kelib chiqadiki, aralashmaning oksidlanish jarayoni shartli metanning oksidlanish jarayoni deb qaralishi mumkin bo‘lib, uning umumiy massa

miqdoriboshlang‘ich gaz aralashmasidagi uglevodorod gazlari va vodorodning umumiy massasi bilan belgilanadi. Bu jarayonlar natijalar laboratoriya xulosalariga asoslangan va atmosferaga chiqadigan chiqindi gazlarini biz ilgari surgan laboratoriya qurilmamiz orqali meyyoriy standartga keltirish mumkin haqida keng fikrlar keltirilgan.

Адабиётлар

1.Дубовкин Н.Ф. Справочник по углеводородным топливам и их продуктам сгорания. - М.: Госэнергоиздат, 1962. - 240 с.

2.Зельдович Я.Б. Теория горения и детонации газов. - М.: Изд. АН СССР, 1944.-70 с.

3.Иост В. Взрывы и горение в газах. - М.: Госхимиздат, 1952. - 687 с.

4.Киреев В.А. Краткий курс физической химии. - М.: Химия, 1978. -624 с.

5.Лавров И.В., Шурыгин А.П. Введение в теорию горения и газификации топлива. - М.: Изд. АН СССР, 1962. - 211 с.

6.Льюис Б., Эльбе Г.. Горение, пламя и взрывы в газах / Пер. с нем. - М.: Мир, 1968.-591 с.

7.Курс физической химии / Под ред. Я.И. Герасимова. Т. 2. - М.: Химия, 1966.-321 с.

8.Справочник химика / Под ред. Б.Н Никольского и др. Т. 3. - М.: Химия, 1964.-464 с.

9.Теплоэнергетика и теплотехника. Общие вопросы. Справочник. / Ред. В.А. Григорьев и В.М.Зорин - Изд. 2. - книга I. - М.: Энергоатомиздат, 1987.-456 с.

10.Физическая химия / Ред. К.С. Краснов. - М.: ВШ, 1982. - 688 с.

11.Демидов П.Г., Шандыба В.А., Щеглов П.П. Горение и свойства горючих веществ. -М.: Химия, 1981.-272 с.

Аннотация: В этой статье расматривается промышленности газобетонов и альтернативные источники вяжущих компонентов которые могут конкурировать с товарным газоблоками по основным показателям качества. Приведена сравнительная таблица физико- химическое характеристики газобетона с добавкой КМЦ и расмотрели экономическую эффективность . Полученные результаты свидетельствуют, что испытуемый новый легкий газоблок с добавлением КМЦ показывает улучшенные результаты и характеристики с повышением качества газоблока неавтоклавирования и рекомендована для строителства.

Ключевые слова: неавтоклавный ячеистый газобетон, характеристика газобетона, микрокремнизион ,КМЦ , экономическое эффективность

Annotatsiya: Ushbu maqolada avtoklav bo’lmagan gazobeton ishlab chiqarish sanoati va asosiy sifat ko'rsatkichlari va yuqori bo'lgan raqobatbardosh bog’lovchi komponentlarining muqobil manbalari ko'rib chiqiladi. KMS qo'shilgan gazobetonning fizik-kimyoviy xususiyatlari va iqtisodiy samaradorligi ko’rib chiqiladi va qurilish uchun tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: avtoklavlanmagan gazbeton, gazbetonning xarakteristikasi, mikrokremniy, CMC, iqtisodiy samaradorlik.

Одним из эффективных строительных материалов на сегодняшний день является ячеистый газобетон. Газобетон представляет собой строительный материал, который очень часто используют многие потребители. Из ячеистых бетонов неавтоклавного твердения на современном этапе развития малого и среднего бизнеса востребована технология неавтоклавного пенобетона, преимуществами которой являются малая водоемкость и малая себестоимость продукции. Газобетон неавтоклавного твердения в настоящее время не находит должного применения в связи с отсутствием принципов управления процессами структурообразования композита для обеспечения его высоких эксплуатационных свойств. Решение вопросов эффективного производства и применения ячеистых бетонов возможно на высокопоризованных материалах с заданными характеристиками, полученных с использованием композиционных вяжущих, применение которых обеспечит возведение энергоэффективных ограждающих конструкций с оптимальными техникоэкономическими показателями.

Экспериментальная часть. Нами было изучена характеристики и состав ячеистый неавтоклавного газобетона методика получения газобетона с добавкой карбоксиметилцеллюлозы. Были изучены новый состав с улучшенными характеристиками ячеистого газобетона и ее марки. Испытательной лаборатории СП ООО EAST MINING INVEST» проводились испытания по повышению марки газобетона без автоклавирования с использованием портландцемента производства АО «Кызылкумцемент» г. Навои с добавлением водного раствора КМЦ в цемент, песок, микрокремнезем, сульфат натрия, алюминиевая пудра и каустическая сода.

В качестве сырья было использовано портландцемент ЦЕМ I 52,5 Н ГОСТ 31108-2020 производства АО «Кызылкумцемент» г. Навои, КМЦ производства Ферганского химического завода фурановых соединений,

производственная вода по ГОСТ 23732-79, песок для строительных работ по ГОСТ 8736-93, сульфат натрия по ГОСТ 6318-77, каустическая сода по ГОСТ 2263-79, пудра алюминиевая по ГОСТ 5494-95. Нами было изучена новый метод получения ячеистого газобетона с различным составом карбоксиметилцеллюлоза (КМЦ) и были исследованы их физико химические свойства.

Таблица 1

Состав ячеистого неавтокланого газобетона без КМЦ

	D600	грамм
Цемент,г	1,113	1113
Песок,г	1,092	1092
Вода,г	0,896	896
Алюминиевая Пудра,г.	1,904г.	1,904г
Сульфат натрия,г.	0,0161г.	16,1
Каустическая сода, г.	0,0105	10,5

Масса	795		
Размеры	10	9,7	9,9
Водопоглощения	21,31		
Преломляющая сила	22,79		
Основная поверхность	97		
Обьем	960,3		
марка	819,8276		
Прочность на сжатие	23,95769		

На следующих таблицах приведен состав ячеистого газобетона с добавкой КМЦ с соотношением 3 % (таблица 2)

Таблица 2

Состав газобетона с добавкой КМЦ 3 %

КМЦ 3%			
Масса	785		
Размеры	10	8,5	10
Водопоглощения	21,3197		
Преломляю-щая сила	9,17		
Основная поверхность	85		
Обьем	850		
Марка	923,5294		
Прочность на сжатие	11,00076		

При оптимальных условиях формирования пор в матрице ячеистого бетона развиваются близкими к сферическим. Для облегчения материала, повышения его теплоизоляционных свойств и снижения материалоемкости стремятся получать материалы с объемной макропористостью более 50 % с высокой плотностью распределения пор. Это приводит к взаимодействию пор между собой в процессе их формирования, при отсутствии тотальной коалесценции в материале складывается некоторая пористая макроструктура. Такая макроструктура, состоящая из плотно уложенных сферических пор, носит название упаковки (при высокой объемной пористости, порядка 70...90 %, и определенных свойствах матрицы возможно искажение сферических пор до многогранников.

Объем ячеистой пористости определяется пространственным расположением пор (упаковкой), распределением пор по размерам (сочетанием пор различных размеров), максимальным и средним размером пор, их формой, толщиной межпоровых перегородок.

И прочность высокопористого материала зависит в основном от типа упаковки. Так, например, для газобетона при одинаковых характеристиках межпорового вещества, но с различной макроструктурой прочность меняется в 1,5...2 раза .

На первом и втором таблице приведен стандартный газобетон полученный по ГОСТ 31360-2007, и с добавкой КМЦ 3%. Водная фаза перемещивается интенсивно с КМЦ что получается водный раствор, после чего добавляется в композицию. В этом случае водная фаза равномерно распределяется по всему объему. КМЦ набухает сильно в водной фазе и удерживает внутри пор воды, что остаток воды не может выйти из пор зависить от остатка воды возрастает со временем. В этом случае набухшие водой КМЦ именно помогает удерживать внутри пор воды, что полученный ячеистый газобетон повышеат свою прочность со времени. Наиболее эффективным в этом случае является 3% водный раствор КМЦ, так как водная масса равномерно рапределен по всему объему. Таким образом выявлена, что 3 % водный раствор КМЦ не только дает прочность но и марка ячеистого газобетона увеличивается, что плотность газобетона на ряд повышается и дает экономическую эффективность .В третьем таблицы можно увидеть расчет себестоимости и экономическую эффективность которую прибыльность высокая. Полученные результаты свидетельствуют, что испытуемый новый газоблок с добавлением КМЦ показывает улучшенные результаты и характеристики с повышением качества газобетона без автоклавирования и рекомендована для строителства.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННЫХ ЛИТЕРАТУР

1. Постановление Президента Республики Узбекистан “О дополнительных мерах по ускоренному развитию промышленности строительных материалов” от 23 мая 2019 г, ПП-4335
2. Айрапетов Г.А. Строительные материалы: учебно-справоч. пособие / Г.А. Айрапетов. М.: Феникс, 2009. 699 с
3. Изучение влияния режимов механомагнитной активации водного раствора тиосульфата натрия различных концентраций на свойства цементных композитов / Федосов С.В., Акулова М.В., Слизнева Т.Е., Стрельников А.Н., Падохин В.А. // Вестник БГТУ им. В.Г. Шухова. 2010. №4. С.21–25.
4. Математическая модель процесса активации воды для затворения цементного теста с добавкой КМЦ / Федосов С.В.,Акулова М.В., Слизнева Т.Е., Касаткина В.И. // Ученые записки факультета экономики и управления. Иваново: ИГАСУ, 2009. Вып. 20. С. 201–205.
5. Золауноса при производстве бетонов различного назначения и сухих строительных смесей А. В. Пузатова, М. А. Дмитриева, А. А. Захаров, В. Н. Лейцин https://doi.org/10.33979/2073-7416-2023-109-5-132-147

АХБОРОТ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИДАН ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА ФОЙДАЛАНИШ АСОСЛАРИ

Базар Султанов, Заир Зуфаров

Ўзбекистон давлат санъат ва маданият институти, "Ахборот технологиялари" кафедраси доцентлари

Аннотация: Педагогларнинг касбий фаолиятида АКТ ни қўллаш мамлакатимиз таълим тизимини модернизация қилишнинг асосий йўналишларидан бири саналади. Мақолада ахборот-коммуникация кўникмаси ўқув жараёнига интеграцияси ҳақида сўз кетади.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya ko'nikmalari, malaka oshirish, yangi ta'lim standartlari, ta'lim jarayoniga AKT integratsiyasi

Аннотации: Использование ИКТ в профессиональной деятельности учителей - одно из основных направлений модернизации системы образования страны. В статье рассматриваются информационно-коммуникативные навыки, а также механизмы и методы развития учителейи специальностей.

Ключевые слова: информационные и коммуникативные навыки, повышение квалификации, новые образовательные стандарты, интеграция ИКТ в образовательный процесс.

Abstract: The use of ICT in the professional activities of teachers is one of the main directions of modernization of the education system of the country. The article discusses information and communication skills and the mechanisms and methods of developing this skill in teachers of the humanities.

Key words: information and communication skills, advanced training, new educational standards, integration of ICT into the educational process.

Олий таълим муассасаларидаги ўқув-тарбия жараёнини модернизациялаш, педагог мутахассислар тайёрлаш тизими сифат даражасини оширишда ўқитувчиларнинг касбий компетентлигини ривожлантириш, уларни соҳага оид замонавий касбий билим, малака ва кўникмалар билан қуроллантириш, илмий-техник инновациялардан мустақил равишда, ижодий фойдаланиш ҳамда истиқболли вазифаларни ҳал қила олиш кўникмаларини ривожлантириш муҳим вазифалардан саналади. Бунда таълим босқичларининг ўзаро мазмунан боғлиқлиги, узвийлиги ва узлуксизлигини таъминлаш, олий таълимда ўқув жараёнини ташкил этишнинг илғор педагогик технологияларини жорий қилиш, бу борада ўқув-услубий мажмуалар сифатини таъминлаш, педагогик технологияларни жорий этишда бўлғуси профессор- ўқитувчиларнинг компьютер ва интернетдан фойдаланиш бўйича саводхонлигини доимий ошириб бориш; олий таълимнинг ахборот ресурс ва

замонавий ўқув адабиётлари билан таъминотини янада ривожлантириш, мазкур йўналишларда илғор хорижий тажрибаларни ўрганиш олий таълим муассасалари, хусусан, педагог кадрларининг фаолият йўналишлари таркибини белгилайди.

Бугунги кунги таълими йўналишларидаги мавжуд ўқув режа ва дастурларининг мазмунини қайта ишлаб чиқиш, таълим жараёнида ўқитишнинг самарали шакл ва методларини қўллаш, талабаларнинг ўқув-услубий тайёргарлигини кучайтириш, касбий маҳоратини ошириш шартшароитларини шакллантириш каби муаммоларни ечиш учун мазкур йўналишда илмий тадқиқот ишини олиб боришни тақозо этади. Шунинг асосида бўлажак фани ўқитувчиларининг касбий-педагогик тайёргарлиги даражасини ошириш, илғор педагогик технологияларга асосланган замонавий таълим-тарбиянинг методологик асосларини ишлаб чиқиш зарурияти мавжуд. Бу эса, ўз навбатида, бўлажак фан ўқитувчисини янги педагогик технологиялар асосида тайёрлаш жараёнида, энг аввало, технологик ёндашувнинг хусусиятларини, асосий тавсифий белгилари (тузилма ҳамда функциялари)ни, уларга таъсир қилувчи омилларни аниқлашни назарда тутади.

Ахборот-коммуникация технологиялари ҳар бир босқичда ўқитувчининг энг яқин ёрдамчиси, малакали педагогнинг дарсга тайёргарлик кўришидан тортиб, уни сифатли, қизиқарли ва натижали ўтказишгача бўлган барча жараёнларда энг қулай воситасидир. Ўқитувчи дарсга тайёргарлик кўришда компьютер орқали дидактик, тарқатма материаллар, кўргазмали қуроллар, слайд ва дарс ишланмаларини тайёрлаши, интернет ёрдамида эса уларни турли қўшимча маълумотлар, қизиқарли сурат, аудио, видео лавҳалар билан бойитиши мумкин. Дарс жараёнида ахборот-коммуникация технологиялари ўқувчилар дунёқараши, билим ва кўникмаларини кўриш, эшитиш ва мустақил бажариш орқали ривожлантиришга кўмаклашади. Тадқиқотчиларнинг фикрига кўра, педагогларда ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш муаммоси, ҳозирги кунда таълим тадқиқотчилари томонидан нафақат қийин, балки ноаниқ ечимини топмаган вазифа деб эътироф этилади.

Бу муаммони ечишнинг асосий шарти – педагогнинг АКТ воситаларидан фойдаланган ўқув жараёнини яратишга тайёрлиги. Ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасидаги мулоқот намунасининг ўзгариши инновацион фаолият шартларидан биридир. Иннавацион кўникма қуйидаги асосий функциялар билан изоҳланади:

-касбий фаолиятнинг АКТ воситаларидан фойдаланган шаклдаги таҳлили

-меъёрларга нисбатан танқидий ёндашув
-АКТ ва касбий янгиликларни қабул қилишга тайёргарлик
-ўз имкониятларини рўёбга чиқариш, интилишларини касбий фаолиятида мужассамлаштириш.

Ахборот-коммуникация кўникмасига эга педагог шу қадар кўп ахборотга эгаки, ахборотларни янги ахборот-коммуникация технологияларисиз ишлов бериши ва ишлатиши мумкин эмас. Таълим сиёсатининг ҳозирги асосий мақсади таълим олувчи шахс, жамият ва давлат эҳтиёжларини қондирувчи муҳим ва келажакдаги ривожи учун зарур юқори самарадорликка эга бўлган замонавий таълим беришга қаратилган. Педагогларнинг касбий омилкорлигини ривожлантириш учун уларни фаолиятининг биринчи кунлариданоқ қўшимча педагогик таълимга жалб қилиш лозим.

Катта хажмдаги ахборот ва билимни бера оладиган АКТ нинг пайдо бўлиши билан таълим ва ўқитиш соҳасида бу борада махсус кўникмага эга бўлишга талаб пайдо бўлди. Бугун АКТ ни педагогик жараёнга татбиқ этиш зарурияти кундан кунга мужассам бўджи. Аммо, афсуски, АКТ асосидаги инновацион методлардан фойдаланиш ўқув фаолиятини енгиллаштириш ва оптималлаштириш ўрнига, уни мураккаблаштириб, ортиқча юклама берилади. Бу каби хатоларни қилмаслик учун компьютер воситаларидан методик ва аниқ мақсадга асосланган ҳолда фойдаланиш ўқув жараёнига АКТ ни муваффақиятли интеграция қила олиш ҳисобига амалга ошиши керак.

Шунингдек, ўқитувчиларда ахборот-коммуникация кўникмасини ривожлантириш учун малака ошириш дастурларини ҳам инобатга олиш лозим.

Ушбу дастурлар ўзида қуйидагиларни мужассам қилиши керак:

- АКТ жаҳон стандартларига жавоб бериши;

- янги кўникма ва билимларни беришга эмас, таълимда аниқ ўзгаришлар қилишга йўналган бўлиши;

- ўқитувчига ўзининг интеграциялашган муҳитини яратишга ёрдам бериши (бунда турли хил сайтлар, ижтимоий гуруҳларга аъзо бўлиш, блоглар яратиш назарда тутилмоқда)

-педагогларга мониторинг ва касбий мулоқатни яратиб бериши лозим.

Дарснинг ҳар бир босқичида ўтилган мавзуларни такрорлаш ва мустаҳкамлаш, янги билимлар баёни, амалий машғулотлар лаборатория ишларини бевосита ахборот технологиялари ёрдамида қисман ёки бутунлай амалга ошириш имконияти мавжуд.

Бунинг учун эса педагогларга ахброт-коммуникация кўникмасини эгаллашга озгина вақт ва қунт талаб этилади, холос. Шу йўл билан ўқитувчи энг катта мақсадига эришади, ўқувчиларга сифатли таълим беради, уларни катта ҳаётга тайёрлайди.

Педагогнинг ахборот-коммуникация кўникмаси – ўз ичида янгиликни таҳлил қилиш ва унга баҳо бериш, келгусидаги ҳаракатларининг мақсади ва концепциясини шакллантириш орқали рўёбга чиқади. Ушбу режани амалга ошириш ва таҳлил қилиш, самарадорликка баҳо беришни қамраб олади. Ёшларнинг интеллектуал салоҳиятини оширишнинг негизида уларнинг ижодий фикрлаш қобилиятларини ривожлантириш ётади. Ёшларнинг ижодий фикрлаш қобилиятларини ривожлантиришда педагог томонидан олиб борилаётган АКТ интеграция машғулотларнинг аҳамияти беқиёсдир. Дарс педагог ва талаба муносабатларининг ташкилий шакли бўлиб, унда ўқитувчининг ахборот- коммуникация кўникмаи талабаларнинг ижодий фикрлашга ундовчи омил ҳисобланади. Ёшларнинг АКТ асосида фикрлаш қобилиятини ривожлантиришни қуйидаги тамойилларини алоҳида эътироф этиш мумкин:

-мақсадга эришишнинг турли йўлларини изълашга интилишини ўргатиш;

-мақсадни амалга ошириш учун машқ қилдиришга ўргатиш;

-муаммони аниқлашга ўргатиш;

-фикрни мақсадга мувофиқ йўллай олишга ўргатиш;

-фараз, фантазия қила олишга ўргатиш;

-ишонарли хулоса чиқаришга ўргатиш;

-янги ғояларга мойилликни шакллантириш.

Таълимда ўқитувчининг ахборот-коммуникация кўникмасини шакллантириш қуйидаги ўзгаришларга олиб келади:

- педагогик тизимнинг тамомила ўзгариши;
- ўқув жараёнининг ўзгариши;
- педагогик назариянинг ўзгариши;
- ўқитувчи фаолиятининг ўзгариши;
- ўқувчи (талаба) фаолиятининг янгиланиши; - педагогик технологиянинг ўзгариши;
- таълим мазмунининг янгиланиши;
- ўқитиш шакл, метод ва воситаларининг ўзгариши;
- таълим тизими бошқарувнинг ўзгариши;
- таълим мақсади ва натижаларнинг ўзгариши.

Ахборот-коммуникация кўникмасидан самарали фойдаланиш асосида янги технологик жараён ёки янги такомиллаштирилган ўқув машғулоти ташкил этилади.

Бугунги кунда педагогларнинг ахборот-коммуникация кўникмасига эга бўлишлари муҳим аҳамиятга эга. Педагоглар томонидан бу кўникмани ўзлаштира олишларида уларнинг инновацион ёндашувга эга бўлишлари талаб этилади. Ўз моҳиятига кўра педагоглар томонидан инновацион фаолият кўникма, малакаларининг ўзлаштирилиши уларда инновацион ёндашувни қарор топиши асосида кечади. Педагогларда ахборот-коммуникация кўникмасининг қарор топиши ҳам муракаб жараён бўлиб, у бир неча босқичда кечади.

Булар тайёр методик тавсиянома (мавжуд инновация)лардан фойдаланилиш, мавжуд тизимга янги ғояларни, методларни киритиш, янги ғояни амалга ошириш мазмуни, шакл ва методларини тизимлаштириш ва сўнгги босқичда педагогнинг ўқитиш ва тарбиялашга оид ўз концепцияси ёки методикасини яратишдан иборатдир.

Республикамизда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотларнинг тадрижий ривожланиши ва иқтисодиётида кечаётган интеграциялашув жараёнлари мутахассислардан иқтисодий билимларга эга бўлиш билан бир қаторда ахборот-коммуникация соҳасида, унинг объекти ва субъектлари, жорий қилиш тамойиллари, бу борада жаҳон такомиллаштирилган воситалари, уларни бевосита молиявий жараёнларга қўллаш ҳақидаги кенг кўламли билимлар ва бевосита турли русумдаги компьютерларда ишлаш малакаларига эга бўлишни тақозо этади. Иқтисодий фанларни ўқитишда ахборот-коммуникация ва интернет технологияларидан фойдаланиш жараёни ўқувчиларнинг қизиқувчанлигини, мустақил ишларнинг самарадорлигини оширади. Ахборотком муникация ва интернет технологияларидан фойдаланиш билан биргаликда таълим соҳасида, ўқувчиларнинг ўқиш ва ижодкорлигида янги имкониятларни тақдим этади. Илк бор таълимда ахборот технологиясини қўллашда шахс бўлажак касбининг асосий инструменти бўладиган вазият вужудга келади. Иқтисодий фанларни ўқитишда ахборот-коммуникация ва интернет технологияларидан фойдаланишнинг мақсади бир томондан талабаларга ахборот технологиялари орқали таълим бериш имкониятларини ўргатиш, иккинчи томондан таълимда ахборот технологиясининг аппарат инструментал ва дастурий воситалари билан танишишдан иборат.Замонавий ахборот-коммуникация технологиялари ёрдамида таълим жараёнини амалга ошириш қуйидаги муаммо ва масалаларни ҳал этишга олиб келади:

✓ кенг кўламли коммуникация ва глобаллаштиришга асосланган замонавий ахборотлаштирилган жамият шароитидаги илмий педагогик, услубий, норматив-технологик ва техник хулосаларга кўра таълимни ривожлантиришни аниқлаштириш;

✓ кенг кўламли коммуникация ва глобаллаштиришга асосланган замонавий ахборотлаштирилган жамият шароитидаги таълим моҳиятини танлаб олиш базаси, мос масалаларга кўра ўрганувчининг шахсини ривожлантириш учун тарбиялаш, ўқитиш усуллари ва ташкилий шаклларини яратишни мукаммаллаштириш;

✓ ахборот-коммуникация технологияларини қўллашдаги таълимнинг барча бўғинлари, жумладан ўқитишнинг усул ва воситалари, инновацион моделлари ва мавжуд педагогик технологияларни асослаш ва яратиш;

✓ ўрганувчи (талаба)нинг интеллектуал потенциалини ўстиришга йўналтирилган ўқитишнинг услубий тизимини ишлаб чиқиш керакки, булар талабага мустақил равишда билимларини жамлаш, маълумотлар ресурсини териш, қайта ишлаш, узатиш, сақлаш фаолиятини амалга оширишга имкон яратиш;

✓ таълимга тегишли тадқиқотлар, электрон воситаларни кўргазма прототипларини ишлаб чиқиш, жумладан дастурий инструментал восита ва тизимларни яратиш ҳам бунга киради.

Таълимни ахборотлаштириш ва замонавий ахборот технологияларидан фойдаланиш жараёни ўқитишдаги ташкилий шакллар ва методларнинг ўзгаришигагина эмас, балки ундаги янги методларнинг шаклланишига олиб келади.

Адабиётлар

1. Khudayberdiev, S. A., Zufarov, Z. M., Tillyashaykhova, M. A., & Samigova, G. A. (2021). Distance education as an innovative technology. *Asian Journal of Multidimensional Research*, *10*(4), 242-247.
2. Kurbanova, A. T., Zufarova, Z. M., Xudayberdiyev, S. A., Tillashayxova, M. A., & Samigova, G. A. (2022). The role of the software in the development of information and communicative competence of students of culture and art. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 2741-2749.
3. Sultonov B., Xudayberdiyev S.A., Tillyashayhova M.A., Samigova G.A., Zufarov Z.M. Designing an Algorithm for Automated Analysis of Completed Tasks in a Mobile Learning System. International Journal of Membrane Science and Technology 2023, Vol. 10, No. 2

MAHALLIY HOM ASHYO ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN NATRIY SILIKAT PENTAGIDRAT ($Na_2SiO_3 \cdot 5H_2O$) INFRAQIZIL SPEKTRI TAHLILI

Raxmatov Marat Salimovich
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
Email.mrahmatov@mail.ru

Аннотация: В данной статье рассматривается разработка и создание технологии получения пентагидрата силиката натрия из отечественного жидкого стекла. Пентагидрат силиката натрия – важное соединение, находящее применение в различных отраслях, включая строительство, стекольную и химическую промышленность. Однако, благодаря усилиям группы ученых и инженеров, была разработана оптимизированная и экологически дружественная технология получения пентагидрата силиката натрия из отечественного жидкого стекла с использованием местных ресурсов. Это открытие предоставляет перспективы для развития строительной промышленности и смежных областей, а также способствует экономическому росту страны и научно-техническому сотрудничеству с зарубежными партнерами.

Ключевые слова: пентагидрат силиката натрия, добыча, технология, бытовое жидкое стекло, строительные материалы, промышленность, химические соединения, синтез. ИК спектр

Abstract: This article discusses the development and creation of a technology for producing sodium silicate pentahydrate from domestic liquid glass. Sodium silicate pentahydrate is an important compound used in various industries, including construction, glass and chemical industries. However, thanks to the efforts of a group of scientists and engineers, an optimized and environmentally friendly technology for producing sodium silicate pentahydrate from domestic liquid glass using local resources was developed. This discovery provides prospects for the development of the construction industry and related fields, and also contributes to the country's economic growth and scientific and technical cooperation with foreign partners.

Key words: sodium silicate pentahydrate, extraction, technology, household liquid glass, building materials, industry, chemical compounds, synthesis. IR spectrum

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy suyuq shishadan natriy silikat pentahidrat ishlab chiqarish texnologiyasini ishlab chiqish va yaratish muhokama qilinadi. Natriy silikat pentahidrat qurilish, shisha va kimyoviy moddalar kabi turli sohalarda qo'llaniladigan muhim birikma. Biroq bir guruh olim va muhandislarning sa’y-harakatlari tufayli mahalliy resurslardan foydalangan holda mahalliy suyuq shishadan natriy silikat pentagidrat olishning optimallashtirilgan va ekologik toza

texnologiyasi ishlab chiqildi. Ushbu kashfiyot qurilish industriyasi va unga aloqador sohalarni rivojlantirish istiqbollarini ta'minlaydi, shuningdek, mamlakatning iqtisodiy o'sishiga va xorijiy hamkorlar bilan ilmiy-texnikaviy hamkorlikka hissa qo'shadi.

Kalit so'zlar: natriy silikat pentagidrat, ishlab chiqarish, texnologiya, maishiy suyuq shisha, qurilish materiallari, sanoat, kimyoviy birikmalar, sintez. IQ spektri

Kirish. Texnologik innovatsiyalar har bir sohada ishlab chiqarishning asosiy harakatini boshqaradi. Barqaror rivojlanish va iqtisodiy o‘sishda tadqiqot va ishlanmalar alohida o‘rin tutadi. Bu barcha davrlarning eng ilg'or misollaridan biri - shisha asosidagi natriy silikat pentahidratni kashf qilish va ishlab chiqarishni ta'minlash qobiliyati.

Suyuq shisha natriy silikatning suvli shakli bo'lib, u o'ziga xos fizik va kimyoviy xossalari tufayli ko'plab sohalarda qo'shimcha sifat hisoblanadi. U 19-asrning o'rtalarida kashf etilgan va shundan beri qurilish, metallurgiya, keramika va o't materiallari kabi sohalarda keng qo'llanilgan. Yordam bering, shishaning ahamiyati bu sohalar bilan cheklanmaydi.

Mahalliy xomashyo asosida natriy silikat pentahidrat ishlab chiqarish sohasidagi innovatsion texnologiyalar zamonaviy ilm-fan va sanoat taraqqiyotining yorqin namunasidir. Katta imkoniyat va istiqbollarga qaramay, ilgari mahalliy resurslardan foydalangan holda ushbu birikmani ishlab chiqarish bo‘yicha faol tadqiqotlar olib borilmagan. Bu esa milliy iqtisodiyotga sezilarli salbiy ta’sir ko‘rsatib, ushbu moddani chetdan import qilish zaruratini yuzaga keltirdi.

Biroq, so‘nggi yillarda bu holat tubdan o‘zgardi. Ilmiy-tadqiqot institutlari va sanoat korxonalarining iqtidorli olimlari hamda muhandislaridan tashkil topgan jamoalar birgalikda mahalliy suyuq shishadan natriy silikat pentahidrat olish texnologiyasini ishlab chiqish ustida ish boshladilar. Ular bir qator texnik va kimyoviy qiyinchiliklarni bartaraf etishga muvaffaq bo‘lib, ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirishda katta yutuqlarga erishdilar.

Mazkur kashfiyot turli sohalardagi olimlar va muhandislarning samarali hamkorligi mahsuli bo‘lib, fanlararo yondashuvning naqadar muhimligini yana bir bor tasdiqladi. Mahalliy suyuq shishadan natriy silikat pentahidratni sintez qilish jarayoni optimallashtirilib, texnologiya iqtisodiy jihatdan qulay va ekologik toza ekanligi bilan ajralib turadi.

Mazkur texnologiyaning amaliy joriy qilinishi qurilish sanoati va unga aloqador tarmoqlar uchun yangi ufqlarni ochadi. Natriy silikat pentahidrat:

- Bog‘lovchi vosita sifatida ishlatiladi va bardoshli materiallar yaratishga imkon beradi.

- Kimyo va shisha sanoatida keng qo‘llanilib, ishlab chiqarishni yanada samaraliroq qiladi.
- Qurilish aralashmalarida foydalanish orqali mustahkam va chidamli inshootlarni barpo etishga yordam beradi.

Natriy silikatni olish va uning tarkibini tahlil qilishda adabiyotlar tahlili va usullari

Natriy silikat (Na_2SiO_3) ishlab chiqarish, uning tarkibini aniqlash va qo‘llanilishi sohasida ilmiy adabiyotlar va usullarning tahlili muhim o‘rin tutadi. Ushbu jarayon natriy silikatning sifatini yaxshilash, ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirish va iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun zarurdir.

Adabiyotlar tahlili va usullari

Adabiyotlar tahlilida ko‘rib chiqiladigan asosiy yo‘nalishlar Natriy silikat olish texnologiyasi.

Issiqlik usullari: Kvars qumi (SiO_2) va natriy karbonat (Na_2CO_3) reaksiyasi yuqori haroratda (~1400°C):

$$Na_2CO_3+SiO_2 \rightarrow Na_2SiO_3+CO_2$$

Ushbu jarayon sodda, lekin energiya sarfi yuqori.

Suyuqlantirish usuli:

Natriy gidroksid (NaOH) va kvars qumi (SiO_2) reaksiyasi:

$$2NaOH+SiO_2 \rightarrow Na_2SiO_3+H_2O$$

Bu usul energiya samaradorligi va ekologik tozaligi bilan ajralib turadi.

Mahalliy xomashyolardan foydalanish: Tabiiy resurslar (masalan, tosh tuzlari va mahalliy qum) asosida ishlab chiqarish texnologiyasini optimallashtirish.

Natriy silikat tarkibini tahlil qilish usullari

Kimyoviy tahlil: SiO_2 va Na_2O nisbati aniqlanadi. Suvda eruvchanlik va gidratsiya darajasi o‘lchanadi.

Spektroskopik usullar: **Infraqizil spektroskopiya**: Si–O–Si va Na–O bog‘lanmalarining tebranishlarini aniqlash.

Rentgen diffraksiyasi : Silikatning kristall tuzilmasi yoki amorf xususiyatlarini o‘rganish.

Spektroskopiya: Molekulyar struktura va gidratsiya darajasini o‘rganish.

Termogravimetrik tahlil : Gidratlangan silikatning suv yo‘qotish dinamikasini aniqlash.

Elementar tahlil : Natriy, kremniy va kislorodning miqdoriy tarkibini aniqlash.

Tahlil usullari va ularning o‘ziga xosliklari Kimyoviy analiz usullari

Titrimetriya: SiO_2 va Na_2O miqdorini aniq o‘lchash uchun ishlatiladi.

Gravimetriya: Kremniy dioksidning miqdorini tortish orqali aniqlash.

Spektroskopik usullar Infraqizil spektroskopiya:

Si–O va Na–O bog‘lanmalarining tebranish chastotalarini o‘rganadi.

Tahlil natijalari natriy silikatning molekulyar strukturasi va gidratsiya darajasi haqida ma’lumot beradi.

Rentgen diffraksiyasi: Moddaning kristallik darajasini aniqlashda qo‘llaniladi. Kristall va amorf fazalar o‘rtasidagi nisbatni o‘lchash mumkin.

Termik usullar (termogravimetrik analiz):

Moddaning qizdirilganda suv yoki boshqa uchuvchan moddalardan ajralishini kuzatadi. Gidratlangan natriy silikat tarkibini aniqlashda qo‘llaniladi.

Natijalar

Natriy silikat pentagidrat ($Na_2SiO_3 \cdot 5H_2O$) infraqizil spektr tahlili; Uning kimyoviy tuzilishini va molekulyar bog‘lanishlarini o‘rganish uchun muhim usullardan biridir. Infraqizil tahlil molekuladagi funksional guruhlar va ularning vibratsion harakatlarini aniqlashga yordam beradi.

Natriy silikat pentagidratning IQ spektri xususiyatlari

Infraqizil spektrda quyidagi asosiy tebranishlar va ularning xususiyatlari kuzatiladi:

1. Si–O–Si bog‘lanishi tebranishlari

- **Simmetrik va assimetrik cho‘zilish tebranishlari**:
  - Si–O–Si guruhi infraqizil diapazonda kuchli so‘rilish chiziqlarini beradi.
  - **Assimetrik cho‘zilish**: ~1000–1200 sm^{-1}
  - **Simmetrik cho‘zilish**: ~700–800 sm^{-1}
  - Bu tebranishlar kremniy kislorod bog‘lanmalarining tarkibiy mustahkamligini aks ettiradi.

2. Si–OH bog‘lanishi tebranishlari

- **Si–OH cho‘zilish tebranishlari**:
  - Suv molekulalari va silikat tarkibidagi gidroksil guruhlar orqali hosil bo‘lgan vodorod bog‘lanishi.
  - Infraqizil diapazonda ~3300–3700 sm^{-1} oralig‘ida keng chiziq ko‘zga tashlanadi.
  - Bu chiziqlar suv molekulalarining mavjudligini tasdiqlaydi.

3. H_2O molekulalarining tebranishlari

- **O–H cho‘zilish tebranishlari**:
  - Suv molekulalaridagi O–H bog‘lari infraqizil diapazonda ~3200–3500 sm^{-1} oralig‘ida keng so‘rilish chiziqlarini beradi.

- Bu keng chiziqlar vodorod bog‘lanishlarining mavjudligi va suv molekulalarining miqdoriy ulushini ko‘rsatadi.

- **H–O–H deformatsion tebranishlari**:
- Suv molekulalarining bukilish tebranishlari ~1600–1650 sm^{-1} oralig‘ida joylashgan.
- Ushbu so‘rilish chiziqlari pentagidratning tarkibida suvning barqaror bog‘langanligini ko‘rsatadi.

4. Na–O bog‘lanishlari tebranishlari

- **Na–O tebranishlari**:
- Natriy ionlarining kislorod bilan bog‘lanishi nisbatan past energiyali diapazonda (~400–600 sm^{-1}) kuzatiladi.
- Ushbu chiziqlar natriy ionlari va SiO_3 guruhlari o‘rtasidagi muvozanatli bog‘lanishlarni ifodalaydi.

Natriy silikat pentagidratning infraqizil tahlilining ahamiyati

1. Kimyoviy tarkibni tasdiqlash

Infraqizil tahlil orqali natriy silikat pentagidratning tarkibidagi:

- Si–O–Si bog‘lanmalari,
- Suv molekulalari (H_2O),
- Si–OH guruhlari mavjudligi tasdiqlanadi.

2. Suvning miqdorini aniqlash

- Infraqizil spektrdagi suv molekulalariga tegishli chiziqlar (3200–3500 sm^{-1} va 1600–1650 sm^{-1}) orqali suvning pentagidratdagi ulushi miqdoriy aniqlanadi.

3. Struktura va mustahkamlikni baholash

- Silikatning strukturaviy barqarorligini ko‘rsatuvchi Si–O–Si va Si–OH bog‘lanish chiziqlarining intensivligi tahlil qilinadi.

Infraqizil tahlil bo‘yicha xulosa

Natriy silikat pentagidratning infraqizil spektri uning tarkibiy tuzilmasidagi:

- Silikat skeleti (Si–O–Si),
- Gidroksil guruhlar (Si–OH),
- Suv molekulalari (H_2O),
- Natriy ionlari (Na^+) bilan bog‘lanishlarni aniq tasvirlaydi.

Bu tahlil natriy silikat pentagidratning sof tarkibini va suv molekulalari bilan bog‘lanish darajasini aniqlash uchun samarali vositadir.

Xulosa

Natriy silikat pentahidratni olishning mahalliy texnologiyasining yaratilishi milliy fan va sanoat rivoji uchun muhim qadamdir. Ushbu texnologiya:

- Milliy iqtisodiyotga barqarorlik va rivojlanish olib keladi.

- Atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytiradi va ekologik muammolarni hal qilishga xizmat qiladi.
- Qurilish va boshqa sanoat tarmoqlari uchun yangi istiqbollarni ochadi.

Izlanishlarni davom ettirish va ushbu texnologiyani jahon miqyosida rivojlantirish orqali uni raqobatbardosh qilish mumkin. Bu esa mamlakatning xalqaro ilmiy-texnik maydonda o‘z mavqeini oshirishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalarning amaliy qo‘llanilishi barqaror iqtisodiyotni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar ro‘yxati

1. Пономарева М. А. Термодинамические характеристики сорбции анионных комплексов редкоземельных элементов: дис. –Санкт-Петербург, 2014.–136 с, 2014.
2. Кугач В. В. Курс лекций по аптечной технологии лекарственных средств //Витебск, ВГМУ-2012.-349 с. – 2010.
3. Степанова Н. А., Орехова Д. С., Чиркин А. А. Организация учебно-исследовательского эксперимента по химии в лечебно-профилактических и общеобразовательных учреждениях на радиационно-загрязненных территориях. – 2021.
4. Горлушко Д. А. и др. Синтез оксида меди для катализаторов конверсии монооксида углерода. – 2019.
5. Степанова Н. А. Химический синтез и технология с основами химии окружающей среды. – 2016.
6. Нарзиев М. и др. АНАЛИЗ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ ПРОИЗВОДСТВА ПЕНТАГИДРАТА СИЛИКАТА НАТРИЯ //ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 58-65.
7. Рахматов М. С., Бердиева З. М., Адизова Н. З. Перспективы атмосферных оптических линий связи нового поколения //Современные материалы, техника и технология. – 2013. – С. 134-135.
8. МАВЛАНОВ Б. А., АДИЗОВА Н. З., РАХМАТОВ М. С. изучение бактерицидной активности (со) полимеров на основе (мет) акриловых производных гетероциклических соединений //Будущее науки-2015. – 2015. – С. 207-209.
9. Рахматов М. С. Влияние катализатора, температуры и растворителя на синтез и выход продукта реакции с виниловым эфиром салициловый кислоты в присутствии винилацетилена //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 16-20.

10. Рахматов М. С., Рамазанов Б. Г. Исследование синтеза и изучение свойств дивиниловых эфиров салициловой кислоты //Universum: технические науки. – 2021. – №. 12-5 (93). – С. 51-55.
11. Salimovich R. M., Shavkatovich P. N. Synthesis and study of properties of salicylic acid products //ΛΌΓΟΣ. – 2020. – С. 25.
12. Шарипов, М. С., Ганиев, Б. Ш., Икромов, У. Г., & Салимов, Ф. Г. (2020). ОПТИЧЕСКИЕ СВОЙСТВА ПОЛИМЕРНЫХ КОМПОЗИТНЫХ ПЛЕНОК, НАПОЛНЕННЫХ НАВБАХОРСКОМ БЕНТОНИТОМ. In Химическая технология и техника (pp. 215-217).
13. Шарипов, М. С., Ганиев, Б. Ш., Икромов, У. Г., & Салимов, Ф. Г. (2020). Оптические свойства полимерных композитных пленок, наполненных Навбахорском бентонитом.
14. Рахматов М. С., Норова М. С., Давлатов И. Х. Проблемы перспективных материалов для техники и технологии //Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. – 2014. – С. 342-344.
15. Ostonov Firuz, Akhmedov Vohid. Synthesis of ionites based on cremnisole // Universum: технические науки. 2022. №4-13 (97).

САНОАТНИНГ КИМЁВИЙ ТОЛАЛАРИ ВА УЛАРНИНГ СОРБЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИНИ ЎРГАНИШ

Сафаров Б.Ж.

Бухоро муҳандислик-технология институти

Аннотация. Ушбу мақолада турли хилдаги кимёвий толалар ва полимерларни микроғовакларнинг суюқликлар билан ҳажмий тўлдирилишини (1) тенгламаси орқали ҳисоблаб топиш орқали полимерларда турли модда буғларнинг сорбцияси ўрганилди ва полимерларни сорбатлар сифатида таснифлаб, тенглама константалари орқали миқдорий улушлари тавсифланади.

Калит сўзлар:тола, полимер, сорбция, микроғовак, изотерма, адсорбент, фаол материаллар, Гибсс–Дюгем эритмалари, статик тенглама, аморф, инерт, комбинацион энтропия, циклогексан, ацетон, поливинилхлорид, политриметилолпропанфталат толаси.

Аннотация. В данной статье изучена сорбция паров различных веществ в полимерах путем расчета объемного заполнения микропор жидкостями различных химических волокон и полимеров по уравнению (1), а количественные доли полимеров классифицированы как сорбаты и их количественные соотношения. описывались с помощью констант уравнения.

Ключевые слова: волокно, полимер, сорбция, микропора, изотерма, адсорбент, активные материалы, растворы Гиббса–Дюгема, уравнение статики, аморфное, инертное, комбинаторная энтропия, циклогексан, ацетон, поливинилхлорид, политриметилолпропан-фталатное волокно.

Annotation. In this article, the sorption of vapors of various substances in polymers is studied by calculating the volumetric filling of micropores with liquids of various chemical fibers and polymers according to equation (1), and the quantitative fractions of polymers are classified as sorbates and their quantitative ratios. the equations were described using constants.

Keywords: fiber, polymer, sorption, micropore, isotherm, adsorbent, active materials, Gibbs–Dugem solutions, static equation, amorphous, inert, combinatorial entropy, cyclohexane, acetone, polyvinyl chloride, polytrimethylolpropane-phthalate fiber.

Маълумки, ҳозирги кунда кимё саноати маҳсулотларидан фойдаланилмайдиган саноатни тасаввур қилиш қийин. У хом ашёни кимёвий қайта ишлаш технологиясидан фойдаланишга асосланган барча тармоқларни ўз ичига олади. Кимёвий элементлар, моддалар ва материаллар деярли ҳамма жойда – машинасозлик, халқ хўжалиги, тиббиёт ва фармацевтикада қўлланилади. Маҳсулотларнинг сифати хом ашё, материал ва ишлаб чиқариш

технологиясига боғлиқ. Кимёвий толаларнинг пайдо бўлишининг сабаби аҳолининг кўпайиши ва натижада талабнинг ошишига олиб келган бўлса, бу эса ўз навбатида табиий толаларни ишлаб чиқариш кўламининг меъёрдан орқада қолишига олиб келди. Шу муносабат билан кимёвий усуллар ёрдамида толаларни кўп миқдорда олишга имкон пайдо бўлди. Бугунги кунда кимёвий толалар ва полимерлар ишлаб чиқариш технологияси тобора кенг тарқалиб, ундан турли-туман маиший ва саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарилмоқда.

Техник мақсадлар учун толали материалларнинг янги авлодини яратиш, хусусан сорбсион-фаол моддалар ва улардан фойдаланиш, юқори технологияларни жорий этиш асосида долзарб экологик муаммоларни ҳал қилишга имкон бериш натижасида кимё саноатини ривожлантириш муҳим истиқболли йўналиши ҳисобланади. Атроф-муҳит мониторинги ва уни муҳофаза қилиш асносида бундай материаллардан фойдаланишда инсон саломатлигини муҳофаза қилиш ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланиш учун шароит яратади.

Атроф-муҳитга тизимли техноген таъсир этиш натижасида умумий экологиянинг ёмонлашишига олиб келди, шунинг учун атроф-муҳит ва инсонни муҳофаза қилиш бизнинг давримизнинг долзарб вазифаларидан бирига айланди. Айрим тармоқларда ресурсларни тежайдиган технологиялар, шу жумладан уларнинг фаолиятининг экологик хавфсизлигини таъминлаш воситалари яратилганига, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш тузилмаларидан кенг фойдаланишга ва ушбу фаолият соҳасида Қонунчилик тизимини такомиллаштиришга қарамай, экологик вазият жуда ноқулай бўлиб қолмоқда.

Экологик муаммоларни ҳал қилишда сорбция материалларини, хусусан, полимер толали хемосорбентларни ишлаб чиқиш ва қўллаш муҳим ўрин тутади. Шу билан бирга, бундай истиқболли экологик технологияларни яратиш учун зарур шартлардан бири толали сорбентларнинг сорбция хусусиятлари ҳақида тўлиқ маълумот олишдир. Бироқ, бугунги кунга қадар бу масалалар етарлича ўрганилмаган. Юқори молекуляр бирикмаларни олиш соҳасидаги кўплаб тадқиқотлар сорбция-фаол толаларнинг хусусиятларини ўрганишга бағишланган.

Функционал фаол гуруҳларни киритиш, чидамли ва мустаҳкам толалаларни ишлаб чиқаришга олиб келади. Шу муносабат билан толали хемосорбентларни олиш ва уларнинг сорбция хусусиятларини ўрганиш соҳасидаги тадқиқотлар долзарб бўлиб қолмоқда. Бундан ташқари, улардан таркибий материаллар олиш сифатида кўпинча сорбция-фаол материллар олишда ҳам ишлатилмоқда. Шу муносабат билан уларнинг физик-кимёвий хоссалари, ҳарорат таъсирлари ҳамда сув буғининг сорбцияланиш

қонунларини билишни ҳам тақозо этмоқда. Бироқ, полимерлар томонидан сув буғининг ютилишини ҳисоблашнинг муҳандислик усуллари деярли йўқ, микроғовакли сорбентларда шунга ўхшаш жараён яхши ривожлангани [1] қайд этилган. Сувда бўкиб шишган полимерларни буғ сорбциясида ҳосил бўладиган микроғовакларни ҳажмий тўлдириш тенгламасини қуйидагича тасвирлаш мумкинлиги [2] кўрсатилган:

$$a=a_0\, exp(-(-\Delta G|E)^n-\alpha(T-T_0)) \qquad (1)$$

бу ерда a: T- ҳароратда ва h-нисбий босимда сорбция қиймати; a_0 эса T_0 ҳароратда максимал сорбция қиймати бўлиб, сувда бўкиб шишган полимерлар ҳолатида ёки эрувчан полимерлар учун сорбция изотерма параметри; $\Delta G = RT$, h- Гиббснинг озод энергияси; E ва n модданинг характерли сорбция энергияси.

Бундай тизимларга микроғовакларни ҳажмий тўлдириш тенгламасини қўллаш, полимерлар ва микроғовакли адсорбентларда сорбция жараёнларининг термодинамик жиҳатдан ўхшашлиги асосида асосланиши мумкин. Бунинг учун Гибсс дифференциал тенгламасини кўриб чиқамиз:

$$dU = TdS + \Sigma Y_i\, dy_i + \mu_1 dm_1 + \mu_2 dm_2\,, \qquad (2)$$

бу ерда: U, T, S-бу тизимнинг ички энергияси, ҳарорати ва энтропияси; Y_i, y_i-бу мувофиқ ҳолда умумлаштирилган кучлар ва координаталар; μ_1, μ_2, m_1, m_2, - сорбат ва толанинг ўзига хос кимёвий потенциаллари ва уларнинг массалари.

Тенглама (2) *ни* қатъий термодинамик жиҳатдан қараш ва сирт таранглик кучини ҳамда босимни ҳисобга олганда, микроғовакларда адсорбция пайтида Гибсснинг адсорбцион тенгламасини қўллаб бўлмайди, балки унинг ўрнига Гибсс–Дюгемнинг эритмаларни термодинамик назариясига оид тенгламаси қўлланилади:

$$m_1 d\mu_1 + m_2 d\mu_2 = 0. \qquad (3)$$

Биз (2) тенгламани сувга бўккан полимерларга нисбатан анологик жиҳатдан қўллаб, шунга ўхшаш ва яна (3) формулани олишимиз мумкин, шубҳасиз, бўккан полимерлар томонидан буғларнинг сорбцияси эритманинг дастлабки босқичи эканлигидан келиб чиқади. Шундай қилиб айтиш мумкинки термодинамик нуқтаи назардан сувга бўкиб шишган полимерлар ва микроғовакли адсорбентлар томонидан сув буғи сорбцияси жараёнлари улар ўхшаш ва қаттиқ эритмалар ҳосил бўлишига олиб келади, шунинг учун уларни битта статик тенглама (1) билан тавсифлаш табиийдир.

Асосан кимёвий толалар турли хил полимер композицияларидан олинади, шунинг учун уларни сорбентлар сифатида таснифлаш Цилипоткина [3] томонидан таклиф қилинган таснифга асосланиши мумкин. Бироқ, биринчидан, полимерлар ва кимёвий толаларнинг сорбцион хусусиятлари сорбат ва сорбентнинг термодинамик жиҳатдан яқинлигига боғлиқ, шунинг

учун таклиф қилинган тасниф тушунтиришни талаб қилади; иккинчидан, қуйида кўрсатилгандек, полимерларнинг ҳар бир гуруҳини (1) тенглама коэффициентлари орқали миқдорий тавсифлаш мумкин.

Полимернинг бўкиб шишишига олиб келмайдиган буғларнинг сорбцияси пайтида одатий физик адсорбция кузатилади ва М.М. Дубинин томонидан таклиф қилинган адсорбентларнинг таснифи кимёвий толаларга қўлланилиши мумкин: макроғовак баъзи ҳолларда n=1, даража характеристик энергияга эканлигидан (1) тенглама орқали мезапор ва микроғовакларни ўлчамларини ҳисоблаб топиш мумкин. Иккинчидан, сув буғи сорбцияси n=2, даража билан микроғовакларни ҳажмий жиҳатдан сув буғи билан тўла тўйиниши кузатилиб ва у ҳам термодинамик жиҳатдан (1) тенгламага бўйсунади (1-жадвал). Бу ерда шуни ёдда тутиш керакки, кўриб чиқилаётган синфга фақат комбинацион энтропияси юқори максимал қийматга эга бўлган яъни ΔS_{max} тўғри келувчи сорбатлар, адсорбентлар ва полимерлар киради.

1-жадвал

Кимёвий толаларни ва полимерларни синфлаш

Синф	**Физик ҳолати ва тузилиши**	**n**	**E (Дж/моль)**	**Сув буғларининг сорбцияланиш механизми**	**α**
I	Ғовакли, сув ва сорбат буғларида бўкмайдиган:				
	1) Мезоғовакли	-	-	А. энергия тизимлари:	
	2) Макроғовакли	1	-		$\alpha \geq 0$
	Микроғовали	2	(15–30)·10^3	$\Delta S \geq 0, \Delta H < 0$	$\alpha \leq 0$
II	Сорбат буғларида бўкиб шишган:			$\Delta S \geq 0, \Delta H > 0$	
III	1)шишасимон чизиқли мустаҳкам тартибли жойлашган	0.3 – 0.33	10 – 30	Асосий тўлдириш	$\alpha < 0$

	2)юқори эластикли 3)шишасимон тўрсимон, аморф қисмларга кристалланадиган полимерлар	0.5 0.7	200 – 400 $(1– 2) \cdot 10^3$	майдонинг устунлиги $\Delta S<0$, $H<0$ асосий тўлдириш майдони $\Delta S < 0$ Б. Энтропия тизим-лари: $\Delta H>0$, $\Delta S> 0$ В. Термик тизим-лар:$\Delta H =0$, $\Delta S \geq 0$	$\alpha < 0$ $\alpha > 0$ $\Delta G=0$ бўлганда $\alpha = 0$

Улардаги микроғоваклар молекуляр структуранинг элементлари сифатида ифодаланиши мумкин, чунки молекулалараро ўзаро таъсирлар бундай тешикларнинг деворлари орасидаги масофада жуда кучли (2 нм) бўлиши мумкин. Аммо мезо ва макроғовакларнинг ҳосил бўлиши, толанинг мустаҳкамлигини кескин камайтирадиган структуравий нуқсонлардир, шунинг учун бундай тешикларнинг сезиларли даражада ошиши саноат кимёвий толалари мустаҳкамлигига салбий таъсир кўрсатади.


Бироқ, микроғоваклар буғ сорбцияси пайтида геометрик ўлчамларини ўзгартирадилар [4] ва жараён Гибсс–Дугем тенгламаси (3) орқали ҳисобланиб, уларни шишмайдиган полимерлар деб таснифлаш мумкин эмас. Уларни аморф қисмларга эркин маълум бир тартиб бўйича шишасимон ва кристалли синфга ҳам киритиш мумкин эмас, чунки улардаги микроғоваклар ўзгарувчан статик характерга эга ва улардаги инерт буғларнинг сорбцияси деярли йўқ, инерт бўлмаган буғлар эса кўп миқдорда (100 *масс.* гача) сўрилади, ёки ундан ҳам кўп бўлиши мумкин. Шунинг учун микроғоваклар кимёвий толалар ва полимерларни алоҳида синфга ажратиш таклиф этилган. Ҳозирги вақтда энг тарқалган бундай полимерлар углеродли фаоллаштирилган толалардир (2-жадвал), уларнинг сорбцияланиш изотермаси бошқа барча полимерлардан кескин фарқ қилади (расмга қаранг).

2-жадвал

Тенглама константалари (1)

Синф	**Сорбент**	**Сорбат**	**n**	**a_0** ***(мг/г)***	**E** ***(Дж/моль)***	**δ (%)**
III.1	Полистирол	Циклогексан Циклогексен Бензол	0,33 0,33 0,33	800 2240 9100	100,97 90,80 200,70	9,7 13,1 7,6
III.2 III.2 III.2	Политилен Поливинилхлорид Политриметилолпропанфталат толаси	Толуол Циклогексан Вода Хлороформ Диоксан	0,5 0,5 0,5 0,5 0,5	2160 2015 2720 2830 2290	297 308 266 330 274	4,6 3,9 2,1 4,0 3,9
III.3 III.3 III.3	Термополимерлар Полипропилен (юқори босимли ПВД) Полиамидли тола	Метанол n-Додекан n-Нонил спирти Этанол	0,5 0,7 0,8 0,6 0,7 0,9	102 189 188 174 157	1433 1421 1870 1850 1890 1241	3,1 5,8 6,7 9,5 6,3 7,5
IV.1	Вискоза толалари Углеродли активлаштирилган тола	Хлороформ Сув Метанол Этанол Ацетон	0,8 0,7 1,3 1,3 1,9	54,6 27,6 32,4 54,4 67,5	1239 1740 1877 1887 1988	1,8 2,1 3,6 4,3 4,6

ўзаро таъсири сирт адсорбциясига механизмига яқинроқдир, чунки сорбат полимер матрицасига фаол таъсир қилади ва унинг тузилишини ўзгартиради. Шу муносабат билан ютилиш изотермалари (расмга қаранг) полимернинг тузилиши ва ҳолатига боғлиқ. Кимёвий жараёнда эластомерлар одатда ажралади, уларнинг макромолекулалари сорбат молекулалари билан жой алмашиш учун етарли ҳаракатчанликка эга бўлади, изотерма чизиқлари эса сорбланишнинг паст нисбий босимида бошланади. Зич ва мустаҳкам боғланишга шишасимон полимерлар сорбат билан жой алмашиш қобилиятига эга эмас (H→0 bo'lganda ΔS_k=0 bo'ladi), шунинг учун намунани парчалаш учун эритувчининг сиртдаги дастлабки минимал адсорбцияси зарур ва сорбциянинг сезиларли ўсиши фақат нисбий босимнинг юқори қисмларидагина бошланади. Аксинча, босимнинг паст қийматларида аморф қисмларга эркин ҳолатда бириккан шишасимон ва кристалли полимерлар структуранинг тартибсиз қисмларидаги буғларнинг молекулаларини ўзлаштиради ва унга фаол таъсир қилади. Бундай ҳолда изотерма С шаклидаги шаклга эга.



Циклогексан (1), сув (2,3) ва ацетон (4)ни тоза соф ҳосил бўлган поливинилспирт полимери (ПВС) сорбцияланиши изотермалари a сорбция (ммол/г), h- нисбий босим. Эгри чизиқлар (1) тенглама билан ҳисобланди.

Ғовакли структурани ўрганиш саноат толаларида (нейлон, капрон, нитрон ва бошқалар) амалга оширилади. Инерт ва инерт бўлмаган турли хил буғларнинг сорбцияланиши, асосан полиакрилонитрил, поливинил спирт, целлюлоза асосида синтез қилинган махсус толалар синфлари 1-жадвалда кўрсатилганидек, характерли адсорбция энергияси Е билан фарқ қилди, ҳамда (1) тенглама билан ҳисобланган экспериментал маълумотларнинг стандарт оғишлари (δ) одатда 10% дан ошмади.

III-гуруҳ толалари учун h-нисбий босим ва Е *нинг* параметрлари толани тузилишини тавсифлайди ва амалда сорбатнинг табиатига боғлиқ бўлмай максимал сорбция қийматини a_0 мувофиқлик ўлчовини ифодалайди.

widely used synthetic polymer in industry, and its physical-mechanical, thermal, and chemical properties vary depending on the production method. This study analyzes the main production technologies of PVX, including suspension polymerization, extrusion, injection molding, and film production processes. The impact of each method on the mechanical, thermal, and chemical properties of PVX is examined. Additionally, the article highlights the importance of various additives (plasticizers, stabilizers) and polymerization conditions in improving the properties of polyvinyl chloride and expanding its potential applications. The research results enable the improvement of PVX material quality and its adaptation to industrial needs.

Key words : Polyvinyl chloride (PVX), Polymerization, Technological methods, Mechanical properties, Plasticizers, Stabilizers, Extrusion, Thermal insulation, Hardness, Elasticity.

Polivinilxlorid (PVX) — eng keng tarqalgan va ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan sintetik polimerlardan biri bo‘lib, uning turli xossalari va ko‘p jihatlari uni sanoatning ko‘plab sohalarida ishlatishga imkon beradi. PVX polimerni ishlab chiqarishda qo‘llaniladigan texnologik usullar uning fizik-mexanik, termal va kimyoviy xossalariga sezilarli darajada ta’sir qiladi. Ushbu maqolada turli texnologik usullarda olingan PVX polimerlarining xossalari va ularning ta’sirini tadqiq qilish masalalari muhokama qilinadi.

Polivinilxlorid (PVX) polimeri ko'plab sanoat sohalarida keng qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda turli texnologik usullar orqali olingan PVX polimerlarining xossalari tahlil qilinadi va ularning amaliy ahamiyati ko'rsatiladi.PVX ning mexanik kuchlari va elastikligi o'rganiladi: Ushbu usulda olingan PVX ning issiqlik barqarorligi va izolyatsiya xususiyatlari tahlil qilinadi.Inyeksiya qoliplash jarayonida olingan PVX ning yuzaki sifatlari va deformatsiya chegaralari o'rganiladi.Kimyoviy modifikatsiya: PVX ning kimyoviy barqarorligi va antikorozion xossalari o'rganiladi.PVX va turli qo'shimchalar yordamida hosil qilingan kompozit materiallarning mexanik va termal xossalari tahlil qilinadi. Polivinilxlorid (PVX) – keng qo'llaniladigan sintetik polimer bo'lib, uning xossalari sanoat va kundalik hayotda turli mahsulotlar ishlab chiqarishda muhim rol o'ynaydi. PVX ning xossalari uning tarkibi, ishlab chiqarish jarayoni va qo'shimchalarga bog'liq bo'ladi. Quyida PVX polimerining asosiy xossalari va ularning qo'llanilishi haqida batafsil ma'lumot keltirilgan.

Jadval 1.

Usul	**Mexanik kuch (MPa)**	**Termal barqarorlik (°C)**	**Izolyatsiya xossalari**
Qayta ishlash	30	220	Yuqori

Usul	Mexanik kuch (MPa)	Termal barqarorlik (°C)	Izolyatsiya xossalari
Ekstrudatsiya	35	240	O'rta
Inyeksiya qoliplash	40	230	Yuqori
Kimyoviy modifikatsiya	50	250	Yuqori
Kompozit	60	260	O'rta

PVX ning mexanik kuchi materialning qattiqligini belgilaydi. Bu xossa, materialning yuklamalarga qanchalik bardosh bera olishiga ta'sir qiladi. PVX ning o'lchami va og'irligi materialning konstruktsiyasini belgilaydi, bu esa mahsulotlarning tashish va o'rnatish jarayonlarini osonlashtiradi. PVX ning yuqori haroratga chidamliligi, uning ko'plab sanoat jarayonlarida ishlatilishiga imkon beradi. Qayta ishlash va modifikatsiya qilingan PVX ning termal barqarorligi yanada yaxshilanadi. PVX turli kimyoviy moddalar bilan reaksiya qilmaslik xususiyatiga ega. Bu, uni kimyo sanoatida, korroziya va zaharli moddalar bilan ishlashda ishlatishga imkon beradi. PVX ning yuqori elektr izolyatsiya xossalari, uni elektr kabellari va izolyatsiya materiallari sifatida ishlatishga imkon beradi. PVX ning o'lchamlarining o'zgarishi issiqlik yoki namlik ta'sirida minimaldir, bu esa uning mahsulot sifatini saqlashda muhimdir.

Polivinilxlorid (PVX) polimeri uzoq vaqtdan beri sanoatda keng qo‘llanilmoqda. U yuqori kimyoviy barqarorlik, oson shakllanish, yuqori elektr o‘tkazuvchanlikka ega emaslik, yaxshi izolyatsiya xususiyatlari bilan ajralib turadi. Shuningdek, PVX ning turli mexanik xossalari, masalan, qattiqlik, elastikligi va mustahkamligi, materialning turli sohalarda qo‘llanishi uchun muhimdir. PVX asosan ikkita shaklda ishlab chiqariladi:Qurilish materiallari, qoplamalar, eshiklar, derazalar va boshqa strukturalar uchun ishlatiladi.Kabel izolyatsiyasi, shlanglar, sanitariya va boshqa mahsulotlar uchun ishlatiladi.PVX ning ishlab chiqarish usuli uning xossalariga va qo‘llanish sohasi uchun zarur bo‘lgan xususiyatlarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Eng keng tarqalgan texnologik usullar quyidagilardir:Ekstruziya usuli PVX ning eng ko‘p qo‘llaniladigan ishlab chiqarish texnologiyasidir. Bu usulda polimer granulalari yuqori haroratda eritilib, maxsus qoliplarga yoki matritsalar orqali kerakli shaklga keltiriladi. Ekstruziya usuli yordamida ishlab chiqarilgan

Polivinilxlorid (PVX) Polimerining Asosiy Xossalari ***Jadval 2.***

Xossalar	**Qiymat**
Mexanik kuch (MPa)	30 - 60
Termal barqarorlik (°C)	60 - 80 (qayta ishlash uchun) 200 - 260 (modifikatsiyalangan PVC)
Yong'in barqarorligi	B1 - B2 (moddiy yong'inga chidamli)
Kimyoviy chidamlilik	O'rta - Yuqori
Elektr izolyatsiya xossalari	Yuqori
O'lcham barqarorligi	Yuqori
Yengil va og'irlik (g/cm³)	1.3 - 1.45
Mo'rtlik	O'rta
Moslashuvchanlik	O'rta - Yuqori

PVX qattiq va bardoshli materiallar ishlab chiqariladi. Bunday mahsulotlarga trubkalar, profil vaboshqa strukturalar kiradi. Ekstruziyadagi harorat, bosim va eritish davomiyligi PVX ning mexanik va termal xossalarini belgilaydi. In’yektsiya shakllanishi usulida PVX polimeri eritiladi va matritsaga in’ektatsiya qilinadi. Bu usuldan olingan materiallar yuqori aniqlik va sifatga ega bo‘ladi. Inyeksiya shakllanishi texnologiyasi yordamida turli detal va qismlar ishlab chiqariladi. Ushbu usulda olingan PVX ning yuzaki sifatlari, yuzaga bo‘lishi va deformatsiyasi yaxshilangan.PVX ning xossalarini yaxshilash maqsadida uning tarkibiga turli kimyoviy modifikatorlar qo‘shilishi mumkin. Ushbu modifikatsiyalar materialning kimyoviy chidamliligini oshiradi, uning yuqori harorat va korroziyaga qarshi barqarorligini yaxshilaydi. Kimyoviy modifikatsiya yordamida PVX ning xossalari ko‘plab sanoat sohalarida qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytiradi PVXning polimerizatsiya jarayoni ham uning xossalariga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Suspenziya polimerizatsiyasida monomer (vinilxlorid) suvda suspenziyaga aylantiriladi va u yerda polimerlanadi. Bu usul PBXning yaxshi termal barqarorligi va mexanik xossalarini ta’minlaydi. Suspenziya usulida ishlab chiqarilgan PVX odatda yuqori sifatli va yaxshi izolyatsiyalovchi materiallar hosil qiladi. Polivinilxlorid (PVX) — vinilxlorid monomeridan polimerlanish orqali olingan sintetik plastmassa materialidir. PVX polimeri quyidagi umumiy xususiyatlarga ega:PVX ning asosiy tarkibiy qismi vinilxlorid monomeridan (C_2H_3Cl) iborat bo‘lib, u uzun zanjirli molekulaga aylanishi natijasida PVX polimeri hosil bo‘ladi. Polivinilxloridning molekulalarida xlor atomi mavjud bo‘lib, bu uni kimyoviy va fizik jihatdan boshqa polimerlardan ajratib turadi.PVX ning shakllanish jarayoni polimerizatsiya deb ataladi, bunda vinilxlorid monomerining molekulalari kimyoviy reaksiya orqali birlashtiriladi.PVX ning asosiy fizik, mexanik va kimyoviy xossalari uning qo‘llanilishi va sanoatdagi ahamiyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Quyida PVX ning ba’zi asosiy xossalari keltirilgan: PVX materialining qattiqligi uning strukturasida vinilxlorid guruhlarining o‘zaro bog‘lanishiga va polimerizatsiya jarayonida hosil bo‘lgan kristall tuzilishga bog‘liq. PVX ning qattiqligi va mustahkamligi materialning shakllanish usuliga, shuningdek, qo‘shimchalar (plastifikatorlar,

stabilizatorlar) qo‘shilishiga bog‘liq. PVX ning elastik xususiyatlari plastifikatorlar orqali yaxshilanishi mumkin. Plastifikatorlar polimer zanjirlarini harakatsiz holda saqlab, materialning elastikligini oshiradi.

PVX Polimerlari Xossalarini O'rganish Jadvali ***Jadval 3.***

No	Texnologik Usul	Xossa Turi	Tahlil Metodi	Natijalar/Tahlillar
1	Polimerizatsiya (radikal usul)	Mexanik xossalar (kuch, elastiklik)	Teshilish va siqilish testlari	Kuchning oshishi yoki kamayishi, elastiklikni o'lchash
2	Polimerizatsiya (ionli usul)	Termal xossalar (termal barqarorlik)	Diferensial skanerlash kalorimetri (DSC)	O'tish harorati, erish nuqtasi, barqarorlikni aniqlash
3	Ekstrudatsiya	Fizik-kimyoviy xossalar	Xiralik va rang o'zgarishi, massa spektrometriya (MS)	PVX ning kimyoviy tarkibi, impuritlar mavjudligi
4	In'ektsiya moldingi	To'liq shakllanish va payvandlash xossalari	SEM (Scanning Electron Microscopy) va mikroskopiya	Yuzaning tuzilishi, shakllanishning yaxlitligi
5	Puflash yoki ko'piklash texnologiyasi	Suyak shakllanishi, zarbaga chidamlilik	Zarbaga chidamlilik testlari (Izod)	PVXning kuchi, to'liq shakllanish darajasi
6	Termoformlash	Xususiy xossalar (yumshoqlik, kuch)	Tension va oraliq analizi	Shakllanishda plastiklik va qarshilikni o'lchash
7	Qotirib bo'lish usuli (solvent usuli)	Xujayra va mikroskopik tuzilishi	AFM (Atomic Force Microscopy), SEM	Mikroskopik tekshirish, tuzilma o'zgarishlari
8	Mikrotalash (nanotexnologiya)	Nanotuzilish va modifikatsiya	X-Rays diffraksiyasi, TEM (Transmission Electron Microscopy)	Nanostruktura tahlili, moddiy modifikatsiyalar

PVX ning erish nuqtasi 75-105°C atrofida bo‘ladi, bu esa uni yuqori haroratlarda ishlatishni cheklaydi. PVX ning termal barqarorligi uning ishlab chiqarish jarayonida qo‘llaniladigan stabilizatorlarga, plastifikatorlarga va boshqa qo‘shimchalariga bog‘liq.PVX ning termal o'tkazuvchanligi past, bu uni yaxshi izolyatsiyalovchi materialga aylantiradi. PVX materiallari, shu jumladan, kabel izolyatsiyasida keng qo‘llaniladi.PVX yuqori kimyoviy barqarorlikka ega, o‘zining xlor atomi tarkibi bilan kislotalar, asoslar, organik erituvchilar va ba’zi oksidlovchilar ta’siriga chidamli. Bu xossalar PVXni sanoat tarmoqlarida, ayniqsa kimyo sanoatida qo‘llash imkonini beradi. Ammo PVX ning xlor tarkibi uning UV nurlanishiga yoki yuqori haroratga chidamliligini pasaytirishi mumkin, bu holatda PVX stabilizatorlar bilan qo‘shimcha ishlov berilishi talab etiladi. PVX ning yaxshi elektr izolyatsiya xossalari uni elektr o‘tkazmaydigan material sifatida keng qo‘llanilishini ta’minlaydi. Elektr kabel va simlarda, shuningdek, boshqa izolyatsiyalovchi materiallarda PVX ning foydalanilishi keng tarqalgan.

Polivinilxloridning shakllanishi va ishlab chiqariladigan mahsulotlar uning xossalarini yanada belgilaydi. Eng keng tarqalgan shakllantirish usullari, Ekstruziya usuli orqali PVX trubkalar, profillar va boshqa strukturalar ishlab chiqariladi. Ushbu usul PVX ning qattiqligi va mustahkamligini oshiradi.: In'yektsiya shakllanishi yordamida PVX aniq shakllarda va kichik hajmli mahsulotlarda ishlab chiqariladi.Bu usulda PVX materiallari yupqa qatlamlar hosil qiladi. PVX plyonkalar oziq-ovqat sanoatida, qadoqlashda va boshqa yengil mahsulotlarda ishlatiladi.PVX polimerlari kimyoviy moddalar ta'siriga nisbatan yaxshi barqarorlikka ega. Ammo ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan katalizatorlar, plastifikatorlar va boshqa qo'shimchalar uning kimyoviy barqarorligini oshiradi. Suspenziya polimerizatsiyasi usuli yordamida ishlab chiqarilgan PVX materiallari ko'proq kimyoviy ta'sirlarga chidamli bo'lishi mumkin

Xulosa qilib aytganda; turli texnologik usullarda olingan PVX polimerlarining xossalarini tadqiq qilish, ularning fizik-mexanik, termal va kimyoviy xususiyatlarini yaxshilash imkonini beradi. Har bir ishlab chiqarish usuli o'ziga xos xususiyatlarga ega va PVXning turli sohalarda qo'llanishi uchun kerakli parametrlarni ta'minlaydi. Ekstruziya, in'yektsiya shakllanishi va suspenziya polimerizatsiyasi kabi usullar yordamida ishlab chiqarilgan PBX materiallari turli sohalarda, jumladan qurilish, elektr sanoati, qadoqlash va sanitariya tizimlarida muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda.Ushbu tadqiqotlar, PVXning yangi imkoniyatlarini aniqlash, uning xossalarini takomillashtirish va sanoat ehtiyojlariga moslashtirishda muhim ahamiyatga ega.Polivinilxlorid (PVX) polimeri sanoatda keng qo'llaniladigan va arzon narxi bilan ajralib turadigan materialdir. Uning fizik, mexanik, termal va kimyoviy xossalari ishlab chiqarish texnologiyasiga va ishlatiladigan qo'shimchalarga qarab o'zgaradi. Turli texnologik usullar, jumladan, suspenziya polimerizatsiyasi, ekstruziya, in'yektsiya shakllanishi va plyonka ishlab chiqarish kabi jarayonlar yordamida olinadigan PVX materiallari o'zining mexanik mustahkamligi, elastikligi, kimyoviy barqarorligi va elektr izolyatsiya xususiyatlari bilan sanoat ehtiyojlarini qondirishda muhim rol o'ynaydi.Ushbu tadqiqot natijalari PVX materiallarini ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish, uning xossalarini yaxshilash va sanoat ehtiyojlariga yanada moslashtirishga yordam beradi. Polivinilxlorid polimerlarining texnologik usullari va xossalarini chuqur tahlil qilish uning kelajakdagi innovatsion ishlanmalarda qo'llanilishi imkoniyatlarini kengaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Chandra, R. (2017). Polyvinyl Chloride (PVC) Polymers: Synthesis, Structure, and Properties. Wiley-Blackwell.Link to book

2.Harris, M. (2016). The Chemistry and Technology of PVC. CRC Press.Link to book

3.Rijks, J., & Wolters, E. (2008). Synthesis and Characterization of Polyvinyl Chloride Polymers. Polymer International, 57(4), 356-360.Link to article

4.Kumar, V. (2010). Polyvinyl Chloride (PVC) Technology. Cambridge University Press.Link to book

5.Shah, A., & Kamat, S. (2015). Polymer Blends and Composites: The Chemistry and Technology of PVC. Springer. Link to article

6.ScienceDirect (https://www.sciencedirect.com/): Polivinilxlorid va uning texnologik usullari bo‘yicha ilmiy maqolalar va jurnallar.

7.Ruzmetov, U., & Tursunov, T. (2022). "PVX va uning yangi kompozit materiallar sifatida qo‘llanilishi". O'zbekiston ilmiy-texnologiya jurnali, 21(5), 134-139.

8.Kholmuratov, M., & Shamsiyev, A. (2021). "Polivinilxlorid (PVX) polimerlarini ishlab chiqarish jarayonida ularning mexanik xossalarini o'zgartirish usullari". O'zbekiston Sanoat jurnali, 18(4), 45-51.

9.G‘ulomov, M., & Azizov, D. (2023). Kimyoviy texnologiya va polimerlar. Toshkent: Toshkent Kimyo-texnologiya instituti.

YANGI DAVRNING BOSHLANISHI. TO`RTINCHI SANOAT INQILOBI.

Umida Ergasheva.

Millat Umidi Universiteti

“Business Adminstration” fakulteti talabasi

Anotatsiya: Tadqiqotim davomida yangi davrning boshlanishi, texnologiya va jamiyatning birgalikda bir davrda mavjud bo`lishi haqida izlanish olib bordim, shuningdek sanoat inqilobining so'nggi bosqichi sifatida sanoat 4.0 ning muhim jihatlari tahlil qilindi. Maqolada, sanoat 4.0 ning jamiyat va iqtisodiyotdagi o‘zgarishlarga ta’siri, kelajakdagi istiqbollari va uning iqtisodiyotdagi o‘rni, shuningdek, yangi texnologiyalarning joriy etilishida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish yo‘llari haqida takliflar beradi. Bu inqilob sanoat va jamiyatni yangilashda yangi imkoniyatlar yaratadi va kelajakda raqamli iqtisodiyotning asosini tashkil etadi.

**Tayanch so`zlar:**Birinchi sanoat inqilobi, ikkinchi sanoat inqilobi, uchinchi sanoat inqilobi, to`rtinchi sanoat inqilobi, jamiyat, texnologiya, kiberxavfsizlik, Iqtisodiyot.

Abstract I have researched the new era, the existence of technology and society at the same time, the important analytical development of industry in the last level of Industry 4.0. In the article, the impact of 4.0 on changes in the social industry and economy,suggestions on the economic prospects of 4.0 and its place in the economy, for the industry, on the ways of producing products that can be agreed upon in the introduction of new technologies. It forms the basis of industrial production and economic economic in revolution and social renewal.

Key words: The first industrial revolution, the second industrial revolution, the third industrial revolution, the fourth industrial revolution, society, technology, cyber security, economics.

Анотация Я исследовал новую эпоху, существование технологий и общества одновременно, важное аналитическое развитие промышленности на последнем уровне Индустрии 4.0. В статье рассматривается влияние 4.0 на изменения в социальной отрасли и экономике, предложения об экономических перспективах 4.0 и ее месте в экономике, для промышленности, о способах производства продукции, которые могут быть согласованы при внедрении новых технологий. Оно составляет основу промышленного производства и экономической экономики в условиях революции и социального обновления.

Ключевые слова:Первая промышленная революция, вторая промышленная революция, третья промышленная революция, четвертая промышленная революция, общество, технологии, кибербезопасность, экономика.

Insoniyat tarixida tosh asri toshlar tugagani uchun emas, balki yangi texnologiyalar kirib kelgani natijasida barham topgan. Bugungi kunga qadar insoniyat uchta sanoat inqilobini boshdan kechirdi. Hozirgi davrimiz yetakchi mamlakatlari "To`rtinchi sanoat inqilobi", "Aqilli iqtisodiyot", "Inovatsion iqtisodiyot"ga o`tayotgani bilan xarakterlanadi.

Shavkat Mirziyoyev[1]

Insoniyat yaralganidan boshlab o`zgarishga, rivojlanishga moyildir. Insoniyatni o`zgarishga olib keluvchi omil shubhasiz texnologiya. Bizning yashash tarzimiz, turmushimiz, o`zaro munosabatlar, ish-faoliyatimizni tubdan o`zgartirib yuborgan faoliyat esa ‘’texnologik inqilob deyiladi’’. Men ko`lami, hajmi va murakkabligi bilan bir-biridan farq qiluvchi **"Sanoat inqiloblari"** ni nazarda tutyabman. Bugungi kunga qadar biz uchta inqilobdan o`tib, to`rtinchisida turibmiz. Ular bosqichma-bosqich hayotimizga kirib kelmoqda. Zamonamizda texnalogik yutuqlar, kashfiyotlar, yangi imkoniyatlar sur`ati o`sib boraverar ekan, sanoat inqilobarining soni ham ko`payib boraveradi. Albatta bu rivojlanish demakdir. Ya`ni iqtisodiyotning globallashuvi axborot kommunikatsiya texnologiyalarining rivojlanishi paytida bir qancha mamlakatlar iqtisodiyotiga raqamlashtirish, avtomatlashtirish atamalarining kirib kelishi bizning to`rtinchi sanoat inqilobini boshdan kechirayotganimizga yaqqol dalildir.

Hayot tarzimizdagi ilk katta o`zgarish termachilikdan dehqonchilikka o`tish,

hayvonlarni qo`lga o`rgatish bo`lgan.

XVIII asr, Buyuk Britaniya. Agrar va qo`lda ishlab chiqarish iqtisodiyoti asta-sekinlik bilan, mashina va mexanizmlarga aylanishni boshladi. Endi odamlar mashinasozlik, ishlab chiqarish texnologiyalarini rivojlantirish va yangi energiya manbalaridan foydalana boshladi. Temir yo`llar va lokomativlar yaratildi. Ayniqsa, James Watt tomonidan yaratilgan bug`li dvigatel bu davrning chinakam olamshumul kashfiyoti edi. Insoniyat tarixida muhim burilish nuqtasini tashkil etgan bu davr **"Birinchi sanoat inqilobi"** deb nom oldi. Garchi "Sanoat inqilobi" atamasi fransuz yozuvchilari tomonidan avval ishlatilgan bo`lsa-da, dastlab ingiliz iqtisodchi tarixchisi Arnold Toynbi tomonidan Britaniyaning 1760-yildan 1840-yilgacha bo`lgan iqtisodiy rivojlanishini tavsiflash uchun mashhur qilindi. Xitoy, Hindiston kabi davlatlarda birinchi sanoat inqilobi XX asrga kelibgina boshlandi,

lekin, bu vaqtda Amerika Qo`shma Shtatlari va G`arbiy Yevropada “Ikkinchi sanoat inqilobi” boshlanib ulgurgan edi.

Ikkinchi sanoat inqilobi tahminan 1870-1914-yillar oralig`iga to`g`ri keladi. Birinchi sanoat inqilobi qishloq xo`jaligi, qo`l kuchining mexanizmlar bilan almashinuvi bilan bog`liq bo`lsa, ikkinchi sanoat inqilobi elektr quvvati va yig`uv liniyasi yaratilishi bilan ommagaviy ishlab chiqarish imkonini yaratdi.

“Kompyuter inqilobi”, “ Raqamli inqilob” nomlarini olgan **uchinchi sanoat inqilobi** 1960-yillarda boshlandi. Bu davr internetning paydo bo`lishi, shaxsiy kompyuterlar o`ylab topilishi va robotlarning kirib kelishini o`z ichiga oladi.

XXI asr-o`z nomi bilan texnologiyalar davri. Asrning bunday nomlanishi bu asrda boshlangan **to`rtinchi sanoat inqilobi** sababdir. To`rtinchi sanoat inqilobi raqamli texnologiyalar, sun`iy intelekt, robototexnika, genetik muhandislik, 3D bosib chiqarish, IOT(internet of things) va boshqa ilg`or texnologiyalarning qo`llanilishiga oid kashfiyotlar. Agar,uchinchi sanoat inqilobi ham, to`rtinchi sanoat inqilobi ham raqamli texnologiyalar bilan bog`liq bo`lsa ularning farqi nimada? Jahon iqtisodiy forumi asoschisi va prezidenti Klaus Shvab to`rtinchi sanoat inqilobining oldingilaridan uchta farqini topgan:

Tezlik: Avvalgi sanoat inqiloblarining aksi o`laroq, ushbu inqilob chiziqli tezlik o`rniga geometrik progressiya bo`yicha kechmoqda. Bu ko`p qirrali o`zaro kuchli bog`langan dunyoda yashayotganimiz va yangi texnologiyalar yanada qudratli texnologiyalarga sabab bo`lishi tufaylidir.

Kenglik va chuqurlik: U raqamli inqilobga asoslanib, iqtisodiyot, biznes, jamiyat va shaxsiy qarashlarda misli ko`rilmagan o`zgarishlarga olib keluvchi ko`plab texnologiyalarni birlashtiradi. Bu nafaqat “nima”ni va “qanday qilib” bajarishni balki “kim” ekanimizni ham o`zgartiradi.

**Tizimli ta`sir:** U kompaniyalar, sanoat sohalari, mamlakatlar o`rtasida va butun jamiyat bo`ylab butun boshli tizimlar o`zgarishini qamrab oladi.

Ya`ni buguni inqilob paytida yaratilayotgan innovatsion texnologiyalar oldingi inqiloblarga qaraganda tezroq va kengroq tarqalmoqda. To'rtinchi sanoat inqilobi inson hayotining ko'plab sohalari va jabhalarida tizimli o'zgarishlarni o'z ichiga oladi. Misol sifatida neyrotexnologiya inson biologiyasining oxirgi chegarasi sifatida miyadan qanday foydalanishimiz va unga ta'sir qilishimiz borasida misli ko'rilmagan yutuqlarga erishayotganligini olsak bo`ladi. Avtomatlashtirish esa asrlik transport va ishlab chiqarish paradigmalarini buzmoqda; kriptovalyuta

tranzaksiyalarini amalga oshirishda foydalaniladigan blokcheyn kabi texnologiyalar va aqlli materiallar ma’lumotlarni qayta aniqlab, xiralashtiradi. Bularning barchasining natijasi global miqyosdagi texnologiyalarning ijtimoiy o'zgarishlardir. Iqtisodiy hayotning rag'batlantirishlari, qoidalari va me'yorlariga ta'sir qilish orqali u biz qanday muloqot qilishimiz, o'rganishimiz, ko`ngil ochar dasturlarimiz va bir-birimiz bilan munosabatda bo'lishimizni shunigndek, o'zimizni inson sifatida qanday tushunishimizni o'zgartiradi. Qolaversa, yangi texnologiyalar tobora tez sur'atlar bilan ishlab chiqilib, joriy etilayotgani hissi inson o'ziga xosligi, jamiyatlari va siyosiy tuzilmalariga ta'sir ko'rsatmoqda. Natijada, bizning bir-birimiz oldidagi mas'uliyatimiz, o'zimizni anglash imkoniyatlari va dunyoga ijobiy ta'sir ko'rsatish qobiliyatimiz To'rtinchi sanoat inqilobi texnologiyalari bilan qanday bog'langanligimiz bilan chambarchas bog'liq. Bu inqilob shunchaki biz bilan sodir bo'layotgani yo'q - biz uning qurbonlari emasmiz – va texnologiya inson nazorat qila olmaydigan tashqi kuch emas. Yoki “texnologiya bilan yashash” yo undan “voz kechish” kabi ikki tanlovning birini tanlashimiz bilan chegaralanib qololmaymiz. Aksincha, ushbu sezilarli inqilob vaqtida kim ekanimiz va dunyoga qanday nazar bilan qarashimiz bilan jamiyatdagi inqilob muammolariga yechim bera olamiz deb o`ylayman.

Shu o`rinda savol tug`iladi, Sanoat 4.0 jamiyatimiz uchun foydalimi yoki xavfli?

Bu savolga javob berishdan oldin, uning iqtisodiyot va biznesdagi o`rnini shuningdek, O`zbekistonda to`rtinchi inqilobi qanday kechmoqda ekanlogini tahlil qilib chiqsak.

Ushbu yangi texnologiyalar korxonalarga ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Ular, shuningdek, jamoalarni kuchliroq qilishlari va bo'limlar o'rtasidagi hamkorlikni rag'batlantirishlari mumkin. Misol uchun, Industry 4.0 orqali ma'lumotlar tahlilidan foydalanish odamlarga aqlliroq qarorlar qabul qilishga va muammolarni katta bo'lishidan oldin oldini olishga yordam beradi. Oxir oqibat, kompaniyalar real vaqt rejimidagi ma'lumotlar va internetga ulangan mexanizmlardan foydalangan holda faolroq bo'lishlari mumkin.

"Sanoat 4.0" atamasi mahsulotlarning butun hayot aylanish jarayonida sodir bo'ladigan ishlab chiqarish evolyutsiyasini ifodalash uchun ishlatiladi. U ishlab chiqarish va ta'minot zanjiri va qiymat zanjirini o'z ichiga oladi. Sanoat 4.0 ko'plab manfaatdor tomonlarga, shu jumladan mijozlarga ega. Mijozlar hosildorlikning oshishini kutishadi va ularning kutishlari butun ta'minot zanjiriga katta ta'sir ko'rsatadi.

Sanoat 4.0 ning asosiy komponentlari kiberfizik tizimlardir (CPS). Ushbu kiber-fizik tizimlar tarmoqlar orqali ulangan turli xil aqlli komponentlardan iborat. Ular ishlab chiqarishda, jumladan, masofadan boshqarish, aqlli zavodlar va logistika sohasida yangi imkoniyatlarni ishga tushiradi. Ushbu texnologiyalardan foydalanish kompaniyalarga xarajatlarni kamaytirish bilan birga jarayonlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Sanoat 4.0 - bu ishlab chiqarishning axborotni talab qiluvchi transformatsiyasi. U raqamli texnologiyani katta ma'lumotlar, real vaqt rejimidagi ma'lumotlar va IoT-ni qo'llab-quvvatlaydigan sanoat aktivlari bilan yanada samarali va bog'langan ekotizim yaratish uchun birlashtiradi. Sanoat 4.0 texnologiyalaridan foydalangan holda, korxonalar o'zlarining ishlab chiqarish jarayonlarini o'zgartirishlari va o'zlarining ulanishlaridan foydalanadigan yangi xizmatlar va biznes modellarini yaratishlari mumkin.

Shu Orinda IOT tushunchasiga ham izoh berib o`tishni lozim deb topdim. IOT (ingilizcha, internet of things. Ba`zan “barcha buyumlar internet” deb ham ataladi.) To`rtinchi sanoat inqilobi tufayli yuzaga kelgan hamda moddiy va raqamli ma`lumotlar o`rtasida ko`prik vazifasini bajaruvchi asosiy omillardan biri-buyumlar internetidir. Klaus Shvabning fikricha eng soda ko`rinishida u narsalar (mahsulotlar, xizmatlar, joylar) va odamlarning texnologiyalar va turli platformalar vositasidagi aloqasidan iborat.

Sanoat 4.0 korxona samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish maqsadida turli raqamli texnologiyalarni ishlab chiqarish jarayoniga integratsiyalashuvi bilan tavsiflanadi. Ob'ektlar va kiberfizik tizimlarning ulanishiga asoslanib, u "aqlli zavod" va ishlab chiqarish quvvatlarini yangi tashkil etish uchun asos bo'lib, unumdorlikni oshirishga va resurslarni yuqori va ekologik jihatdan barqarorroq taqsimlashga yordam beradi. Ma`lumotlarga ko`ra, Jahon banki industriya 4.0 ning qitisodiyotga qo`shgan hissasini 30 trillion dollarga baholagan. Bundan kelib chiqadiki, yangi texnologiyalarning jamlanishi iqtisodiy jarayonlarni avtomatolashtirishga xizmat qilgan. Internet va sun`iy intelekt tufayli electron shakldagi katta hajmdagi ma`lumotlarga yo`naltirdi, axborotlarni kompyuterlashtirdi. Iqtisodiy qarorlarlarni hisoblash tezlashdi. Bir qancha rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, Turkiya, AQSH, Germaniyada iqtisodiyot yangi biznes standartlari asosida qaytadan ishlab chiqarishn yo`lga qo`yildi. Buning natijasida energiya samaradorlgi, jahon iqtisodiyotining globallashuvi, raqobatbardoshlikning o`sishi shuningdek, ishlab chiqarishning avtomatlashtirilishi uchun keng imkoniyat yaratildi.

Tanganing ikkinchi tomoni ham bor. Sanoat 4.0 iqtisod va jamiyat uchun katta o`zgarishlarni amalga oshirayotgan bo'lsa-da, uning joriy etilishi uning salbiy iqtisodiy va ijtimoiy ta'sirlari haqida ham xavotir uyg'otdi. Asosiy tashvishlardan biri sanoat 4.0 ning bandlik va ish joylariga ta'siri. Bir qancha mualliflarning ta'kidlashicha, mashinani o'rganish, robototexnika va raqamlashtirish ko'nikmalar ierarxiyasining barcha darajalarida ish joylarini yo'q qilish uchun keng ko'lamli ish o'rinlarini yo'qotishga olib kelishi mumkin, bu esa bugungi kunda biz bilgan mehnat va jamiyat asoslarini buzadi. Sanoat 4.0 xalqaro savdoga ham ta'sir ko'rsatadi va natijada global qiymat zanjirlarining qayta tuzilishiga olib keladi. Raqamli texnologiyalarga asoslangan texnologiyalar ishlab chiqarish va marketingni real vaqt rejimida uzoq masofalarda boshqarish orqali samaradorlikni oshirish imkonini beruvchi mashinalarni o'rganish orqali ta'minot zanjiri logistikasini o'zgartirish uchun do'kondan tashqariga chiqishi kutilmoqda. Mintaqalar va davlatlarning ushbu texnologik o'zgarishlarni qiymat zanjiri bo'ylab qo'llash bo'yicha differensial imkoniyatlari xalqaro mehnat taqsimotiga Yevropada va butun dunyoda bandlikning o'sishiga katta ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bunga qanday yechim bera olamiz?

Sanoat 4.0 asosan avtomatlashtirish va sun'iy intellektga asoslangan texnologiyalarni o'z ichiga oladi. Bu esa, ko'plab an'anaviy ish o'rinlarini kamaytirishi tabiiy. Shu sababli, kasb-hunar ta'limi va qayta tayyorlash dasturlari ayniqsa muhim bo'lib qoladi. Yangi texnologiyalarni joriy etish, ishchilarga bu texnologiyalar bilan ishlashni o'rgatish va ularga yangi kasblarga moslashish imkoniyatini yaratish muhimdir. Masalan, ishchilarni sun'iy intellekt, robototexnika, dasturlash va ma'lumotlarni tahlil qilish kabi sohalarga yo'naltirish mumkin.

Yangi ish o'rinlarini yaratish

Sanoat 4.0 o'zgarishlari faqat ish o'rinlarini kamaytirishi mumkin deb hisoblanadi, ammo u yangi turdagi ish o'rinlarini ham yaratadi. Masalan, yuqori texnologiyalarga asoslangan sanoatlarda yangi texnik xodimlar, ma'lumotlar tahlilchilari, sun'iy intellekt mutaxassislari, va robototexnika texniklari talab qilinadi. Shuningdek, yangi biznes modellarini yaratish va ishlab chiqarishning yangi shakllarini rivojlantirish, yangi ish o'rinlarini yaratishda yordam berishi mumkin.

Ishchilarni kreativlik va innovatsiyaga yo'naltirish

Avtomatlashtirilgan tizimlar ko'plab takroriy va mexanik ishlarni amalga oshirishi mumkin, ammo kreativlik va innovatsiya kabi insoniy jihatlar har doim ham avtomatlashtirilgan bo'lmaydi. Shu sababli, ishchilarga kreativ ishlarga, dizayn, boshqaruv va strategik qarorlar qabul qilishga yo'naltirilgan ta'lim berish mumkin.

Shuningdek, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirishda insoniyatning ixtirochilik qobiliyati katta ahamiyatga ega bo'ladi.

XXI asrda eng qo`pol jinoyatlardan biri-kiberhujumlar. Bu ham aynan texnologiyalar rivojlanishidan kelib chiqqan desak, mubolag`a bo`lmaydi. Lekin, bugungi kunda unga qarshi chora-tadbirlar ham yetarlicha olib borilayabdi.

Ma`lumotlariga ko`ra Antarktikaning “Akademik Vernadskiy” orollari, Kongo Demokratik Respublikasining bir qancha hududlari, Xitoy Xalq Respublikasining bir qancha shaharlari jumladan, Tibet tog` hududlari singari rivojlanayotgan mamlakatlar internet tizimidan holi hisoblanadi. Demak, yuqorida sanab o`tilgan hududlarda uchinchi yoki ikkinchi sanoat inqiloblari hali ham davom etmoqda.

Bizning jonajon O`zbekistonimizda ham sanoat 4.0 tizimi ayni cho`qqiga chiqqanligi sir emas. Muhtaram Prizidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev o`zining “Yangi O`zbekiston taraqqiyot strategiyasi” asarida shunday degan:

“Hozirgi vaqda O'zbekiston ham ushbu umumjahon tendensiyasidan chetda qolayotgani yog. Keyingi yillarda iqtisodiyot sohasiga raqamli texnologiyalarni jalb qilishga alohida e`tibor berilmoqda.

Shuni inobatga olgan holda, ushbu vazifaga jiddiy e'tibor qaratildi.

Birgina 2020-yilda qariyb 800 mingta keng polosali Internet portlari yaratildi va 12 ming kilometr optik tolali aloga liniyalari yogizildi. Ayni paytda yaratilayotgan o'nlab zamonaviy korxonalar, ITparklar - bamisoli taraqgiyot darvozalari bo'lib, ular milliy iqtisodiyotimiz rivojiga xizmat qilmoqda. Jumladan, kelgusi besh yilda Toshkent shahrini rivolantirish boyicha takliflar tayyorlandi. "Toshkent - yashash uchun qulay yashil shahar", "Biznes uchun ulkan im-koniyatlar shahri", "Mintagaviy investitsiyalar markazi", "Raqamli poytaxt", "Bilim va innovatsiyalar shahri", "Poytaxt - madaniyat va marifat bulog'i", "Sog'lom turmush va sifatli tibbiyot" dasturlariniamalga oshirish bo'yicha rejalar belgilab olingan.

Mamlakatimizda elektron tijoratning to`laqonli bozorini yaratishga, tovarlar (xizmatlar) ishlab chiqaruvchi mahalliy korxonalarning tashqi bozorlarga chiqishiga to`siq bo`layogan qator muammo va kamchiliklar saqlanib qolayotgan edi. Ushbu muammolarni inobatga olgan holda hamda mamlakatda elektron tijoratni rivojlan-trish borasida qulay shart-sharoitlar yaratish, tovarlar (xizmat-larni Internet tarmogi orqali realizatsiya qilish uchun zamonaviy mexanizm va tartib-taomillarni joriy etish bo`yicha islohotlar amalga oshirilmoqda.

Kelajakda bizni nimalar kutmoqda?

Bu savolga ham javobni Klaus Shvabning metodologiyasidan topdik.

- Kelajakda 10% odamlar internetga ulanadigan kiyimlar kiyishadi.
- 1 trilion sensorlar internetga ulanadi.
- AQSH dorixonalarida ilk bor robotlar xizmat ko`rsatishi yo`lga qo`yiladi
- O`qishga mo`ljallangan ko`zoynaklarning 10% internetga ulanadi.
- Birinchi 3D printlangan mashina ishlab chiqiladi.
- Implantatsiya qilish mumkin bo`lgan mobil telefon savdoga chiqadi
- Aholisi 50000 ko`proq, ammo svetaforsiz Shahar
- Jahon yalpi ichki mahsulotining 10% blokcheynda saqlanadi.

Xulosa

Sanoat 4.0 – bu raqamli texnologiyalar va innovatsion usullar yordamida sanoat ishlab chiqarishini yangi bosqichga olib chiqadigan global tendensiya hisoblanadi. Ushbu inqilob yangi texnologiyalarning keng qo‘llanilishi, masalan, sun’iy intellekt, robototexnika, IoT (Internet of Things), katta ma’lumotlar (Big Data) va 3D bosib chiqarish orqali ishlab chiqarish jarayonlarini yanada samarali, tez va energiya tejamkor qilish imkonini beradi. Buning natijasida resurslar yanada samarali ishlatiladi, ishlab chiqarish samaradorligi ortadi va mahsulot sifatini yaxshilash imkoniyatlari yaratiladi. Sanoat 4.0 nafaqat ishlab chiqarish jarayonlarini yangilaydi, balki butun iqtisodiy tizimni transformatsiya qiladi. Bu jarayonlarda yangi ish o‘rinlari paydo bo‘lishi, lekin shu bilan birga an’anaviy kasblarning yo‘qolishi mumkin. Shuning uchun, bu davrda odamlar va kompaniyalar yangi texnologiyalarni qabul qilishga tayyor bo‘lishi, shu bilan birga malaka oshirish va qayta o‘qitish tizimi joriy etilishi zarur. Shuningdek, Sanoat 4.0 ni muvaffaqiyatli joriy etish uchun davlatlar raqamli infratuzilmani rivojlantirish, innovatsion ekotizimlar yaratish va xavfsizlik choralarini kuchaytirish masalalariga alohida e’tibor qaratishlari lozim.

Sanoat 4.0 ishlab chiqarishni global miqyosda yanada raqobatbardosh qilish, yangi biznes modellarini yaratish va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantirishda katta imkoniyatlarni ochadi. Biroq, uning to‘liq muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun texnologik, ijtimoiy va iqtisodiy omillarni hisobga olish, muvofiqlashtirilgan siyosat va strategiyalarni ishlab chiqish zarur. Ekologik jihatdan ham, Sanoat 4.0 resurslardan samarali foydalanish va chiqindilarni kamaytirish orqali barqaror rivojlanishni ta’minlash imkoniyatini yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, Sanoat 4.0 – bu yangi iqtisodiy modelning boshlanishi bo‘lib, u nafaqat ishlab chiqarish sohasini, balki jamiyatning barcha jabhalarini yangilash va rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, uning muvaffaqiyatli joriy etilishi

uchun zamonaviy texnologiyalar, infratuzilma, kadrlar malakasini oshirish va xavfsizlik choralariga alohida e’tibor berish zarur.

Takliflar:

Kadrlarni tayyorlash va malaka oshirish: Sanoat 4.0 texnologiyalarining joriy etilishi yangi kasb va malakalarga ehtiyoj yaratadi. Shuning uchun ta'lim tizimi va professional rivojlanish dasturlari orqali yosh mutaxassislarni va mavjud ishchi kuchini yangi texnologiyalarga moslashtirish zarur. STEM (ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika) sohalarida ta'limni kuchaytirish va kasb-hunar o‘quv markazlarini rivojlantirish muhimdir.

Raqamli infratuzilmani rivojlantirish: Sanoat 4.0 ning samarali amalga oshirilishi uchun raqamli infratuzilma zarur. Internet tarmoqlarining tezligi va barqarorligini oshirish, bulutli hisoblash va ma'lumotlar markazlarini kengaytirish, shuningdek, IoT texnologiyalarini rivojlantirish talab qilinadi.

Innovatsion ekotizimlar yaratish: Sanoat 4.0 texnologiyalaridan samarali foydalanish uchun innovatsion klasterlar va hamkorlik tarmog‘ini yaratish muhimdir. Davlat, xususiy sektor va ilmiy doiralar o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, tadbirkorlikni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni joriy qilishga turtki bo‘ladi.

Xavfsizlik va ma'lumotlarni himoya qilish: Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bilan birga, ma'lumotlar xavfsizligi va kiberxavfsizlikni ta'minlash zarur. Yangi texnologiyalarni yaratish va ulardan foydalanish jarayonida xavfsizlikni yuqori darajada saqlash uchun zamonaviy texnologik choralarni ishlab chiqish va qo‘llash zarur.

Ekologik barqarorlikni ta'minlash: Sanoat 4.0 texnologiyalarini joriy etish ekologik jihatdan ham foydali bo‘lishi mumkin. Energiya samaradorligini oshirish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlashni rivojlantirish orqali barqaror ishlab chiqarishni ta'minlash muhimdir. Ekologik standartlar va normativlarni ishlab chiqish va monitoring qilish muhim.

Yangi davrga o`tish, moslashish oson bo`lmasligi tabiiy, lekin yuqorida aytib o`tganimdek, texnologiyadagi bunday o`zgarishlar biz uchun yangi imkoniyatlar yaratishi bilan bir qatorda, bizga yangicha turmush shakllantirayotirayotgan asosiy tamoyillarni ilgari surgan insoniyatga yo`naltirilgan g`oyadir.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Shavkat Mirziyoyevning “Yangi O`zbekiston Taraqqiyot Strategiyasi” kitobi.

2.“To`rtinchi sanoat inqilobi” Klaus Shvab.

3.“Smart Manufacturing: The Lean Six Sigma Way” Anthony Tarantino.

4.Industrial Automation and Control System Security”-Ronald L. Krutz.

ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ДИЗЕЛЬНОЕ ТОПЛИВО ОТВЕЧАЮЩЕЕ ТРЕБОВАНИЯМ ЕВРОСТАНДАРТАМ

проф. Г.Р.Базаров

Бухарский инженерно-технологический институт, профессор

Аннотация. В данной работе исследованы современные экологические нормы, предъявляемые для дизельных топлив, такие как Евро-3, Евро-5 и Евро 6, которые требуют уменьшения уровня вредных выбросов. Таким образом, стандарты Евро существенно повлияли на индустрию дизельного топлива, стимулируя её к производству более качественного топлива и разработке более чистых и эффективных дизельных двигателей, способствуя тем самым улучшению экологических показателей и безопасности окружающей среды.

Ключевые слова: дизельное топливо, цетановое число, содержание серы, оксид азота, оксид углерода.

Annotation. In this paper, modern environmental standards for diesel fuels, such as Euro-3, Euro-5 and Euro-6, which require reducing the level of harmful emissions, are investigated. Thus, the Euro standards have significantly influenced the diesel fuel industry, encouraging it to produce better fuel and develop cleaner and more efficient diesel engines, thereby contributing to improved environmental performance and environmental safety.

Keywords: diesel fuel, cetane number, sulfur content, nitrogen oxide, carbon monoxide.

Дизельное топливо, получаемое из нефти методом фракционной дистилляции, является ценным источником энергии для дизельных двигателей. Оно уникально своей способностью к самовоспламенению при высоком давлении, в отличие от бензина, требующего внешнего зажигания. Эффективность и высокая энергетическая плотность дизельного топлива делают его идеальным для мощных и долговечных транспортных средств и тяжёлой техники.

С целью сокращения вредных выбросов в атмосферу, а так же в связи с необходимостью приведения отечественных стандартов на производимые топлива в соответствие с европейским уровнем, в 21.11.2017 году Постановлением № 931 Кабинета Министров Республики Узбекистан был утвержден технический регламент: «О требованиях к автомобильному и авиационному бензину, дизельному и судовому топливу, топливу для реактивных двигателей и мазуту». Введение в силу данного регламента подразумевает поэтапное ужесточение требований, в том числе и экологических, к выпускаемому и используемому на территории Узбекистана топливу. Для дизельного топлива ключевыми нормируемыми показателями

являются: содержание серы (не более 10 ppt) и содержание полиядерных ароматических углеводородов (не более 11%). [1]

Дизельное топливо играет ключевую роль в мировой транспортной индустрии, благодаря своим уникальным химическим и физическим характеристикам, которые делают его незаменимым для множества видов двигателей. Эти свойства влияют на производительность, эффективность и экологическую чистоту транспортных средств.

Химический состав дизельного топлива включает различные углеводороды, в основном алканы, циклоалканы и ароматические углеводороды, с молекулярной массой от C10H20 до C15H28. Эти компоненты способствуют высокой плотности энергии, что обеспечивает высокую эффективность использования дизельного топлива.

Среди физических свойств дизельного топлива особое внимание уделяется его вязкости, плотности и температуре вспышки. Например, стандартное дизельное топливо по нормам Евро-3 и Евро-5 обладает плотностью примерно 0.82-0.85 кг/л при 15°C. Температура вспышки дизельного топлива, превышающая 52°C, обеспечивает его безопасность при транспортировке и хранении по сравнению с бензином.

Цетановое число, ключевой показатель качества дизельного топлива, определяет быстроту воспламенения топливно-воздушной смеси в двигателе. Высокие значения цетанового числа, обычно варьирующиеся от 45 до 55 для Евро-5, гарантируют быстрое воспламенение и более чистое сгорание, что способствует снижению уровня выбросов загрязняющих веществ.

Стандарты Евро-3, введенные в начале 2000-х, ознаменовали важный шаг в развитии дизельных технологий, ставя акцент на снижение экологического воздействия дизельных двигателей и повышение качества дизельного топлива.

Внедрение стандарта Евро-5 в сентябре 2009 года значительно повлияло на экологические характеристики дизельных транспортных средств, целеустремленно сокращая выбросы загрязняющих веществ и улучшая качество атмосферного воздуха. [2]

Таблица 1

Сравнение Дизельного топлива стандартов Евро-3, Евро-5 и абсорбента газоконденсатного

Характеристика	Дизельное Топливо Евро-3	Дизельное Топливо Евро-4	Дизельное Топливо Евро-5	Абсорбент Газоконденсатный
Цетановое число	46-49	48-51	51-55	44-47

Содержание серы (мг/кг)	До 350	До 50	До 10	До 50
Выбросы NOx (мг/км)	До 500	До 250	До 180	До 250
Выбросы твердых частиц (мг/км)	До 50	До 25	До 5	До 25
Энергоэффективность	Высокая	Выше чем Евро-3	Наивысшая	Высокая
Температура вспышки (°C)	Обычно выше 52	Обычно выше 52	Обычно выше 52	Обычно выше 52
Влияние на экологию	Умеренное	Улучшенное	Оптимальное	Улучшеное
Применение	Общее использование	Уменьшенное использование	Широко используется	Общее использование
Соответствие современным стандартам	Ограниченное	Частичное	Полное	Частичное

Эта таблица демонстрирует ключевые различия между различными стандартами дизельного топлива и абсорбентом газоконденсатным. Она помогает понять эволюцию экологических стандартов и улучшения, достигнутые в дизельном топливе на протяжении этих изменений. Стандарты Евро-3, Евро-4 и Евро-5 постепенно повышали экологические требования, улучшая качество воздуха и сокращая вредные выбросы. Абсорбент газоконденсатный, используемый как добавка, способствует дальнейшему улучшению свойств дизельного топлива, особенно в отношении цетанового числа и эмиссии загрязняющих веществ.

Бухарский нефтеперерабатывающий завод впервые в Узбекистане начал выпуск «экологически чистого и высококачественного» дизельного топлива класса «Евро-6».

Дизтопливо «Евро-6» содержит не более 5 мг/кг (ppm) массовой доли серы и не более 4% массовой доли полициклических ароматических углеводородов.[3]

Евро-6 — экологический стандарт, регулирующий содержание вредных веществ в выхлопных газах [4].

В таблице ниже приведены предыдущие экологические стандарты для легковых автомобилей в сравнении с Евро-6 (в единицах г/км):

Таблица 2.Экологический стандарт	Оксид углерода (II)(CO)	Углеводород	Летучие органические вещества	Оксид азота (NOx)	HC+NOx	Взвешенные частицы (PM)
Для дизельного двигателя						
Евро-1	2,72 (3,16)	-	-	-	0,97 (1,13)	0,14 (0,18)
Евро-2	1,00	-	-	-	0,7	0,08
Евро-3	0,64	-	-	0,50	0,56	0,05
Евро-4	0,50	-	-	0,25	0,30	0,025
Евро-5	0,50	-	-	0,18	0,23	0,005
Евро-6	0,50	-	-	0,08	0,17	0,005

Если сравнить Евро-5 и Евро-6 для различных типов автомобилей, можно увидеть любопытную особенность. Евро-6 дизели попали под серьезный фактор из-за оксидов азота, вырабатываемых ими в большом объеме.

Литература

1. https://lex.uz/docs/3420358

2.https://tcu.com.ua/ru/tpost/l6bkycksr1-dizelnoe-toplivo-klyuchevie-harakteristi

3.https://www.gazeta.uz/ru/2022/05/20/diesel/

4.https://ru.wikipedia.org

O'LCHOV VOSITALARINI KALIBRLASH SERTIFIKATIGA QO'YILGAN TALABLAR VA METODLARI

Xo‘jjiyev Ma’murjon Yangiboyevich
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasi (PhD) katta o‘qituvchisi
Qarshiyev Zohidjon Abdirahim o‘g‘li
Buxoro muhandislik-texnologiya instituti
“Metrologiya va standartlashtirish” kafedrasi o‘qituvchi-stajyor

Annotatsiya. Ushbu maqolada belgilangan sharoitlarda standartlashtirilgan protsedura qo'llanilishini ta'minlash uchun qo'shimcha protseduralar va talablarni o'z ichiga olgan kalibrlash protsedurasi standartiga qo'shimcha ishlab chiqilishi to’g’risidagi ma’lumotlar yoritib berilgan. Kalibrlash tartibi foydalanilgan standartning bo'limlariga havola qilingan va kiritilgan barcha qo'shimchalarni ko'rsatgan holda mustaqil hujjat sifatida tuzilishi muhimligi hamda kalibrlash metodlari ham keltirlgan.

Kalit so‘zlar: o'lchov vositasi, kalibrlash, sertifikat, milliy standart, kalibrlash protsedurasi, standart.

Аннотация.В данной статье представлена информация о разработке дополнения к стандарту процедуры калибровки, включающего дополнительные процедуры и требования, обеспечивающие использование стандартизированной процедуры в заданных условиях. Важно, чтобы процедура калибровки была написана как отдельный документ со ссылками на разделы используемого стандарта и все включенные дополнения, а также методы калибровки.

Ключевые слова: средство измерений, калибровка, сертификат, национальный эталон, процедура калибровки, эталон.

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti respublikada metrologiya, standartlashtirish va sifatni boshqarishni rivojlanishini ta’minlovchi bir qator qonun va qarorlarni imzoladi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasining “Metrologiya to‘g‘risida”gi, “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi, “Mahsulot va xizmatlarni sertifikatlashtirish to‘g‘risida”gi, “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi va “Muvofiqlikni baholash to‘g‘risida”gi Qonunlari; O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining 27.02.2023 yildagi O‘RQ-819-sonli “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasining 07.04.2020 yildagi O‘RQ-614-sonli “Metrologiya to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasining 03.11.2022 yildagi O‘RQ-800-sonli “Standartlashtirish to‘g‘risida”gi qonuni; O‘zbekiston Respublikasining 27.02.2023

yildagi O‘RQ-820-sonli “Muvofiqlikni baholash organlarini akkreditatsiya qilish to‘g‘risida” qonunlari qabul qilingan[1].

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 22 iyuldagi №349-sonli qaroriga asosan sinov laboratoriyalariga ega bo‘lgan korxonalar belgilangan tartibda laboratoriyada tekshirish va test sinovidan o‘tkazishda foydalaniladigan texnologiya jihozlari, shuningdek butlovchi buyumlar va ehtiyot qismlarni chetdan keltirishda, agar ularni yetkazib berish texnologiya jihozlari yetkazib berish uchun tuzilgan kontrakt shartlarida nazarda tutilgan bo‘lsa, bojxona to‘lovlaridan, shu jumladan qo‘shilgan qiymat solig‘idan ozod qilish tartibi qo‘llaniladi. Bugungi kunda laboratoriya o’lchov vositalarini kalibrlash ixtiyoriy va majburiy metrologik protsedura bo'lmaganligi sababli, kalibrlash oralig'i tartibga solinmaydi. Shu bilan birga, kalibrlash tartibi kalibrlash oralig'ini o'rnatish bo'yicha tavsiyalarni o'z ichiga olishi mumkin[2].

O'lchov vositalarini kalibrlash o'lchovlarning bir xilligini ta'minlashni davlat tomonidan tartibga solish sohasida foydalanish uchun mo'ljallangan barcha o'lchov vositalari uchun majburiy bo'lgan tekshirish o'rnini bosmaydi. Biroq, agar kalibrlash kalibrlash ishlarini bajarish uchun tegishli ravishda akkreditatsiya qilingan metrologiya tashkiloti tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, unda uning natijalari tekshirish vaqtida ishlatilishi mumkin[3].

O'lchov vositalarini kalibrlash - bu o'lchovlarning bir xilligini ta'minlash uchun davlat tomonidan tartibga solish doirasidan tashqarida qo'llaniladigan o'lchov vositalarining metrologik tavsiflarining haqiqiy qiymatlarini va metrologik yaroqliligini aniqlash uchun bajariladigan jarayonlar majmuidir.

Muhim ma'lumotlar

Kalibrlash uchun taqdim etilgan SIda ishlab chiqarilgan yili, ishlab chiqaruvchisi va ularni aniq identifikatsiyalash uchun seriya raqami haqida ma'lumot bo'lishi kerak. Ushbu ma'lumot bo'lmasa, o'lchov vositasini kalibrlash uchun topshirishda siz o'lchov vositasining pasportini ko'rsatishingiz kerak. Pasport yo'q bo'lganda, ma'lumot tashkilotning blankidagi xatda ko'rsatilishi mumkin.

O'lchov asboblari toza, saqlanmagan va kerakli qismlarga ega ko'rinadi.

Agressiv (maxsus) muhitda ishlaydigan asboblar dezinfeksiyalangan, zararsizlantirilgan yoki zararsizlantirilgan holda tekshirish uchun taqdim etilishi kerak[4].

Agar kalibrlash tekshirish usuli yordamida amalga oshirilsa, unda hujjatning nomi ko'rsatilishi kerak.

Buyurtmachining ehtiyojlariga muvofiq o'lchov vositalarini kalibrlash uchun qabul qilish faqat kalibrlash metodologiyasi taqdim etilgandan keyin amalga oshiriladi.

Kalibrlash natijalarini ro'yxatdan o'tkazish:

kalibrlash sertifikati (o‘lchov vositasini kalibrlash asosi va natijalarini tasdiqlovchi hujjat)

O'lchov vositalarining metrologik tavsiflarining belgilangan haqiqiy qiymatlari bilan kalibrlash protokoli.

Kalibrlash sertifikatida quyidagilar bo'lishi kerak:

- ✓ kalibrlash sertifikat raqami;
- ✓ milliy akkreditatsiya tizimida akkreditatsiya to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq o'lchov vositalarini kalibrlashni amalga oshirish uchun akkreditatsiya qilingan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning nomi, uni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi ma'lumotlar (akkreditatsiya qilingan shaxslar reestridagi raqam), ko'rsatilgan yuridik shaxs yoki yakka tartibdagi tadbirkorning rahbarining imzosi va muhri;
- ✓ o'lchov vositasining nomi, turi, modifikatsiyasi va o'lchov vositasining seriya raqami (agar o'lchov vositasi bir nechta avtonom o'lchov birliklarini o'z ichiga olgan bo'lsa, unda ularning ro'yxati va seriya raqamlari taqdim etiladi);
- ✓ kalibrlash uchun foydalanilgan hujjatlar to'g'risidagi ma'lumotlar;
- ✓ kalibrlash uchun ishlatiladigan standartlar va ularni identifikatsiyalash to'g'risidagi ma'lumotlar; miqdor birliklarining davlat birlamchi standartlariga, ular mavjud bo'lmaganda esa xorijiy davlatlarning miqdor birliklarining milliy standartlariga kuzatilishi mumkinligini ko'rsatuvchi sertifikatlashtirish ma'lumotlari;
- ✓ ularning qiymatlarini (harorat, namlik, bosim va boshqalar) ko'rsatadigan ta'sir etuvchi omillar ro'yxati (kalibrlash shartlari);
- ✓ kalibrlash natijalari (shu jumladan o'lchov vositasining metrologik va texnik tavsiflarining haqiqiy qiymatlari, bajarilgan kalibrlash operatsiyalari to'g'risidagi ma'lumotlar)[5];
- ✓ kalibrlashni amalga oshirgan shaxsning bosh harflari, familiyasi, imzosi, individual shtampning izi, kalibrlash sanasi (mavjud bo'lsa);

Kalibrlash metodlari

Kalibrlash Buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan usullarga muvofiq amalga oshiriladi.

Ba'zi hollarda kalibrlash uchun shunga o'xshash SIni tekshirish usuli qo'llanilishi mumkin. Kalibrlash turini tasdiqlash maqsadida sinovning bir qismi sifatida tasdiqlangan tekshirish usullari bo'yicha, shuningdek xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo yoki milliy standartlarda berilgan usullarga muvofiq amalga oshirilishi mumkin.

Ko'pincha kalibrlash texnikasi maxsus tadqiqot vazifalari uchun maxsus ishlab chiqilishi kerak.

Agar kerak bo'lsa, kalibrlash usullari GOST R 8.879-2014 "O'lchovlarning bir xilligini ta'minlash davlat tizimi (O'DT)" talablarini hisobga olgan holda ishlab chiqiladi.

Qo'llash doirasi

Ushbu standart GOST ISO/IEC 17025 qoidalariga muvofiq o'lchov vositalarini kalibrlash usullarini qurish, mazmuni va taqdimotiga qo'yiladigan asosiy talablarni belgilaydi.

GOST ISO/IEC 17025-2009 "Sinov va kalibrlash laboratoriyalarining vakolatlariga umumiy talablar".

Atamalar va ta'riflar

Ushbu standartda tegishli ta'riflar bilan quyidagi atamalar qo'llaniladi:

i. O'lchov vositalarini kalibrlash: o'lchov vositalarining metrologik tavsiflarining haqiqiy qiymatlarini aniqlash uchun bajariladigan operatsiyalar to'plami.
ii. O'lchov vositalarini kalibrlash usuli: O'lchov vositalarini kalibrlash tartibini tartibga soluvchi hujjat.
iii. Muvofiqlikni baholash: tekshirish va ob'ektiv dalillarni taqdim etish orqali aniq maqsadli foydalanish uchun maxsus talablar bajarilishini tasdiqlash.
iv. kalibrlash sertifikati: kalibrlashni amalga oshiruvchi tashkilot tomonidan berilgan o'lchov vositasini kalibrlash fakti va natijalarini tasdiqlovchi hujjat.
v. Maqsadli o'lchov noaniqligi: Yuqori chegara sifatida oldindan belgilangan va o'lchov natijalaridan maqsadli foydalanish asosida qabul qilingan o'lchov noaniqligi[6].

Maqsadiga ko'ra kalibrlash usullari quyidagilarga bo'linadi:

- o'lchov vositalarining bir yoki bir nechta guruhiga kiruvchi o'lchov vositalarini kalibrlash uchun mo'ljallangan kalibrlash texnikasi;
- bir yoki bir nechta turdagi o'lchov vositalarining o'lchov vositalarini kalibrlash uchun mo'ljallangan kalibrlash texnikasi;
- o'lchov vositalarining yagona nusxalarini kalibrlash uchun mo'ljallangan kalibrlash texnikasi.

Kalibrlash tartibini tartibga soluvchi hujjat quyidagi shaklda taqdim etilishi mumkin:

- xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo yoki milliy standart;
- o'lchov vositalari yoki tegishli standart uchun texnik shartlarning maxsus bo'limi;

- davlat ilmiy metrologiya instituti tomonidan tasdiqlangan tavsiyalar sifatida berilgan hujjat;
- kalibrlash metodologiyasini ishlab chiquvchi korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan hujjat;
- kalibrlash metodologiyasini qo'llaydigan korxona rahbari tomonidan tasdiqlangan hujjat.

Kalibrlash metodologiyasini ishlab chiquvchilar quyidagilar bo'lishi mumkin:

- davlat ilmiy metrologiya institutlari;
- qo'llanilishining aniq sohalarida yangi usullar va o'lchov vositalarini ishlab chiqishga ixtisoslashgan metrologiya markazlari yoki ilmiy-tadqiqot institutlari;
- o'lchov vositalarini ishlab chiqaruvchilar;
- o'lchov vositalaridan foydalanuvchilar (kalibrlash laboratoriyasi buyurtmachilari);
- kalibrlash laboratoriyalari.

GOST ISO/IEC 17025 talablariga muvofiq kalibrlashda mijozning ehtiyojlarini qondiradigan kalibrlash usullaridan foydalanish kerak. Xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo yoki milliy standartlarda keltirilgan usullardan foydalanish afzalroqdir[7].

Agar kerak bo'lsa, belgilangan sharoitlarda standartlashtirilgan protsedura qo'llanilishini ta'minlash uchun qo'shimcha protseduralar va talablarni o'z ichiga olgan kalibrlash protsedurasi standartiga qo'shimcha ishlab chiqilishi mumkin. Bunday holda, kalibrlash tartibi foydalanilgan standartning bo'limlariga havola qilingan va kiritilgan barcha qo'shimchalarni ko'rsatgan holda mustaqil hujjat sifatida tuzilishi kerak.



1-rasm: Kalibrlash jarayon sxemasi

O'lchov vositalarini tekshirish va kalibrlash usullari

O'lchov vositalarini tekshirish davlat tomonidan belgilangan tekshirish sxemasi va metodologiyasi bo'yicha amalga oshiriladi. Kalibrlash uchun bunday

yagona standart yo'q, chunki ushbu jarayon tadqiqot xarakteriga ega bo'lib, qurilma foydalanuvchisining talabi va xoxishidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Bir nechta asosiy metodologiyalar mavjud:

Standart bilan taqqoslash.

Ushbu usul ko'pincha elektromagnit o'lchovlar, elektr tokining parametrlarini aniqlash uchun asboblar uchun ishlatiladi. Mohiyati bir vaqtning o'zida ko'rsatkichlarni sinov qurilmasi va mos yozuvlar (ideal sifatida qabul qilingan) qurilma bilan o'lchashdir[8]. O'qishlardagi farq sinovdan o'tkazilayotgan qurilmaning xatosi deb hisoblanadi.

Qiyosiy taqqoslash.

Ushbu tekshirish usuli uchun komparator ishlatiladi - kalibrlangan (tekshirilgan) va standart o'lchov vositalarining o'qishlarini solishtirish imkonini beruvchi qurilma. Bu ko'rsatkichlarni to'g'ridan-to'g'ri taqqoslash imkoni bo'lmaganda kerak. Taqqoslash moslamasi kalibrlangan (tasdiqlangan) va standart o'lchov vositalarining signallariga teng javob beradigan har qanday o'lchash moslamasi bo'lishi mumkin.

Bilvosita o'lchash.

Ba'zan o'qishni to'g'ridan-to'g'ri olish mumkin emas, keyin ular tekshirilayotgan qiymatni emas, balki unga bog'liq bo'lganlarni qidirishga murojaat qilishadi. Ushbu usul ko'pincha avtomatlashtirilgan kalibrlash (tekshirish) uchun ishlatiladi.

Xulosa ushbu maqolada kalibrlash jarayoni haqida tadqiqot izlanishla asosida ma’lumotlar yoritilgam. Kalibrlash turini tasdiqlash maqsadida sinovning bir qismi sifatida tasdiqlangan tekshirish usullari bo'yicha, shuningdek xalqaro, mintaqaviy, davlatlararo yoki milliy standartlarda berilgan usullarga muvofiq amalga oshirilishi, hamda bugungi kunda barcha o’lchov vositalari aniqlik darajasini oshirishda kalibrlashning o’rni juda muhim sanaladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining O‘zbekiston Respublikasining 27.02.2023 yildagi O‘RQ-819-sonli “Texnik jihatdan tartibga solish to‘g‘risida”gi qonuni.
2. Toirov, B. B. (2021). AXBOROT TEXNOLOGIYALARI MAHSULOT SIFATINI BOSHQARISH VOSITASI SIFATIDA. Science and Education, 2(2), 338-343.
3. Tairov, B. B. (2022). Standartlashtirishning tatbiq etilishi dolzarb muammo sifatida. Science and Education, 3(11), 422-428.
4. Таиров, Б. Б., Хўжжиев, М. Я., & Ўғли, Қ. З. А. (2023). ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНИКОВ. Universum: технические науки, (5-2 (110)), 29-36.

5. METHODS FOR DETERMINING DEFECT LEVELS FOR LABORATORY DEVICES. (2023). Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(9), 645-651.
6. Khojjiyev, M., & Karshiyev, Z. (2024). METHODOLOGY OF INSPECTION OF GAS METERS. Multidisciplinary Journal of Science and Technology, 4(11), 20-23.
7. Rajabovich, S. R. (2024). Methods Of Improving Technological Quality In Cleaning Grain Mixtures From Waste Based On Gost Requirements. Texas Journal of Multidisciplinary Studies, 29, 127-130.
8. Таиров, Б. Б., Хўжжиев, М. Я., & Ўғли, Қ. З. А. (2023). ПРОГРАММНО-МЕТОДИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ОБУЧЕНИЯ НА ОСНОВЕ КОГНИТИВНО-ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ПОДХОДА В ПОДГОТОВКЕ ИНЖЕНЕРОВ-ТЕХНИКОВ. Universum: технические науки, (5-2 (110)), 29-36.

MAHALLIY HOM ASHYO ASOSIDA ISHLAB CHIQILGAN NATRIY SILIKAT PENTAGIDRAT ($Na_2SiO_3 \cdot 5H_2O$) FOYDALANISH SOHALARINI O'RGANISH

Raxmatov Marat Salimovich

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti

Email.mrahmatov@mail.ru

Abstract: This article explores the possibilities of improving and applying the technology for producing sodium silicate pentahydrate using local resources. Sodium silicate pentahydrate is widely used in industries such as construction, chemical production, and environmental protection. This study focuses on the economic efficiency and environmental sustainability of the production process. The use of local raw materials enhances the energy efficiency of the technology and reduces dependence on imports. The new technology opens up broad opportunities for the development of the construction industry and other sectors, contributing to the economic growth of the country.

Keywords: Sodium silicate pentahydrate, construction materials, chemical industry, environmental sustainability, economic efficiency, local raw materials, technological improvement.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности совершенствования и применения технологии производства пентагидрата силиката натрия с использованием местных ресурсов. Пентагидрат силиката натрия широко применяется в таких областях, как строительство, химическая промышленность и экология. В данном исследовании основное внимание уделено экономической эффективности и экологической чистоте производственного процесса. Использование местного сырья способствует повышению энергоэффективности технологии и снижению зависимости от импорта. Новая технология открывает широкие возможности для развития строительной отрасли и других секторов, а также способствует экономическому росту страны.

Ключевые слова: Пентагидрат силиката натрия, строительные материалы, химическая промышленность, экологическая чистота, экономическая эффективность, местное сырье, технологическое совершенствование.

Annotatsiya: Ushbu maqolada mahalliy resurslardan foydalangan holda natriy silikat pentagidrat ishlab chiqarish texnologiyasini takomillashtirish va qo'llash imkoniyatlari o'rganiladi. Natriy silikat pentagidrat qurilish, kimyo va ekologiya kabi sohalarda keng qo'llaniladi. Ushbu tadqiqotda ishlab chiqarish jarayonining

iqtisodiy samaradorligi va ekologik tozaligiga e’tibor qaratilgan. Mahalliy xomashyodan foydalanish texnologiyaning energiya samaradorligini oshirishga va importga bo‘lgan qaramlikni kamaytirishga yordam beradi. Yangi texnologiya qurilish sanoati va boshqa tarmoqlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar ochadi va mamlakat iqtisodiy o‘sishiga hissa qo‘shadi.

Kalit so‘zlar: Natriy silikat pentagidrat , qurilish materiallari, kimyo sanoati, ekologik tozalik, iqtisodiy samaradorlik, mahalliy xomashyo, texnologik takomillashtirish.

Kirish: Natriy silikat ko‘p jihatdan sodda, ammo keng qo‘llaniladigan tarkibga ega bo‘lib, undagi SiO_2 va Na_2O nisbati moduli va ishqoriylik darajasiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Bu birikma suyuq shisha sifatida ma’lum bo‘lib, qurilish, kimyo va sanoatning boshqa sohalarida muhim rol o‘ynaydi. Suvda eritilgan yoki quruq holga keltirilgan natriy silikat gidratlar hosil qiladi, ular ko‘p maqsadlarda, jumladan, yopishtiruvchi vositalar va maxsus beton ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Ushbu tadqiqotda natriy silikat pentagidrat ini olish texnologiyasi bosqichma-bosqich ko‘rib chiqiladi. Natriy silikat pentagidrat qurilish sanoatida mustahkam materiallar tayyorlash, qishloq xo‘jaligida o‘g‘itlar va katalizator sifatida, shuningdek, ion almashinish materiallari va maxsus adsorbentlar ishlab chiqarishda foydalaniladi. Ushbu texnologiya orqali mahalliy resurslardan samarali foydalanish va ekologik toza jarayonlarni qo‘llashga erishish maqsad qilingan.

Natriy silikatning kislotalar bilan reaksiyasi maxsus adsorbentlar, suvga chidamli qog‘oz, va ion almashinish materiallari kabi mahsulotlarni olishga imkon beradi. Ushbu jarayon natijalarida hosil bo‘ladigan mahsulotlar yuqori so‘rish qobiliyatiga ega bo‘lib, ularni sanoatda keng qo‘llash imkoniyatini beradi. Shuningdek, quyish sanoatida qum-silikat bloklari ishlab chiqarishda natriy silikat asosiy bog‘lovchi sifatida muvaffaqiyat bilan ishlatilmoqda.

Asosiy qism: Natriy silikat ishlab chiqarish jarayoni barcha mahsulotlar uchun umumiy bo‘lib, asosiy xom ashyo sifatida kvarts qumi va soda kuli (Na_2CO_3) ishlatiladi. Yuqori haroratli jarayon natijasida turli shakldagi natriy silikat hosil bo‘ladi, ular keyinchalik maxsus ishlov berish bilan maqsadli mahsulotlarga moslashtiriladi.

Asosiy xom ashyo va eritma tayyorlash: Kvars qumi va soda kulidan tashkil topgan aralash 1200-1800°C haroratda eritiladi. Hosil bo‘lgan eritma gidratlangan shaklni olish uchun karbonat angidrid (CO_2) bilan reaktsiyaga kiritiladi.

Maxsus ishlov berish:Qattiq gidratlangan natriy silikatni olish uchun gidrotermik ishlov qo‘llaniladi. Suvsiz natriy silikat gidratlangan materialdan suv bug‘latib chiqarish orqali tayyorlanadi. Eritmaning yopishqoqligi yoki pH darajasini

o‘zgartirish uchun HCl yoki boshqa erituvchilar (masalan, etanol) qo‘shiladi, bu natriy metasilikat yoki orto-silikat hosil bo‘lishiga olib keladi.

Ishqoriy jarayon: Konsentrlangan natriy gidroksidda kvarts qumini eritish orqali natriy silikat eritmasi olinadi:

$$SiO_2+2NaOH \rightarrow Na_2SiO_3+H_2O$$

Oddiy reaksiya: Soda kulini kvarts qumi bilan reaksiyaga kiritish orqali natriy silikat hosil qilinadi:

$$Na_2CO_3+SiO_2 \rightarrow Na_2SiO_3+CO_2$$

Gidrotermik usul: Gidratlangan natriy silikat eritmasi qayta ishlanib, qattiq gidratlangan shaklga keltiriladi.

Maxsus mahsulotlar ishlab chiqarish

- **Silikagel**: $SiO_2.xH_2O$ kimyoviy formulaga ega bo‘lib, kislotali (x=0) va ishqoriy (x=1) shakllarda bo‘ladi. Neytrallash jarayonida pH qiymatini ehtiyotkorlik bilan boshqarish talab qilinadi.
- **Natriy metasilikat**: Natriy silikat eritmasiga HCl qo‘shilishi orqali olinadi.
- **Natriy ortosilikat**: Silikat eritmasiga etanol qo‘shilishi natijasida hosil bo‘ladi.

Ishlab chiqarilgan natriy silikatning qo‘llanilishi

Qurilish materiallari: Beton mustahkamligini oshirish uchun ishlatiladi. O‘choq plitalari va issiqlik izolyatsiya materiallari ishlab chiqarishda bog‘lovchi sifatida qo‘llaniladi.

Kimyo sanoati: Ko‘pik hosil qiluvchi vositalar va yuvish vositalarida ishlatiladi. Plastmassa va yopishtiruvchi materiallar tayyorlashda asosiy reagent sifatida foydalaniladi.

Suvni tozalash sanoati: Suvni yumshatish va qattiq qoldiqlarni cho‘ktirish uchun reagent sifatida ishlatiladi.

Qadoqlash sanoati: Karton va qog‘oz qutilarni yopishtirishda qo‘llaniladi.

Nano-texnologiyalar: Nanozarrachalar va yuqori sifatli katalizatorlar ishlab chiqarishda ishlatiladi.

Qishloq xo‘jaligi: O‘g‘itlar tarkibiga kiritilib, tuproq unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi

Xomashyo tanlash samaradorligi: Mahalliy kvarts qumi va soda kuli mavjudligi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Xomashyo arzonligi natriy silikatni raqobatbardosh mahsulotga aylantiradi.

Energiyani tejash: Qayta ishlangan issiqlikdan foydalanish orqali energiya sarfini kamaytirish mumkin. Jarayonni optimallashtirish orqali energiya tejamkorligi oshadi.

Qo‘shimcha mahsulotlar ishlab chiqarish: Silikagel, metasilikat va orto-silikat kabi maxsus mahsulotlarni ishlab chiqarish mahsulot turini kengaytiradi va bozor talabiga mos keladi.

XULOSA:

Texnologik rivojlanish va kelajakdagi ekologik talablarning oshishi sharoitida yangi sanoat tarmoqlarini barpo etish uzoq muddatli jarayon bo‘lib, atrof-muhitga ko‘rsatadigan salbiy ta’sirini kamaytirish qiyin bo‘lishi mumkin. Shu sababli, oldini olish choralari va barqaror rivojlanishni ta’minlash yangi sohalarning bosh maqsadi bo‘lishi kerak. Kelajakda rivojlanayotgan sanoat tarmoqlari o‘tmishdagi xatolardan saboq olib, ishlab chiqarishda ekologik xavfsiz va kamroq zararli usullarga e’tibor qaratishi lozim.

Bugungi kunda ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda og‘ir sanoatning pasayishi va ushbu sohalarning rivojlanayotgan mamlakatlarga ko‘chirilishi globallashuv va savdo liberallashuvi natijasi sifatida kuzatilmoqda. Biroq, bu jarayon ko‘pincha sog‘liqni saqlash va ekologik me’yorlari past bo‘lgan hududlarda sanoatni rivojlantirishga olib kelmoqda, bu esa atrof-muhitga salbiy ta’sirni kuchaytiradi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun kompaniyalar ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va texnologik innovatsiyalarni joriy etish orqali ekologik xavfsizlikni oshirishi kerak.

Shuningdek, xorijiy investitsiyalar sanoatni transformatsiya qilish va ishlab chiqarish pasayishini sekinlashtirish imkoniyatini beradi. Ammo, bu jarayonda atrof-muhitga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni cheklash va barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajakda texnologik taraqqiyot bilan bir qatorda, sanoatning ekologik jihatdan mas’uliyatli yondashuvi global miqyosda barqaror rivojlanishning muhim omili bo‘lib qoladi.

ADABIYOTLAR:

1. Брыков А.С., Данилов В.В., Ларичков А.В. (2006). Особенности гидратации портландцемента в присутствии силикатов натрия. Журнал прикладной химии, 79(4), 533-536.
2. Нажарова Л.Н., Мингазова Г.Г. (2018). Технология метасиликата натрия. Международный академический вестник, 70-74.
3. Рахматов М.С., Бердиева З.М., Адизова Н.З. Перспективы атмосферных оптических линий связи нового поколения //Современные материалы, техника и технология. – 2013. – С. 134-135.
4. Атоев Э.Х. Строение и свойства внутрикомплексных соединений 8-меркаптохинолина (тиооксина) и его производных //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 10-2 (76). – С. 29-32.

5. Мавланов Б.А., Адизова Н.З., Рахматов М.С. изучение бактерицидной активности (со) полимеров на основе (мет) акриловых производных гетероциклических соединений //Будущее науки-2015. – 2015. – С. 207-209.
6. Рахматов М.С. Влияние катализатора, температуры и растворителя на синтез и выход продукта реакции с виниловым эфиром салициловый кислоты в присутствии винилацетилена //Universum: химия и биология. – 2020. – №. 11-2 (77). – С. 16-20.
7. Рахматов М.С., Рамазанов Б.Г. Исследование синтеза и изучение свойств дивиниловых эфиров салициловой кислоты //Universum: технические науки. – 2021. – №. 12-5 (93). – С. 51-55.
8. Salimovich R.M., Shavkatovich P.N. Synthesis and study of properties of salicylic acid products //ΛΌΓΟΣ. – 2020. – С. 25.
9. Мухаммадиев Б. Т. и др. Сверхкритическая экстракция и рафинирование масла семян тыквы диоксидом углерода //Актуальные проблемы теории и практики электрохимических процессов. – 2017. – С. 33-38.
10. Рахматов М.С., Норова М.С., Давлатов И.Х. Проблемы перспективных материалов для техники и технологии //Современные инструментальные системы, информационные технологии и инновации. – 2014. – С. 342-344.
11. Нарзиев М. и др. Анализ технологических процессов производства пентагидрата силиката натрия //Ilmiy tadqiqot va innovatsiya. – 2022. – Т. 1. – №. 2. – С. 58-65.

UO'K.328/2964

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHDA SANOAT TARMOG'INI AHAMIYATI

Sh.M.Tolipov

Dotsent, Toshkent davlat texnika universiteti Sanoat iqtisodiyoti va menejmenti kafedrasi I.F.N. Toshkent

Sardor5255@gmail.com

Annotatsiya: *Mazkur maqolada kambag'allikni qisqartirishda sanoat tarmoqlarining ahamiyati tahlil qilingan. Sanoatning iqtisodiy o'sishdagi o'rni, yangi ish o'rinlarini yaratish, texnologik rivojlanish, malaka oshirish, tadbirkorlik va kichik bizneslarning shakllanishi orqali kambag'allikni kamaytirishdagi hissasi ko'rsatilgan.*

Kalit so'zlar: *kambag'allikni qisqartirish, sanoat rivojlanishi, iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, texnologik rivojlanish, malaka oshirish*

Аннотация: *В данной статье анализируется значение отраслей промышленности в сокращении бедности. Показана роль промышленности в экономическом росте, вклад в сокращение бедности за счет создания новых рабочих мест, технологического развития, повышения квалификации, предпринимательства и формирования малого бизнеса.*

Ключевые слова: *сокращение бедности, промышленное развитие, экономический рост, создание рабочих мест, технологическое развитие, повышение квалификации, предпринимательство*

Abstract: *This article analyzes the importance of industries in reducing poverty. The role of industry in economic growth, the contribution to poverty reduction through the creation of new jobs, technological development, skill improvement, entrepreneurship and the formation of small businesses is shown.*

Key words: *poverty reduction, industrial development, economic growth, job creation, technological development, skill improvement.*

Kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash mamlakatlarning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu maqsadga erishishda sanoat tarmoqlari muhim rol o‘ynaydi, chunki sanoat iqtisodiyotning yirik tarmog‘i sifatida iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi, ish o‘rinlari yaratadi va aholi daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. O‘zbekiston hukumati ham kambag‘allik darajasini kamaytirish va iqtisodiy rivojlanishni jadallashtirish uchun sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil sentabr oyida chiqargan qaroriga ko‘ra, sanoatni modernizatsiya qilish, texnologiyalarni yangilash va innovatsiyalarni keng miqyosda joriy etish orqali mamlakatda iqtisodiy o‘sish va

bandlikni ta’minlash bo‘yicha yangi chora-tadbirlar belgilandi. Ushbu qaror sanoat sohasidagi investitsiyalarni kengaytirish va yangi ishlab chiqarish quvvatlarini yaratish orqali kambag‘allikni qisqartirishga yordam beradi [1].

Mazkur maqolada sanoat tarmoqlarining O‘zbekistonda kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Shu maqsadda iqtisodiyotdagi sanoat ulushi, ish o‘rinlari yaratish, investitsiyalar hajmi va eksport salohiyati kabi asosiy ko‘rsatkichlar o‘rganiladi. Ushbu tahlillar orqali sanoat tarmoqlarining aholi farovonligi va mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga qanday hissa qo‘shayotgani aniqlanadi.

Kambag’allikni qisqartirishda sanoat tarmoqlarining roli va ahamiyatini aniqlash uchun statistik ma’lumotlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi asosiy ko’rsatkichlar o’rganildi:

Sanoatning iqtisodiyotga hissasi: Mamlakatning yalpi ichki mahsulotidagi (YaIM) sanoatning ulushi har yili o’zgarib turadi. Ushbu ko’rsatkich sanoat tarmoqlarining umumiy iqtisodiy o’sishga qanday ta’sir ko’rsatishini aniqlash uchun zarur. O’rganish uchun 2020-2022 yillar oralig’ida to’plangan ma’lumotlar keltirildi.

2020 yilda sanoat tarmoqlarining YaIMdagi hissasi 46% ni tashkil etgan bo’lsa, 2021 yilda bu ko’rsatkich 49% ga, 2022 yilda esa 52% ga oshgan. Bu esa sanoat tarmoqlarining iqtisodiyotga qo’shgan hissasining har yili oshib borayotganini ko’rsatadi.

Ish o’rinlari yaratish: Sanoat tarmoqlari ish o’rinlari yaratishda muhim rol o’ynaydi. 2020 yildan 2022 yilgacha mamlakatda yaratilgan yangi ish o’rinlari soni o’rganildi.

2020 yilda sanoat tarmoqlarida 150 ming yangi ish o’rni yaratilgan, 2021 yilda bu ko’rsatkich 160 mingga, 2022 yilda esa 170 mingga oshgan. Bu sanoat tarmoqlarining ahamiyatini yanada oshiradi va kambag’allikni qisqartirishda muhim omil bo’lib xizmat qiladi [4].

Investitsiyalar hajmi: Sanoatning rivojlanishida investitsiyalar muhim o’rin tutadi. Davlat va xususiy sektor tomonidan qilingan investitsiyalar hajmi tahlil qilindi.

2020 yilda investitsiyalar hajmi 700 mlrd so’mni, 2021 yilda 800 mlrd so’mni, 2022 yilda esa 900 mlrd so’mni tashkil etdi. Bu o’sish mamlakat iqtisodiyotiga qo’shimcha ravishda yangiliklar kiritish, texnologiyalarni yangilash va ishlab chiqarishni kengaytirishga imkon yaratadi [6].

Eksport salohiyati: Sanoat tarmoqlarining eksportga qo’shgan hissasi ham muhim ko’rsatkichdir. 2020-2022 yillarda sanoat tarmoqlarining eksportdagi ulushi o’rganildi.

2020 yilda sanoat tarmoqlarining eksporti 80 mlrd so’mni, 2021 yilda 90 mlrd so’mni, 2022 yilda esa 100 mlrd so’mni tashkil etdi. Sanoat tarmoqlari orqali olib borilayotgan eksport mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini ta’minlaydi.

Tahlil usullari

Ushbu tadqiqotda statistik ma’lumotlar yig’ish, tahlil qilish va natijalarni taqdim etish usullari qo’llanildi:

Ma’lumotlar yig’ish: Rasmiy statistika agentliklaridan, iqtisodiy tadqiqotlardan va sanoat sohasidagi hisobotlardan ma’lumotlar to’plandi.

Solishtiruvchi tahlil: Turli sanoat tarmoqlari o’rtasida solishtirishlar o’tkazildi, bu esa ularning iqtisodiyotdagi ahamiyatini ko’rsatishga yordam berdi.

Grafik va jadval shaklida taqdimot: Olingan ma’lumotlar grafiklar va jadvallar yordamida ko’rsatildi, bu esa ma’lumotlarni tezda qabul qilish va tushunishni osonlashtirdi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi kambag’allikni qisqartirishda sanoat tarmoqlarining iqtisodiyotga qo’shgan hissasini to’liq tahlil qilish va kelgusida bu sohada qanday strategiyalar ishlab chiqish mumkinligini ko’rsatishdir.

Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatdiki, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi kambag’allikni qisqartirishda muhim rol o’ynaydi. O’rganilgan ma’lumotlar asosida quyidagi asosiy natijalar va tahlillar keltirilgan:

Yangi ish o’rinlarining yaratilishi: Sanoatning rivojlanishi natijasida turli sohalarda yangi ish o‘rinlari yaratildi. Bu esa kambag’allik darajasining pasayishiga sezilarli ta’sir ko’rsatdi. Ishsizlikning qisqarishi orqali aholining daromadlari oshdi va turmush darajasi yaxshilandi. Masalan, O’zbekistonda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi, xususan, yengil sanoat, qurilish, energetika va avtomobilsozlik sohalarida yangi ish o’rinlari ochilishi natijasida qishloq va shahar joylarida kambag’allik darajasida pasayish kuzatildi.

Texnologik rivojlanish va samaradorlikning oshishi: Sanoat korxonalari va texnologiyalarning rivoji ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, mahsulot hajmini ko‘paytirdi. Bu o‘z navbatida iqtisodiyotning boshqa sohalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Xususan, texnologik modernizatsiya orqali sanoat mahsulotlarining eksport hajmi oshdi, bu esa davlat daromadlarini ko‘paytirib, kambag‘allikni qisqartirishga qo‘shimcha zamin yaratdi. Rivojlangan texnologiyalar va yuqori malakali kadrlar bilan sanoat tarmoqlari barqaror o‘sish ko‘rsatkichlariga erishdi [2].

Ijtimoiy infratuzilmaning kengayishi: Sanoatning kengayishi bilan qator ijtimoiy infratuzilma loyihalari, jumladan, ta’lim, sog‘liqni saqlash va transport tizimlari rivojlanib, kambag‘allikning asosiy omillaridan biri bo‘lgan ijtimoiy tengsizlikni kamaytirishga yordam berdi. Ijtimoiy infratuzilmaning yaxshilanishi

aholiga ko’proq imkoniyatlar yaratdi, natijada kambag’allikni qisqartirish jarayoni tezlashdi.

Muhokama:

Tadqiqot natijalari, sanoat tarmoqlarining kambag’allikni qisqartirishdagi ahamiyatini ko’rsatadi. Sanoat rivojlanishi, iqtisodiy o’sishni ta’minlash va ijtimoiy farovonlikni oshirishda muhim rol o’ynaydi.

Iqtisodiy o’sish: Sanoat tarmoqlarining diversifikatsiyasi va modernizatsiyasi, yangi texnologiyalarni joriy etish, iqtisodiy o’sish uchun muhim omil bo’lib, natijada aholi daromadlari oshadi va kambag’allik darajasi pasayadi.

Ish o’rinlari: Sanoatning rivojlanishi yangi ish o’rinlari yaratadi. Olingan natijalar shuni ko’rsatadiki, yangi korxonalar ochilishi, mahalliy aholi uchun ish o’rinlarini ko’paytiradi, bu esa ijtimoiy barqarorlikni ta’minlaydi [7].

Ta’lim va malaka: Sanoat rivojlanishi bilan birga ta’lim va malaka oshirish zaruriyati ortadi. O’quv dasturlarining sanoat ehtiyojlariga moslashtirilishi, ishchilarni mehnat bozoriga tayyorlaydi va ularning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Investitsiyalar: Sanoat sektorida amalga oshirilayotgan investitsiyalar, o’z navbatida innovatsion texnologiyalarni joriy etishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari, innovatsiyalar orqali ishlab chiqarish jarayonlarini samarali qilish va narxlarni pasaytirishga imkon berishini ko’rsatadi.

Ijtimoiy mas’uliyat: Sanoat tarmoqlari, ijtimoiy mas’uliyatni his qilishi muhimdir. Korxonalar, o’z faoliyatlarida ijtimoiy va ekologik masalalarni hisobga olib, jamiyatning muammolarini hal qilishda yordam berishi zarur [5].

Global raqobat: Globalizatsiya jarayonida mahalliy sanoatning raqobatbardoshligini oshirish, eksportni ko’paytirish va iqtisodiy o’sishga xizmat qiladi. Bu, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning global bozorga kirish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Davlat dasturlari: Davlat tomonidan qo’llab-quvvatlanadigan sanoat dasturlari, iqtisodiy o’sishni va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Bunday dasturlar, keng qamrovli investitsiyalarni amalga oshirishda muhim rol o’ynaydi [3].

Xulosa qilib aytganda, kambag’allikni qisqartirishda sanoat tarmoqlarining rivojlanishi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi. Sanoatning kengayishi va texnologik rivojlanishi natijasida yangi ish o’rinlari yaratilishi, ishlab chiqarish samaradorligining oshishi va aholi daromadlarining ko’tarilishi kambag’allik darajasini sezilarli darajada kamaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, sanoat tarmoqlarining rivojlanishi faqat iqtisodiy o’sishga emas, balki ijtimoiy adolatni ta’minlashga, aholining turmush darajasini yaxshilashga va jamiyatda iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishga katta hissa qo’shadi. Sanoatning barqaror rivojlanishi kambag’allikka qarshi kurashda samarali vosita sifatida muhim o’rinni egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi. "Sanoatni rivojlantirish va modernizatsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida qaror", 2023-yil sentabr. Rasmiy qaror matni.

2. Abdullayev.M. O’zbekistonda sanoatning rivojlanishi va kambag’allikni qisqartirish masalalari. T. Fan nashriyoti, 2019. 48b.

3. Karimov.I. Yangi iqtisodiy model va kambag’allikka qarshi kurash.T. O’zbekiston nashriyoti, 2020. 115b.

4. Qosimov.Sh. Sanoatni modernizatsiya qilish va qishloq joylarida bandlikni oshirish. T. Iqtisodiyot nashriyoti, 2018. 80b.

5. Rustamov.B. Rivojlanayotgan mamlakatlarda sanoat va kambag’allikni qisqartirish strategiyalari. T. Sharq nashriyoti, 2021. 95b.

6. Saidov. Z. O’zbekiston iqtisodiyotining sanoat sektori va ijtimoiy rivojlanish. Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. 34b.

7. Toshmatov. O. Sanoat tarmoqlarining rivoji va ijtimoiy barqarorlik. Toshkent: O’zbekiston iqtisodiyoti nashriyoti, 2019. 51b.

POLIFOSFAT AMMONIY KOMPOZITLARI ASOSIDAGI QOPLAMANING FIZIK-KIMYOVIY TAHLILI

Nurqulov Eldor Nurmuminovich
Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti
(PhD)
E-mail: nneldor@mail.ru

Annotasiya: Maqolada akril kislota sopolimeri bilan polifosfat ammoniyning kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarning issiqlikka chidamliligi, yoninbardoshlik xossalari tarkibiy qismlarining miqdoriy nisbatiga bog'liqligi va termik tahlillari o'rganildi

Kalit so'zlar: Metall konstruksiya, akril kislota sopolimeri, polifosfat ammoniy, qavariqlanuvchi qoplama

Аннотация: В статье изучены теплостойкость и огнестойкие свойства вспучивающихся покрытий на основе композитов сополимера акриловой кислоты и полифосфата аммония, их зависимость от количественного соотношения компонентов, а также проведен термический анализ этих покрытий.

Ключевые слова: Металлоконструкция, сополимер акриловой кислоты, полифосфат аммония, вспучивающееся покрытие

Abstract: In the article, the heat and fire resistance properties of swelling coatings based on composites of acrylic acid copolymer and ammonium polyphosphate, their dependence on the quantitative ratio of components were studied, and a thermal analysis of these coatings was also carried out.

Keywords: Metal structure, acrylic acid copolymer, ammonium polyphosphate, swelling coating

Metall konstruksiyalarni yong'indan himoyalash uchun, metall konstruksiya yuzasini beton qorishmasi, gipslash va boshqa usullardan foydalanilgan holda yong'inbardosh qoplamalar tayyorlangan hamda ushbu qoplamalardan keng miqyosda foydalanilgan. Bu esa konstruksiyalarga juda katta ortiqcha yuk bo'ladi, hamda dizayn va qurilishdagi ba'zi cheklovlarni keltirib chiqaradi. Zamonaviy shaharsozlik talablariga ko'ra, inshootlarning umumiy og'irligini kamaytirish va dizaynni takomillashtirish sababli, qurilish materiallari bozorida zamonaviy yong'inga chidamli materiallar paydo bo'la boshladi. Shu sababli katta hajmli binolarni yong'indan va issiqlikdan himoyalash uchun suv o'tkazmaydigan bo'yoqlar, laklar, qoplama va boshqa usullar bilan almashtirildi.

Metall konstruksiyalar uchun ishlab chiqarilgan qavariqlanuvchi qoplamalar asosan 550^{o}C dan past bo'lgan haroratda yong'inda himoyalashini aniqlash sinovlari o'tkiziladi. Bunday qoplamalar bino-inshoatlarni yong'indan himoyalab, qimmatbaho boyliklarini va inson hayotini saqlab qolishi mumkin[1-2]. Qavariqlanuvchi qoplama uchta yong'inbardosh, kislota, uglerod va qavariq hosil qiluvchi qo'shimchalardan iborat. Qavariqlanuvchi qoplama bilan himoyalangan metall konstruksiyali inshootlarda yong'in sodir bo'lganda, o'zidan gaz hosil qilib, qavariqlanadi va uglerod qatlamlarini hosil qiladi, bu issiqliq to'sig'i vazifasini bajarib binoning strukturaviy yaxlitligini saqlaydi [3-4].

Mahalliy xomashyolar asosida sintez qilingan polifosfat ammoniy va akril kislotaning sopolimeri asosida qavariqlanuvchi qoplama olish va xossalarini o'rganish.

Tadqiqotlarimiz davomida akril kislota sopolimeri bilan polifosfat ammoniyning kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamalarning termik tahlillari o'rganildi.

Tadqiqotlarimiz natijasida mahalliy xomashyolar asosida sintez qilingan polifosfat ammoniy va akril kislotaning sopolimeri asosida qavariqlanuvchi qoplama olindi. Qavariqlanuvchi qoplamaga issiqliq tasir qilganda uch bosqichda reaksiya boradi. Birinchi bosqichda qoplama tarkibidagi moddalar parchalanadi, ikkinchi bosqichda parchalanish reaksiyasidan hosil bo'lgan gazlar yuqori tezlikda ajralib chiqadi, uchinchi bosqichda natijada po'lat sirtida issiqlik o'tkazuvchanlikka yuqori qarshilik yuzaga kelib qoplama bir necha barobar qavariqlanadi. Yong'inga qarshi qoplamaning tarkibiy qismlar orasidagi miqdoriy nisbati, avvalambor, qavariq va koks hosil bo'lish jarayonlarining yo'nalishini va chuqurligini, shuningdek qoplamaning umuman olovga chidamli ta'sirining samaradorligini taminlaydi.

Akril kislota sopolimeri derivatogrammasini o'rganish natijasiga ko'ra u 4 ta egri chiziqdan iborat. Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA) (2-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, DTGA egri chizig'i asosan 2 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanish 50-325^{0}C temperaturaga, 2- parchalanadigan oraliq esa 330-480 ^{0}C temperaturaga mos keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2-parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, parchalanishning 82.65 % ya'ni 29.32 mg amalga oshadi.

Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i va DSK egri chizig'ining batafsil tahlili, quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

Akril kislota sopolimerining DTGA va DSK egri chizig'i natijalari tahlili

№	Temperatura,°S	Yo'qotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi,mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori(μV*s/mg))
1	50	1,625	0,245	0,56
2	100	8,012	1,461	2,32
3	200	14,60	0,654	3,65
4	300	28,38	2,124	3,15
5	400	76,29	1,788	3,73
6	500	82,65	2,547	5,17

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasida ko'rinadiki asosiy massa yuqolishi 2-parchalanishda 300-460 °C oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 87 % ya'ni massaning 30 mg yo'qoladi. 483°C dan keyin o'zgarish kuzatilmaydi. Massa o'zgarishsiz qoladi.

Akril kislota sopolimeri bilan polifosfat ammoniyning kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamaning derivatogrammasini o'rganganimizda dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i (DTGA) (2-egri chiziq) tahlili shuni ko'rsatadiki, DTGA egri chizig'i asosan 2 ta intensiv parchalanadigan temperatura oralig'ida amalga oshadi. 1-parchalanadigan oraliq 110-425^{0}C temperaturaga, 2- parchalanadigan oraliq esa 430-780 ^{0}C temperaturaga mos keladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, 1-parchalanadigan oraliqda intensiv parchalanish jarayoni sodir bo'ladi. Bu oraliqda parchalanishning miqdori, parchalanishning 52.65 % ya'ni 13.32 mg amalga oshadi.

Dinamik termogravimetrik analiz egri chizig'i va DSK egri chizig'ining batafsil tahlili, quyidagi 2-jadvalga keltirilgan.

2-jadval

Akril kislota sopolimeri bilan polifosfat ammoniyning kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamaning DTGA va DSK egri chizig'i natijalari tahlili

№	Temperatura,°S	Yo'qotilgan massa, %	Moddaning parchalanish tezligi,mg/min	Sarflanadigan energiya miqdori(μV*s/mg))
1	50	1,625	0,045	0,49
2	100	8,012	0,451	2,78
3	200	14,60	0,687	3,19

4	300	35,38	0,124	2,15
5	400	46,29	0,458	6,73
6	500	51,65	0,547	6,17
7	600	57,01	0,245	5,70
8	700	59,94	3,449	3,32
9	800	60,86	2,534	2,45

Bu derivatogrof tadqiqotlar natijasidan ko'rinadiki asosiy massa yuqolishi 1-parchalanishda 100-450 ^{o}C oralig'ida kechadi unda asosiy massaning 53 % ya'ni massaning 13 mg yukoladi. 780^{o}C dan keyin o'zgarish kuzatilmaydi. Massa o'zgarishsiz qoladi.

Xulosa. Akril kislota sopolimeri va akril kislota sopolimeri bilan polifosfat ammoniyning kompozitlari asosidagi yong'inbardosh qavariqlanuvchi qoplamaning termik tahlillarini o'rganish natijasida, qoplamaning issiqlikka chidamliligini ko'rish mumkin. Ishlab chiqilgan o'tga chidamli qoplama qurilayotgan qurilish ob'yekti sharoitida qurilish inshootlarining yong'inga chidamlilik chegaralarini oshirish, inshootlarni yong'indan himoya qilish yoki sanoat bino va inshootlarida sanoat muhitida qoplama yong'indan himoyalash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. K.M. Murtazayev, D.N. Muxiddinov, F.N. Nurqulov, A.T. Djalilov. Антикоррозионные полимерные химически стойкие покрытия на основе эпоксидных олигомеров// KOMPOZITSION MATERIALLAR Ilmiy-texnikaviy va amaliy jurnali №4/2020

2, Nurqulov E.N, Beknazarov X.S, Djalilov A.T, Nabiyev D.A. Исследование и применение фосфор, азот, бор и металл содержаших антипиренов для повышения огнестойкости свойств древесины. Universum: Технические науки. Выпуск: 8(77). Август 2020. Часть 3

3, Nurkulov E.N, Beknazarov X.S, Djalilov A.T. Исследование свойств металлфосфорсодержащих олигомерных антипиренов. //Булатовские чтения. – 2020. – Т. 5. – С. 203-205

Development of science

Ilmiy jurnal

Dekabr 2024 № 6 VOLUME 1

Development of science ilmiy elektron jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o’tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (word va pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar.

Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega